TASDIQLANGAN
“TBC Bank” ATBning
2026 yil «23» oktyabr 26-sonli Boshqaruv bayonnomasi bilan

“TBC Bank” ATB
bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etilishi bo‘yicha
BOSH SHARTLARI

(yangi tahrir)

1-bob. Kirish va tuzilishi **3**

2-bob. Atama va ta’riflar **5**

3-bob. Umumiy shartlar **12**

4-bob. Bank hisobvarag‘i shartlari **15**

5-bob. Kredit mahsulotlarining umumiy shartlari **21**

6-bob. Kredit mahsulotlarini taqdim etish tartibi **25**

7-bob. Tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish **27**

8-bob. Aloqa **27**

9-bob. Identifikatsiyalash / masofaviy (raqamli) mijozlarni identifikatsiyalash **29**

10-bob. Tasdiqnomalar va kafolatlar **31**

11-bob. Tomonlarning qo‘shimcha huquqlari va majburiyatlari **34**

12-bob. Tomonlarning javobgarligi **38**

13-bob. Fors-major holatlar **40**

14-bob. Mijoz ma’lumotlari va maxfiylik **41**

15-bob. Korrupsiyaga qarshi choralar **47**

16-bob. Bosh Shartlarga muvofiq tuzilayotgan shartnomalarga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish, muddatidan oldin bekor qilish va voz kechish **47**

17-bob. Boshqa qoidalar **49**

18-bob. Bank bilan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan Mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari **49**

19-bob. MBXda SI-assistentdan foydalanish **53**

1-ilova **56**

2-ilova **57**

3-ilova **58**

4-ilova **71**

1-bob. Kirish va tuzilishi

1.1. Bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha ushbu Bosh Shartlar “TBC Bank” Aksiyadorlik Tijorat Bankining (bundan keyin matnda - Bank) jismoniy shaxslarga va/yoki o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga (bundan keyin matnda - Mijoz) qaratilgan, shu jumladan onlayn xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha rasmiy taklifi (oferta) hisoblanadi va bank xizmatlaridan foydalanish jarayonida Tomonlarning huquq va majburiyatlarini, shuningdek, jarayonlarni tartibga soladi.

1.2. Bank va Mijoz o‘rtasidagi munosabatlar bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha ushbu Bosh Shartlar (bundan keyin matnda “BSh” deb yuritiladi) bilan tartibga solinadi, ular, shu jumladan, quyidagi hujjatlardan iborat:

1.2.1. Ariza/Talabnoma (ilgari Shartnoma/Ariza) / onlayn Bank hisoblarini ochish, ularga xizmat ko‘rsatish va boshqa bank xizmatlarini taqdim etish uchun ariza/Talabnoma;

1.2.2. www.tbcbank.uz saytida ko‘rsatilgan xizmatlar tariflari;

1.2.3. Ba’zi Bank mahsulotlari va xizmatlari bo‘yicha shartnomalar;

1.2.4. Bank tomonidan joriy va / yoki kelajakdagi xizmatlarni ko‘rsatish va tartibga solish uchun kiritilishi mumkin bo‘lgan har qanday qo‘shimcha qoidalar, shartlar, takliflar va ilovalar.

1.2.5. Bankning ayrim mahsulotlari bo‘yicha shartlar Mijoz tomonidan so‘ralganda alohida qabul qilinadi. Mijozga tegishli mahsulotlarni qabul qilishdan oldin ularni taqdim etish shartlari bilan diqqat bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi. Qabul qilingan vaqtdan boshlab, bunday shartlar (ilovalar) ushbu Bosh Shartlarning ajralmas qismiga aylanadi.

1.2.6. 1.2.1–1.2.5-bandlarda ko‘rsatilgan BSh va hujjatlarga kiritilgan har qanday ilovalar, o‘zgartirishlar hamda qo‘shimchalar Bank va Mijoz o‘rtasida muayyan xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tuzilgan mazkur BShning ajralmas qismi hisoblanadi (ularning tegishli BShga muvofiq qanday belgilanganidan qat’i nazar) va ular tegishli mazmunni inobatga olgan holda ko‘rsatilgan BSh bilan birgalikda talqin qilinishi lozim.

1.2.7. Mijoz ushbu BShlarni o‘qishi, tanishishib chiqishi va 1.2.1–1.2.5 – bandlarda ko‘rsatilgan kerakli hujjatlarni to‘ldirishi va imzolashi / tasdiqlashi / qabul qilishi kerak, bu bilan u ushbu BShlarni o‘qiganligini va bilishini va ular bilan rozi ekanligini, va Mijoz o‘z tomonidan taqdim etgan ma’lumotlarning ishonchli va to‘g‘ri ekanligini ma‘lum qiladi va tasdiqlaydi.

1.2.8. Mijoz Bankka shaxsini tasdiqlovchi haqiqiy hujjatni (pasport yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalariga muvofiq pasport o‘rnini bosuvchi hujjat) taqdim etadi, uning ma’lumotlari Ariza/talabnoma yoki onlayn ariza/talabnoma, shartnomalar va Bankning boshqa ma’lumotlar bazalariga kiritiladi.

1.2.9. Agar Mijoz xizmatni olish uchun zarur bo‘lgan ishonchli hujjatlarni (tegishli ravishda to‘ldirilgan) va/yoki ishonchli va to‘liq ma’lumotlarni tegishli ravishda to‘ldirmasa, imzolamasa/akseptlamasa va/yoki Bankka taqdim etmasa, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra, Bank Mijozga xizmat ko‘rsatishni rad etishi mumkin.

1.2.10. Bank o‘z xizmatlarini faqat tegishli Arizaning (Talabnomaning) majburiy satrlari Mijoz tomonidan to‘ldirganidan so‘ng va Bankka so‘ralgan hujjatlar va / yoki ma’lumotni taqdim etib, Ariza/Talabnomani (avvalgi Shartnoma/Ariza) imzolaganidan yoki onlayn Ariza/Talabnomani qabul qilganidan so‘ng taqdim etishni boshlaydi.

1.2.11. Ushbu BShni tasdiqlash/qabul qilish orqali Mijoz Bank har qanday mumkin bo‘lgan kanallar orqali Mijoz tomonidan taqdim etilgan va/yoki uchinchi shaxslardan olingan Mijoz to‘g‘risidagi istalgan ma’lumotni tekshirishi mumkinligiga rozilik beradi.

1.2.12. Mazkur BShni tasdiqlash/qabul qilish orqali Mijoz bank hisobvarag‘ini ochishga o‘z roziligini beradi.

1.2.13. Zarur bo‘lganda, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablari asosida ma’lum bir bank xizmatini olish uchun Mijoz Bankka hujjatlarning asl nusxalarini yoki ularning notarial tasdiqlangan nusxalarini taqdim etishi shart.

1.2.14. Mijoz Bankka taqdim etilgan har qanday hujjatlarning haqiqiyligi, ishonchliligi, asosliligi va to‘g‘riligi uchun shaxsan javob beradi.

1.2.15. Bank Mijozdan O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan tartibda boshqa mamlakatda berilgan hujjatlarni tarjima qilish, apostil qo‘yish yoki qonuniylashtirishni talab qilishga haqlidir.

1.3. Bank Mijozlarga kassa xizmati ko‘rsatmaydi (Bank kassalari orqali naqd pul mablag‘larini qabul qilish va berish). Ushbu BShda nazarda tutilgan bank xizmatlari naqd pulsiz shaklda ko‘rsatiladi, bank kartalaridan foydalangan holda bankomatlar, infokiosklar va boshqa qurilmalar, shu jumladan boshqa banklar va to‘lov tizimlarining qurilmalari orqali Bank, Tariflar va to‘lov tizimlari qoidalarida belgilangan tartibda va doirada naqd pul mablag‘larini olish va/yoki kiritish operatsiyalari bundan mustasno.

1.4. Bank BMT Xavfsizlik Kengashi, AQSH Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi (OFAC), Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya va Fransiya (Iqtisodiyot va moliya vazirligi) sanksiyalar ro‘yxatlariga (keyingi o‘rinlarda — “Sanksiyalar ro‘yxatlari”) kiritilgan jismoniy va yuridik shaxslar bilan biznes munosabatlariga kirishmaydi, shuningdek, FATF tomonidan yuqori xavfli yoki kuchaytirilgan monitoring ostidagi yurisdiksiyalar ro‘yxatlariga kiritilgan yurisdiksiyalar bilan bog‘liq shaxslarga nisbatan yuqori ehtiyotkorlikni namoyon etadi.

1.5. Bank o‘z faoliyatini amalga oshirishda Mijoz yoki uning kontragentlari bilan munosabatlarni o‘rnatmaydi va qo‘llab-quvvatlamaydi, agar bunday shaxslar qo‘llaniladigan sanksiya rejimlari ostida bo‘lsa. Xalqaro sanksiyalar talablariga rioya qilish maqsadida Bank Mijozlar, ularning biznes hamkorlari, vakolatli vakillari, benefitsiar egalari va bitimlar bo‘yicha kontragentlarni tegishli sanksiyalar ro‘yxatiga kiritish uchun tekshiradi.

1.6. Bank sanksiyalar qo‘llanilgan mamlakatlar hukumatlari bilan bog‘liq bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar bilan munosabatlarga kirishmaydi.

1.7. Bundan tashqari, Bank mahalliy qonun hujjatlarida belgilangan boshqa sanksiyalar ro‘yxatidan va/yoki Bankning yurisdiksiyasiga yoki faoliyatiga xos bo‘lgan ro‘yxatlardan foydalanadi.

1.8. Bank BMT Xavfsizlik Kengashining 1373-sonli rezolyutsiyasi (2001y.) bilan belgilangan sanksiyalar ostidagi shaxslar bilan biznes munosabatlariga kirishmaydi va ularga xizmat ko‘rsatmaydi. Turli sanksiyalar rejimlaridan kelib chiqadigan boshqa taqiqlar va cheklovlar mahalliy qonun hujjatlariga, sanksiyalar talablariga, aniqlangan xavflar va ushbu xavflarni boshqarish manbalariga muvofiq Bankning ichki hujjatlari bilan belgilanadi.

2-bob. Atama va ta’riflar

2.1. BSh maqsadlariga foydalanilgan atamalar, ta’riflar va qisqartmalar ushbu BSh mijoz tomonidan qabul qilingandan so‘ng, tuzilgan shartnomalarga (shu jumladan arizalar, talabnomalar) va mijoz bilan Bank o‘rtasida munosabatlar yuzaga kelishi bilan tuzilgan boshqa hujjatlarga taalluqli ma’nolarga ega.

2.2. Ushbu BShda quyidagi atamalar, ta’riflar va qisqartmalardan foydalaniladiva quyidagi ma’nolarda talqin etiladi:

2.2.1. **Kartani faollashtirish** - bu Kartani chiqarishda belgilangan Karta saqlovchisi tomonidan Xarajat operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha Bank tomonidan texnik cheklovni bekor qilish tartibi bo‘lib, unda To‘lov limiti yoki boshqa har qanday shartlardan qat’i nazar, Bank tomonidan avtorizatsiya berishni rad etilishi nazarda tutiladi va Bank tomonidan taklif etilgan har qanday usulda taqdim etiladi.

2.2.2. **Bank xizmatlari** - shartnomaga muvofiq Bank tomonidan taqdim etiladigan pullik va bepul bank xizmatlari;

2.2.3. **Kartani / Hisobni bloklash** - bank kartasi / hisobvarag‘i yordamida to‘lovlarni amalga oshirishni va / yoki operatsiyalarni amalga oshirishni to‘liq yoki vaqtincha taqiqlash;

2.2.4. **Bank kartasi (keyingi o‘rinlarda — Karta) -** Bank tomonidan chiqarilgan, uning egasiga (Mijoziga) bank hisobvarag‘ida bir necha bor operatsiyalarni amalga oshirish, shu jumladan hisob-kitoblarni amalga oshirish va hisobvarag‘idan naqd pul olish imkoniyatini beruvchi, moddiy yoki virtual to‘lov kartasi. Bank kartasiga egalik qilgan Mijozning bank hisobvarag‘ida amalga oshirishi mumkin bo‘lgan operatsiyalar turlari bank kartasi egasi va emitenti o‘rtasida tuzilgan shartnomada belgilanadi. Karta nomiga chiqarilgan Mijoz Karta saqlovchisi deb yuritiladi.

2.2.5. **Bank** – mazkur BShning Tomoni hisoblangan “TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki hisoblanadi;

2.2.6. **Bank sirlari** - Bank (a) operatsiyalari haqida himoyalangan ma’lumotlar, hisob-kitoblar va depozitlar to‘g‘risida, (b) Mijozi to‘g‘risida, unga bank xizmatlari

ko‘rsatilishi jarayonida Bank tomonidan olingan ma’lumotlar, (c) Mijozning Bank xona va seyflarida saqlanadigan mol-mulkining mavjudligi, uning xususiyat va qiymati to‘g‘risida, (d) Mijozlar nomidan yoki uning foydasiga banklararo operatsiyalar va bitimlar to‘g‘risida, (e) banklar o‘rtasida bank sirlarini tashkil etuvchi ma’lumotlarning aylanishi natijasida ma’lum bo‘lgan boshqa bank Mijozi to‘g‘risida, (f) jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi ishtirokchilari to‘g‘risida, pensiya badallari, fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi pensiya jamg‘armalari miqdori va hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

2.2.7. **Bank mahsuloti** - Bank tomonidan Mijozga taqdim etiladigan har qanday bank mahsuloti, shu jumladan onlayn mikroqarz/mikrokreditlar, maoshga asoslangan mikroqarz va boshqalar.

2.2.8. Valyuta ayirboshlash operatsiyasi – Bank tomonidan va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartib hamda shartlar asosida, Bank kursi bo‘yicha chet el valyutasini sotib olish, sotish va (yoki) konvertatsiya qilish amaliyotidir.

2.2.9. Valyuta hisobvarag‘i — mazkur BSh, Tariflar va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda Mijozning pul mablag‘larini hisobga olish hamda xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish uchun ochilgan bank hisobvarag‘idir.

2.2.10. **Ko‘chirma -** Bank tomonidan belgilangan shaklda taqdim etiladigan, muayyan davr uchun Mijozning hisobvaraqlaridagi operatsiyalar va qoldiqlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

2.2.11. **Imtiyozli davr** – Bosh Shartlarga ko‘ra, Kredit taqdim etish bilan bog‘liq mukofotlar yoki vositachilik haqlari hamda boshqa shartnomalarda nazarda tutilgan boshqa vositachilik haqlari hisoblanmaydigan va undirilmaydigan, yoki ayrim xizmatlar uchun chegirma beriladigan, yoxud asosiy qarz yoki Foizlar bo‘yicha to‘lov muddati kechiktiriladigan, yoki Bosh Shartlarda ko‘zda tutilgan shartnomalar shartlari boshqa individual tarzda vaqtinchalik yaxshilanadigan vaqt davri. Imtiyozli davr bir yoki bir nechta shaxsga, bir yoki bir nechta operatsiyalarga nisbatan Bank tomonidan belgilangan muddat davomida amal qilishi mumkin. Imtiyozli davrni taqdim etish shartlari Bank tomonidan www.tbcbank.uz saytidagi Internet manbasida tegishli ma’lumotlarni nashr etish va / yoki SMS-xabar va / yoki yozma xabarnoma yuborish orqali yetkaziladi;

2.2.12. **Tranzaksiya sanasi** – tranzaksiya amalga oshirilgan sana;

2.2.13. **O‘zaro hisob-kitob sanasi** – mijozning karta hisobvarag‘idan ilgari amalga oshirilgan tranzaksiya bo‘yicha mablag‘lar yechib olingan sana;

2.2.14. **Shartnoma** – Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan, shu jumladan elektron shaklda imzolangan va/yoki tasdiqlangan Talabnomaning, ushbu BShning va/yoki ushbu BShga nisbatan imzolangan/imzolanadigan/tasdiqlanadigan har qanday qo‘shimcha ilovaning yaxlitligi va uning ajralmas qismi;

2.2.15. **MBX yoki Bankning mobil ilovasi («TBC UZ»)** - mobil telefonlar uchun (Android, iOS va / yoki Bank tomonidan o‘z ixtiyori bilan ishlab chiqilishi mumkin bo‘lgan har qanday boshqa tizim) **Bank tomonidan ishlab chiqilgan va Mijozga o‘z hisob raqamlariga kirishga va Bank tomonidan vakolat berilgan muayyan harakatlarni amalga oshirishga imkon beruvchi dastur**;

2.2.16. **Kredit limitining mavjud qoldig‘i** - Kredit limitining Mijoz tomonidan foydalanilmagan qismi, kredit limiti hajmi va asosiy qarz miqdori o‘rtasidagi farqqa teng;

2.2.17. **Qarzdorlik** - Mijoz tomonidan to‘lanadigan pul summasi, shu jumladan asosiy summa, kredit summasi, overdraft summasi, hisoblangan, ammo to‘lanmagan Foizlar, komission to‘lovlar, jarimalar, penıyalar, jarimalar, yig‘imlar va Mijoz bilan tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar;

2.2.18. **Qarz oluvchi** - Kredit berilgan Mijoz;

2.2.19. **Ariza/Talabnoma yoki onlayn Ariza/Talabnoma** - Bank tomonidan belgilangan shaklda tuzilgan, Mijoz tomonidan Bankka shartnomalar tuzish yoki ma’lum bir boshqa harakatlarni amalga oshirish takliflarini o‘z ichiga olgan hujjat;

2.2.20. **Qonunchilik** - amaldagi qonun hujjatlari va me’yoriy hujjatlar to‘plami, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimiga kiritilgan xalqaro kelishuvlar va shartnomalar;

2.2.21. **So‘rov** - Mijoz tomonidan SI-assistentga yuborilgan har qanday matnli, ovozli yoki boshqa xabar;

2.2.22. **SI-assistent** - MBXda sun’iy intellekt texnologiyalari, shu jumladan tabiiy tilni qayta ishlash modellaridan foydalangan holda faoliyat yurituvchi hamda Mijozning So‘rovlariga Bank xodimlari ishtirokisiz avtomatik rejimda javoblar shakllantiruvchi dasturiy xizmat (chat-bot, virtual yordamchi);

2.2.23. **Kirish PIN kodlari** - elektron qurilmalar va autentifikatsiya vositalaridan foydalangan holda yaratilgan, cheklovsiz, Bank Mijozning o‘zini-o‘zi identifikatsiyalashi uchun elektron kanallarga xavfsiz kirishni ta’minlash uchun zarur deb bilishi mumkin bo‘lgan PIN-kod (lar), parollar, foydalanuvchi nomlari va / yoki mustaqil ravishda tanlangan va / yoki Mijozga Bank tomonidan taqdim etilgan har qanday boshqa kodlar;

2.2.24. **Maxfiy ma’lumotlar** - har qanday ma’lumot / hujjat (shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, Tomonning shaxsiy, ulush ishtiroki bilan bog‘liq ma’lumotlar / hujjatlar, Tomonning egasi / menejeri / affilangan shaxsi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan ma’lumot / hujjat, uchinchi shaxs bilan tuzilgan, ko‘char va ko‘chmas mulk, aktiv (aktivlar), biznes jarayonlar / tartib-taomillar, marketing strategiyalari, Tomonning loyihalari va / yoki boshqa ma’lumotlar) BSh imzolanishi va / yoki bajarilishi vaqtida bir Tomon olgan, qayta ishlagan, yaratgan va / yoki boshqasiga yuborgan va / yoki boshqa muhim narsalar ma’lumot / hujjatlar;

2.2.25. **Kirish kodi** - Mijozni identifikatsiyalash maqsadida Mijoz bilan masofadan turib

Bankka murojaat qilganida, Call Markazga qo‘ng‘iroq qilishda telefon orqali, masofaviy aloqa kanallari orqali, shuningdek, BShda nazarda tutilgan boshqa holatlarda Mijoz ma’lumotlariga kirishning individual raqamli kodi va / yoki harfli kodi;

2.2.26. **Kompрometatsiya** - Karta PIN-kodini, kirish kodlarini yoki autentifikatsiya ma’lumotlarini yo‘qotish yoki uchinchi shaxslarning Karta PIN-kodi, kirish kodlari yoki autentifikatsiya ma’lumotlariga kirishiga shubha qilish.

2.2.27. **Bankning Tijorat kursi** - Bankning valyuta bozoridagi talab va taklif asosida belgilangan ayirboshlash kursi. Mijoz ma’lum bir valyuta ayirboshlash operatsiyasi uchun qo‘llaniladigan kursni operatsiyani tasdiqlashdan oldin ko‘radi va kurs ushbu operatsiya uchun Bank tomonidan belgilangan tartibda Mijoz tomonidan tasdiqlangan vaqtda qayd etiladi.

2.2.28. **Kredit** - qarz oluvchi tomonidan barcha kredit operatsiyalari uchun, shu jumladan kredit liniyasi orqali, muddatlilik, to‘lov va qaytarishi bo‘yicha shartlarida, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan tovarlarni, ishlarni va xizmatlarni sotib olish uchun berilgan pul miqdori. Ushbu BSh doirasida Bank va Mijoz o‘rtasida tuziladigan kredit mahsulotini taqdim etish to‘g‘risidagi shartnoma Kredit shartnomasi deb yuritiladi;

2.2.29. **Kredit liniyasi** - Bankning qarz oluvchiga qarz olish va kredit operatsiyalarini amalga oshirish vaqtini belgilashga imkon beradigan, lekin Bankning ichki kredit siyosati to‘g‘risidagi qoidalar bilan belgilanadigan miqdor va muddat ichida, qayta tiklanadigan yoki qayta tiklanmaydigan limit asosida, BSh va Bank tomonidan belgilangan kredit hisobidan kredit liniyasining maksimal miqdori doirasida Qarz oluvchiga qarz berish huquqi;

2.2.30. **Kredit limiti (keyingi o‘rinlarda — Limit) -** Qarz oluvchining bir martalik foydalanishida bo‘lishi mumkin bo‘lgan kredit liniyasining eng maksimal miqdori doirasida Bank tomonidan belgilanadigan har bir muayyan vaqt uchun qarz operatsiyalari bo‘yicha asosiy qarz summasining cheklangan miqdori;

2.2.31. **Kredit liniyasining maksimal miqdori** - Kredit shartnomasiga muvofiq berilishi mumkin bo‘lgan kredit liniyasi doirasidagi kredit limitining cheklangan miqdori;

2.2.32. **Minimal to‘lov** - kredit limitidan yoki qarz summasidan foizlarda ifodalangan, yoxud Bank tomonidan boshqacha tartibda belgilangan to‘lov miqdorini amalga oshirish orqali qarzdorlikni uzish usuli. Ushbu to‘lovni qarzdorlik mavjud bo‘lganda Qarz oluvchi tomonidan majburiy ravishda to‘lanishi lozim. Qarzdorlikni uzish Bank tomonidan belgilangan kredit liniyasi muddati doirasida amalga oshiriladi;

2.2.33. **XTT** - xalqaro to‘lov tizimi (Visa, Mastercard va boshqalar);

2.2.34. **Telefon raqami** - Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan Mijozning mobil yoki uy telefoni;

2.2.35. **Ta’minot** - Kredit shartnomasi bo‘yicha Qarz oluvchining majburiyatlari ijrosini ta’minlash uchun Bankka taqdim etilgan kafolat, kafillik, shu jumladan ashyoviy

kafillik va majburiyatlar ijrosini ta’minlashning boshqa usullari;

2.2.36. **Operatsiya** - Hisobvaraqlarda aks ettirilishi lozim bo‘lgan har qanday operatsiya (tranzaksiya), shu jumladan chiqim operatsiyalari, xususan, qarz operatsiyalari (kredit limiti hisobidan chiqim operatsiyalari), Kartadan foydalangan holda (tovar uchun to‘lov va naqd pul olish), naqd yoki naqdsiz pul mablag‘larini hisobvaraqlarga kiritish; qaytariladigan to‘lovlar; Bank tomonidan qarzni qoplash uchun pulni hisobdan chiqarish; Hisoblangan to‘lovlar, vositachilik haqi va foizlarni Ariza, Kredit shartnomasi va BShga muvofiq hisobdan chiqarish; Mijozning hisobvaraqlarida aks ettirilishi lozim bo‘lgan boshqa operatsiyalar;

2.2.37. **Bankning operatsion kuni** – bank ish kunining bir qismi bo‘lib, Bankka kelib tushgan barcha pul hisob-kitob hujjatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirish uchun ajratilgan vaqt;

2.2.38. **Asosiy qarz** - bu Mijoz tomonidan qaytarilmagan (to‘lanmagan), shuningdek, kapitallashtirilgan yig‘imlar va boshqa to‘lovlar miqdorini aks ettirgan, bajarilgan kredit operatsiyalari miqdorini aks ettiruvchi Mijoz qarzdorligining bir qismi;

2.2.39. **Javob** - SI-assistent tomonidan So‘rovga javoban shakllantirilgan har qanday ma’lumot (matn, hisob-kitob, havola, tavsiya, ko‘rsatma va h.k.);

2.2.40. **Hamkor** - xizmatlarini MBXda olish mumkin bo‘lgan va Bank tegishli shartnoma asosida hamkorlik munosabatlarida bo‘lgan yuridik shaxs.

2.2.41. **Ilova** - Bank tomonidan ishlab chiqilgan va aniqlanadigan o‘zida BShning yangi xizmatlari, to‘lovlari, jarimalar va / yoki boshqa shartlarini ko‘rsatadigan, o‘zgartirgan va / yoki joriy etgan har qanday qo‘shimcha hujjat (lar);

2.2.42. **Foizlar** – BShda belgilangan yillik (bir yilda 365 (uch yuz oltmish besh) kalendar kun asosida hisoblangan) foiz stavkasi, u Mijozning hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan mablag‘larga Bank tomonidan hisoblanadi va Mijoz tomonidan ushbu BShga muvofiq to‘lanadi, Mijozning hisobvarag‘ida mablag‘lar mavjud bo‘lgan haqiqiy kalendar kunlar bilan hisoblanadi;

2.2.43. **Karta PIN-kodi** - Karta saqlovchisiga beriladigan va Karta saqlovchisini identifikatsiyalash uchun mo‘ljallangan shaxsiy identifikatsiya raqami, maxfiy kod;

2.2.44. **Mijozning xohishiga ko‘ra to‘lov** - qarzdorlikni to‘lash usuli, to‘lovni amalga oshirish yo‘li bilan, uning miqdori Mijoz tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va Bank tomonidan belgilangan Minimal to‘lov miqdoridan kam bo‘lmasligi kerak, agar BShda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa;

2.2.45. **To‘lov limiti** - Mijoz kartadan foydalanib xarajat operatsiyalarini amalga oshirishga haqli bo‘lgan pul miqdori. Hisobvaraqlardagi ijobiy qoldiqni hamda hisobvaraqlarda hali aks ettirilmagan operatsiyalar summasi chegirilgan holda kredit limitlarining mavjud qoldiqlarini o‘z ichiga oladi;

2.2.46. **Ijobiy qoldiq** - Mijozning Karta xizmat ko‘rsatish hisobvarag‘idagi muddati o‘tgan Qarzdorlik bo‘lmagan taqdirda pul miqdori;

2.2.47. **Promo davri** - ayrim bank xizmatlari va / yoki xizmat to‘plamlari bepul yoki pasaytirilgan tariflarda taqdim etiladigan davr;

2.2.48. **Yuqori mansabdor shaxslar (YMSh)** – chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma’muriy yoki sud organida yoxud xalqaro tashkilotda doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo‘yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, tashkiliy-boshqaruv vazifalarini bajaruvchi va yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarni sodir etishga vakolatli shaxslar, shuningdek, chet davlat korxonalarning yuqori martabali rahbarlari, chet davlatning taniqli siyosatchilari va siyosiy partiyalarining taniqli a’zolari;

2.2.49. **Kartani blokdan chiqarish** - Mijoz tomonidan bank kartasidan foydalanish bo‘yicha ilgari o‘rnatilgan cheklovlarni bekor qilish bo‘yicha Bank tomonidan chora-tadbirlar va qarorlar qabul qilish;

2.2.50. **Tavsiya qilingan to‘lov** - Bank tomonidan belgilangan limitlar doirasida kredit liniyasi/mikroqarz/mikrokredit muddati davomida qarz summasini bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatda yoki boshqa muddatda to‘lash uchun kredit, mikroqarz/mikrokreditdan yoki qarzdorlik mavjud bo‘lganda to‘lanishi majburiy bo‘lgan qarzdorlik summasidan foizlarda ifodalangan to‘lovni amalga oshirish orqali qarzdorlikni to‘lash usuli;

2.2.51. **O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar** - jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko‘rsatishda shaxsan ishtirok etishga asoslangan daromad olishga yo‘naltirilgan faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshiruvchi hamda yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tmagan, mehnat stajini hisobga olish va rag‘batlantiruvchi tusdagi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida hisobda turgan jismoniy shaxslar;

2.2.52. **Mijozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar** - Mijoz tomonidan shartnomalar tuzish va bank mahsulotlarini olish uchun taqdim etiladigan, Mijoz tomonidan imzolangan va o‘tkazilgan, potentsial Mijoz, Mijozning kafolatlari, roziligi va kafolatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlar va ma’lumotlar.

2.2.53. **Xizmat paketi** - Xizmat paketi xizmatlarini ko‘rsatish uchun shartnoma tuzish bo‘yicha taklif qabul qilingan taqdirda, Bank ixtiyori bilan taqdim etiladigan qo‘shimcha bepul bank xizmatlari to‘plami;

2.2.54. **Kartaning amal qilish muddati** - operatsiyalarni amalga oshirish uchun kartadan foydalanishga ruxsat berilgan vaqt davri. Karta raqamli formatda uning old tomonida ko‘rsatilgan yil oyining oxirgi kunigacha amal qiladi;

2.2.55. **Hisob raqam** - tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan maqsadlar uchun BShga muvofiq ochilgan Kartaga xizmat ko‘rsatish hisobvarag‘i (lekin shu bilan cheklanmagan holda) va / yoki bank xizmat ko‘rsatish hisobvarag‘i va / yoki jamg‘arma hisobvarag‘i va / yoki valyuta hisobvarag‘i (agar u faollashtirilgan bo‘lsa) va / yoki valyuta jamg‘arma hisobvarag‘i (agar u faollashtirilgan bo‘lsa);

2.2.56. **Tomon / Tomonlar** - Bank va / yoki Mijoz, vaziyatdan kelib chiqqan holda;

2.2.57. **Uchinchi shaxs** - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Mijoz va Bankdan boshqa har qanday shaxs;

2.2.58. **Tarif rejasi** - foizlar, komissiyalar, yig‘imlar va jarimalarni hisoblash, yig‘ish va hisoblash miqdori va qoidalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shuningdek, tegishli shartnoma va BShning ajralmas qismi bo‘lgan boshqa ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan (yozma yoki elektron) hujjat;

2.2.59. **Tariflar** - BShning ajralmas qismi bo‘lgan xizmatlari uchun tarif rejalari va boshqa tariflar to‘plami;

2.2.60. **3D-Secure texnologiyasi** - bir martalik parol yordamida Karta saqlovchisi tomonidan onlayn bitimni tasdiqlash texnologiyasi.

2.2.61. **SSK** - bank kartalarini O‘zbekiston Respublikasi hududida ham, chet elda ham tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to‘lov sifatida qabul qiluvchi savdo va servis korxonasi.

2.2.62. **Masofaviy aloqa kanallari** - Mijoz va Bank o‘rtasida elektron pochta (email), pochta xizmatlari, MBX, Internet-banking, mobil bank, SMS-xabarlar, telefonlar, fakslar, bankomatlar, POS-terminallar, terminallar, elektron kabinet, shu jumladan Internet-kiosk orqali ma’lumotlarni uzatish va almashish vositasi. Bank tomonidan belgilangan tartibda va shartlarda foydalaniladi;

2.2.63. **Holding** - tranzaksiya summasiga muvaffaqiyatli o‘tkazish bilan Bank kartasida mablag‘larni muzlatish. Holding o‘zaro hisob-kitob sanasiga qadar amal qiladi.

2.2.64. **Jarima** - shartnoma majburiyatlarini bajarmagan va / yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda Tomonlar to‘lashi kerak bo‘lgan pul miqdori;

2.2.65. **Elektron kanal -** Bank tomonidan ishlab chiqilgan va taklif etiladigan, Mijozga Bank tomonidan ruxsat etilgan tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi har qanday jismoniy yoki elektron infratuzilma, qurilma, apparat vositasi, dasturiy ta’minot, ilova, shu jumladan cheklovsiz bankomat, MBX, USSD platformasi, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatadigan to‘lov terminallari va/yoki to‘lov terminallari va/yoki veb-saytlar;

2.2.66. **Elektron bank xizmatlari** - Mijozning bank hisobvarag‘i (hisobvaraqlari) bo‘yicha pul miqdori, o‘tkazilgan operatsiyalar haqida ma’lumot olishi, to‘lovlar va pul o‘tkazmalarini amalga oshirishi, bank hisobvarag‘ini (hisobvaraqlarini) ochishi yoki yopishi hamda/yoki boshqa ruxsat etilgan bank operatsiyalarini bajarishi uchun o‘z bank hisobvarag‘iga (hisobvaraqlariga) kirish huquqini olish bilan bog‘liq xizmatlar;

2.2.67. **Elektron pullar** - elektron shaklda saqlanadigan va elektron pul tizimida to‘lov vositasi sifatida qabul qilingan elektron pul emitentining so‘zsiz va qaytarib bo‘lmaydigan pul majburiyatlari;

2.2.68. **Call-Markaz** - Mijozning qo‘ng‘iroqlarini qabul qiluvchi va qayta ishlaydigan, Bank mahsulotlari va xizmatlari to‘g‘risida ma’lumot beruvchi va boshqa Mijozlarga xizmat ko‘rsatish uchun Bank tomonidan belgilanadigan xizmatlarni taqdim e‘tuvchi

Bank bo‘linmasi yoki xizmati;

2.2.69. **SMS** - bu mobil qurilmaga yuboriladigan matnli xabarlardan iborat qisqa xabar xizmati;

2.2.70. **USSD platformasi** - Mijozga operatsiyalarni amalga oshirish va o‘zlarining hisob (lar) iga mobil telefon orqali kirish imkoniyatini beruvchi mobil telefon tarmoqlari operatorlari tomonidan ta‘minlanadigan dasturiy ta’minot;

2.3. “Shu jumladan”, “masalan” yoki “kabi” so‘zlari ularga ergashgan so‘zlarning ma’nosini cheklamaydi;

2.4. Birlik soni ko‘plik sonini o‘z ichiga oladi va aksincha.

3-bob. Umumiy shartlar

3.1. Mazkur Bosh Shartlar Mijozga bank xizmatlarini ko‘rsatish hamda Mijozning Bankdan alohida mahsulotlarni olishi bilan bog‘liq bo‘lgan Mijoz va Bank o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, bunda bunday mahsulotlar shartlari Mijoz tomonidan alohida qabul qilinadi va ushbu Bosh shartlarga ilova qilinadi.

3.2. Bank kredit, mikroqarz/mikrokredit berish, hisobvaraq ochish uchun zarur hujjatlarni qabul qilgani, u bunday shartnomalarni majburiy tartibda tuzishini anglatmaydi. Bank, shartnomalar belgilangan tartibda tuzilguniga qadar BShda nazarda tutilgan xizmatlarni ko‘rsatish va majburiyatlarni bajarishga majbur emas. Shartnomalar tuzilganining tasdig‘i sifatida Bankning tegishli shartnomalarda ko‘rsatilgan harakatlari tan olinadi.

3.3. Mijoz Bank va/yoki uning Hamkori (hamkorlari) xizmatlari uchun to‘lovni Bank tomonidan Mijozning hisobvaraqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri debetlash va/yoki Mijozning hisobvarag‘idan yoki Mijozning Bankdagi yoki O‘zbekiston Respublikasining boshqa banklaridagi istalgan boshqa bank hisobvarag‘idan operatsiyalarni amalga oshirishda Bank tomonidan mablag‘larni akseptsiz yoki avtomat ravishda hisobdan chiqarish orqali amalga oshirishga ruxsat beradi va roziligini bildiradi.

3.4. Mijozga xizmat ko‘rsatish sifatini nazorat qilish maqsadida Bank Mijozni oldindan xabardor qilganidan so‘ng u Mijozning Call-Markaz, Bankning avtorizatsiya xizmati yoki Bankning boshqa bo‘linmalariga murojaat qilganida, u bilan bo‘lgan telefon suhbatlarini yozib olishga va shuningdek, bunday so‘rov haqiqatini tasdiqlash uchun yozuvdan foydalanishga haqlidir.

3.5. Masofaviy aloqa kanallaridan foydalangan holda, Mijoz zarur bo‘lgan maxfiylik rejimini ta‘minlaganligini, barcha kerakli texnik va dasturiy ta’minot manbalariga ega ekanligini, shu jumladan zararli kompyuter dasturlaridan uchinchi shaxslarning ruxsatsiz kirishi / buzilishdan himoya qilinganligini tasdiqlaydi.

3.6. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida va/yoki Bankning ichki me’yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yozishmalarni amalga oshirish, xabarnomalar yuborish, operatsiyalarni bajarish, bitimlar tuzish va boshqa harakatlarni sodir etish uchun, zarur bo‘lganda, quyidagi tasdiqlash turlaridan biri yoki bir nechtasi qo‘llanilishi mumkin: elektron raqamli imzo, MBX

tizimlari, masofaviy aloqa kanallari orqali olingan tasdiqlar, telefon aloqasi, jismoniy imzo yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga zid bo‘lmagan boshqa tasdiqlash vositalari.

3.7. Mijoz bank bilan tuzilgan shartnomada ko‘zda tutilgan o‘z huquqlari va majburiyatlarini Bankning oldindan yozma (shu jumladan elektron shakldagi) roziligisiz uchinchi shaxslarga o‘tkazishga (topshirishga) haqli emas.

3.8. Agar Mijoz O‘zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha bo‘lmasa va u bo‘lmagan vaqtda Bankning mobil ilovasiga biriktirilgan Mijozning telefon raqami boshqa shaxsning ixtiyorida bo‘lsa, Mijozga bank xizmatlarini ko‘rsatish to‘xtatiladi. Bank mijozning shaxsan o‘zi Bankka yoki Bankning istalgan hududiy Bank xizmatlari markaziga tashrif buyurganidan keyingina Mijozga bank xizmatlarini ko‘rsatishni davom ettirishi mumkin.

3.9. Iltimos, shuni e’tiborga olingki, Bankning barcha xizmatlari kuniga 24 soat va haftasiga 7 kun davomida taqdim etilmaydi.

3.10. Agar Mijozning kartasida yoki Bankdagi boshqa hisobvaraqlarida to‘lovlarni amalga oshirish, jumladan, komissiyalarni to‘lash, valyuta konvertatsiyasidagi farqni qoplash, tarif bo‘yicha xizmatlar haqini to‘lash va Bank bilan tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan boshqa xarajatlarni qoplash uchun mablag‘ yetarli bo‘lmasa, Mijozga ushbu xarajatlarni qoplash uchun avtomat tarzda texnik overdraft ochiladi. Texnik overdraft kredit hisoblanmaydi, kredit majburiyatlarini yuzaga keltirmaydi va faqatgina bunday hisob-kitoblarni amalga oshirishning texnologik xususiyatlari tufayli taqdim etiladi. Texnik overdraft, jumladan, quyidagi hollarda yuzaga kelishi mumkin.

3.10.1. Valyutalarni konvertatsiya qilishdagi kurs farqi. Xorijiy valyutadagi operatsiya milliy valyutaga o‘tkazilganda hisobdan yechiladigan yakuniy summa operatsiya avtorizatsiya qilingan sanada emas, balki hisob-kitoblar (kliring) amalda o‘tkazilgan sanada aniqlanadi. Operatsiya avtorizatsiya qilingan sana va hisob-kitoblar (kliring) o‘tkazilgan sana o‘rtasida tegishli chet el valyutasi kursi o‘zgarganda, hisobdan chiqarishning yakuniy summasi bunday operatsiyani bajarish maqsadida hisobvaraq bo‘yicha ilgari bloklangan pul mablag‘lari summasidan oshib ketishi mumkin, bu esa hisobvaraq bo‘yicha salbiy qoldiq hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

3.10.2. Tranzaksiyaga ishlov berish va kliringning kechikishi. Ayrim operatsiyalar (masalan: mehmonxonalarni bron qilish, transport vositalarini ijaraga olish, ishlov berish kechiktirilgan maydonchalardagi xaridlar) dastlabki summaga avtorizatsiya qilinadi, yakuniy hisobdan chiqarish esa ma’lum vaqtdan so‘ng amalga oshiriladi. Ko‘rsatilgan davrda Mijoz mavjud qoldiqni kamaytiruvchi boshqa chiqim operatsiyalarini amalga oshirishga haqli, buning natijasida ilgari avtorizatsiya qilingan operatsiya bo‘yicha yakuniy hisobdan chiqarish texnik overdraft yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

3.10.3. Xato o‘tkazmani bekor qilish. Mijozning hisobvarag‘iga pul mablag‘lari xato (texnik nosozlik, yuboruvchining xatosi yoki boshqa holatlar tufayli) o‘tkazilgan va keyinchalik ushbu mablag‘lar Bank yoki uchinchi tomon orqali qaytarilgan (hisobdan chiqarilgan) taqdirda, hisobvaraqdagi haqiqiy qoldiq salbiy bo‘lishi mumkin, agar Mijoz xato o‘tkazish bekor qilingunga qadar bunday o‘tkazma summasiga xarajatlar operatsiyalarini amalga oshirishga erishgan bo‘lsa.

3.10.4. Oldindan avtorizatsiyasiz amaliyotlar (oflayn tranzaksiyalar). Ayrim toifadagi amaliyotlar — jumladan, jamoat transportida yo‘l haqini to‘lash, oflayn rejimda ishlaydigan terminallardagi tranzaksiyalar — Bankdan oldindan avtorizatsiya so‘rovi yuborilmasdan amalga oshiriladi. Bunday amaliyotlar bo‘yicha mablag‘larning yechib olinishi kechikish bilan amalga oshiriladi, bu esa hisobda salbiy qoldiq hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

3.10.5. Tranzaksiyaning yakuniy summasini tuzatish. Ayrim hollarda savdo-servis korxonalari dastlabki avtorizatsiyadan so‘ng, masalan, ovqatlanish korxonalarida choychaqalar qo‘shilganda yoki transport ijarasida qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatilganda, operatsiya summasiga tuzatish kiritishga haqli. Agar tuzatilgan summa dastlab bloklangan mablag‘lardan oshib ketsa, farq texnik overdraftga olib kelishi mumkin.

3.10.6. To‘lov tizimlari ishidagi texnik nosozliklar. Visa, Mastercard to‘lov tizimlari, protsessing markazlari yoki boshqa hisob-kitob ishtirokchilari ishidagi uzilishlar tufayli yuzaga kelgan alohida hollarda, operatsiyalar standart ishlov berish navbatini o‘zgartirgan holda amalga oshirilishi mumkin, bu esa vaqtincha salbiy qoldiq hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

3.10.7. Boshqa texnik holatlar. Texnik overdraft, shuningdek, Mijozning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa texnik xususiyatdagi sabablar, shu jumladan xalqaro va milliy to‘lov tizimlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari munosabati bilan ham yuzaga kelishi mumkin.

3.11. Mijozda texnik overdraft yuzaga kelgan taqdirda, Mijoz uning vujudga kelgan kunidan boshlab 5 (besh) kalendar kun ichida kartani salbiy balans summasiga to‘ldirishi shart. Mijoz qarzdorlikni Bank tomonidan taqdim etilgan har qanday mavjud to‘ldirish kanali orqali karta hisobvarag‘iga pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan so‘ndirishga haqli.

3.12. Mijoz O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq, shuningdek, Mijoz tomonidan masofaviy bank xizmatlari tizimlarida amalga oshiriladigan operatsiyalar xavfsizligini ta’minlash maqsadida, Bank Mijozga uning telefon raqamiga va/yoki MBX orqali, jumladan SMS-xabarlar, PUSH-bildirishnomalar, shuningdek, Mijoz raqamiga telefon qo‘ng‘irog‘i orqali xabarnomalar va xabarlar yuborishini anglaydi va tasdiqlaydi. Mijoz Bank tomonidan yuboriladigan barcha ko‘rsatilgan xabarlar bilan diqqat bilan tanishib chiqish majburiyatini oladi. Bankka bog‘liq bo‘lmagan texnik sabablarga ko‘ra xabarnomaning kelib tushmasligi Mijozni BShning 3.11-bandida belgilangan muddatlarda texnik overdraftni to‘lash majburiyatidan ozod etmaydi.

3.13. Texnik overdraft summasi BShning 3.11-bandida belgilangan muddatda to‘lanmagan taqdirda, Mijozning karta hisobvarag‘iga kelib tushadigan barcha pul mablag‘lari avtomat ravishda texnik overdraft summasini birinchi navbatda to‘lashga yo‘naltiriladi. Bank, shuningdek, quyidagi huquqlarga ega:

- Mijozga muddati o‘tgan qarzdorlik mavjudligi to‘g‘risida takroriy xabarnoma yuborish;

- Bankning ichki tartib-qoidalarida belgilangan tartibda muddati o‘tgan qarzdorliklarni undirish uchun mas’ul bo‘lgan Bank bo‘linmalariga qarzdorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish;

3.14. Agar texnik overdraft 5 (besh) kalendar kun ichida to‘lanmasa, Bank Mijozning Bankda

ochilgan hisobvaraqlaridan, shu jumladan xorijiy valyutadagi hisobvaraqlaridan qarzdorlik summasini hisobdan chiqarish sanasidagi Bankning Tijorat kursi bo‘yicha konvertatsiya qilingan holda akseptsiz hisobdan chiqarishga haqli. Bu bilan Mijoz ko‘rsatilgan maqsadlarda akseptsiz hisobdan chiqarishga o‘z roziligini beradi.

3.15. Texnik overdraft kredit mahsuloti hisoblanmaydi, shu munosabat bilan texnik overdraft summasiga foizlar, penyalar, neustoykalar va boshqa jarima sanksiyalarini hisoblash uni to‘lash muddatidan qat’i nazar amalga oshirilmaydi. Mijozning hisobvarag‘iga kelib tushayotgan barcha mablag‘lar BSHning 3.13-bandiga muvofiq texnik overdraftni birinchi navbatda to‘lashga yo‘naltiriladi.

3.16. Texnik overdraft summasidan norozi bo‘lgan taqdirda, Mijoz qarz yuzaga kelgan vaqtdan boshlab 30 (o‘ttiz) kun ichida Bankka yozma ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Bank murojaatni 15 (o‘n besh) kun ichida ko‘rib chiqadi va qabul qilingan qaror haqida Mijozni BSHning 3.12-bandida ko‘rsatilgan kanallar orqali xabardor qiladi. Sudgacha (talabnoma tartibida) hal etilmagan nizolar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

3.17. Mazkur BShni qabul qilish orqali Mijoz Bank tomonidan mustaqil ravishda va/yoki Bankning affilangan shaxslari, Bank bilan yagona kompaniyalar guruhiga kiruvchi shaxslar (mazkur BShning 14.15-bandida belgilangan ma’noda) va Hamkorlar bilan birgalikda amalga oshiriladigan sodiqlik dasturlarida (keyingi o‘rinlarda — “Sodiqlik dasturlari”) ishtirok etishga, shu jumladan tegishli Sodiqlik dasturi qoidalariga muvofiq bonuslar, keshbek va boshqa rag‘batlantirishlarni hisoblash, ulardan foydalanish va hisobdan chiqarishga rozilik beradi.

Sodiqlik dasturlari qoidalari, shu jumladan rag‘batlantirishlarni hisoblash va ulardan foydalanish shartlari, ularning amal qilish muddatlari va ishtirok etish tartibi Bank va/yoki tegishli Sodiqlik dasturi tashkilotchisi tomonidan tasdiqlanadi hamda Bankning www.tbcbank.uz rasmiy veb-saytida va/yoki MBXda joylashtiriladi. Bank tegishli Sodiqlik dasturi qoidalarida nazarda tutilgan tartibda Sodiqlik dasturlarini bir tomonlama joriy etish, o‘zgartirish, to‘xtatib turish va tugatish huquqiga ega.

Sodiqlik dasturlarida ishtirok etish maqsadida Mijoz o‘zining shaxsga doir ma’lumotlarini, shuningdek, bank sirini tashkil etuvchi operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ushbu bandning birinchi xatboshisida ko‘rsatilgan shaxslarga Sodiqlik dasturlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hajmda, mazkur BShning 14-bobiga muvofiq qayta ishlash va uzatishga rozilik beradi.

Mijoz istalgan vaqtda MBX orqali yoki tegishli Sodiqlik dasturi qoidalarida nazarda tutilgan boshqa usulda Sodiqlik dasturida ishtirok etishdan voz kechishga haqli. Bonuslar va boshqa rag‘batlantirishlar Mijozning pul mablag‘lari hisoblanmaydi, agar Sodiqlik dasturi qoidalarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, pul mablag‘lariga almashtirilmaydi va omonat (depozit) hisoblanmaydi.

4-bob. Bank hisobvarag‘i shartlari

4.1. Bank, Mijoz tomonidan Bosh Shartlar qabul qilinganidan so‘ng, milliy valyutada hisobvaraq ochish va unga xizmat ko‘rsatish (norezidentlar uchun — 15 bank kuni ichida), Mijozning

Hisobvarag‘iga kelib tushadigan pul mablag‘larini qabul qilish va kirim qilish, Hisobvaraqdan tegishli summalarni yechish, o‘tkazish va berish bo‘yicha Mijozning farmoyishlarini, shu jumladan MBX kanallari orqali, bajarish, shuningdek, Hisobvaraq bo‘yicha boshqa amaliyotlarni mazkur Bosh Shartlarda va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan shartlar asosida hamda tartibda amalga oshirish majburiyatini oladi. Xorijiy valyutadagi joriy hisobvaraq Bank tomonidan Mijozning MBX orqali bergan arizasi asosida, Bank, mazkur Bosh Shartlar va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan tartibda ochiladi.

4.1.1. Valyuta hisobvarag‘i Bank tomonidan Mijozning ushbu BSHning 4-ilovasida nazarda tutilgan shaklda, MBX orqali yoki Bank tomonidan belgilangan boshqa usulda berilgan arizasi asosida, mazkur BSH, Tariflar, Bankning ichki hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida, shu jumladan valyutani tartibga solish, valyutani nazorat qilish va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartib va shartlarda ochiladi, xizmat ko‘rsatiladi va yopiladi.

Valyuta hisobvarag‘ini ochish Mijoz tomonidan identifikatsiya va tegishli tekshiruvdan o‘tkazilgandan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan hujjatlar va ma’lumotlar taqdim etilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

Bank O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda Valyuta hisobvarag‘ini ochishni rad etishga haqli.

Agar Valyuta hisobvarag‘i Mijozga avval Bankda ochilgan bo‘lsa, Bank yangi Valyuta hisobvarag‘ini ochmasdan MBX orqali uning aks ettirilishi va foydalanilishini ta’minlash huquqiga ega.

4.1.2. Valyuta hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalar valyutani tartibga solish talablari, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in quroli tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik, O‘zbekiston Respublikasining sanksiyaviy qonunchiligi, mazkur BSh, Tariflar hamda Bankning ichki hujjatlari inobatga olingan holda amalga oshiriladi. Bank Valyuta hisobvarag‘i bo‘yicha mavjud operatsiyalar ro‘yxatini bir tomonlama belgilashga, shuningdek, bunday operatsiyalarga, jumladan, hisobvaraqni to‘ldirish, hisobdan yechish, Mijozning o‘z hisobvaraqlari o‘rtasida o‘tkazish va valyuta ayirboshlash operatsiyalariga nisbatan cheklovlar o‘rnatishga haqlidir.

4.1.3. Mijozning hisobvaraqlari bo‘yicha xorijiy valyutani sotib olish, sotish va konvertatsiya qilish Bank tomonidan Valyuta ayirboshlash operatsiyalari orqali Bank va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda va shartlarda amalga oshiriladi. Valyuta ayirboshlash operatsiyasi Mijozning MBX orqali shakllantirilgan va tasdiqlangan farmoyishi asosida amalga oshiriladi. Valyuta ayirboshlash operatsiyasi tasdiqlangunga qadar Bank Mijozning e’tiboriga Bankning qo‘llaniladigan kursini, hisobdan chiqarish summasini, o‘tkazma summasini, Bank komissiyasi miqdorini (mavjud bo‘lsa) va operatsiyaning boshqa parametrlarini yetkazadi. Valyuta ayirboshlash operatsiyasini tasdiqlash Mijozning ko‘rsatilgan operatsiya shartlariga roziligini anglatadi. Valyuta ayirboshlash operatsiyasi Bankning hisob tizimlarida Mijozning hisobvaraqlari bo‘yicha tegishli pul mablag‘larining hisobdan chiqarilishi va hisobga olinishi

aks ettirilgan vaqtdan boshlab bajarilgan deb hisoblanadi. Bank O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ushbu BShda nazarda tutilgan hollarda Valyuta ayirboshlash operatsiyasini amalga oshirishni rad etish, uni bajarishga qabul qilmaslik yoki uning bajarilishini to‘xtatib turish huquqiga ega.

4.1.4. Bank O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Bosh Shartlar va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq, Mijozdan valyuta hisobvarag‘ini ochish, unga xizmat ko‘rsatish va/yoki valyuta hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni, jumladan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur hujjatlar, ma’lumotlar va tushuntirishlarni so‘rab olishga haqli. Agar Mijoz so‘ralgan hujjatlar, ma’lumotlar va/yoki tushuntirishlarni taqdim etmasa, Bank valyuta hisobvarag‘ini ochishni, operatsiyani amalga oshirishni va/yoki tegishli xizmatni ko‘rsatishni rad etish huquqiga ega.

4.2. Mijoz, o‘z navbatida, Bank tomonidan tasdiqlangan va www.tbcbank.uz veb-saytida joylashtirilgan mavjud Tariflarga muvofiq komissiyani to‘lash majburiyatini oladi.

4.3. Mazkur BSh bir vaqtning o‘zida bank hisobvarag‘i shartnomasi hisoblanadi. Ariza/Talabnoma (ilgari - Shartnoma/Ariza), shuningdek, bank hisobvaraqlarini ochish va ularga xizmat ko‘rsatish hamda boshqa bank xizmatlari va mahsulotlarini taqdim etish uchun onlayn ariza/Talabnoma (keyingi o‘rinlarda – “Ariza/Talabnoma”) mazkur BShning ajralmas qismi hisoblanadi.

4.4. Bank Mijozdan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ochilgan bank hisobvarag‘iga joylashtirish uchun pul summasini qabul qiladi.

4.5. Tegishli summalarni kirim qilish, o‘tkazish BSh va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda faqat naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi, mazkur BShning 1.3-bandini inobatga olgan holda.

4.6. Mijozga dam olish va bayram kunlaridan tashqari, Bankning operatsion kuni davomida xizmat ko‘rsatiladi. MBX orqali xizmat ko‘rsatish 24 soat davomida amalga oshiriladi. Mijozning Bankning operatsion kuni tugaganidan so‘ng MBX orqali yuborgan farmoyishlari Hisobvaraq bo‘yicha keyingi operatsion kunda ijro etiladi, real vaqt rejimida bajariladigan operatsiyalar (shu jumladan bank kartalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan o‘tkazmalar va to‘lovlar) bundan mustasno. Operatsion kunning davomiyligi va tugash vaqti Bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablari va to‘lov tizimlarining ish rejimini inobatga olgan holda mustaqil belgilanadi va, jumladan, texnik ishlar o‘tkazilishi hamda dasturiy ta’minot, shu jumladan Bankning mobil ilovasi yangilanishi munosabati bilan o‘zgarishi mumkin.

4.7. Agar 3 yil davomida mablag‘ mavjud bo‘lsa va operatsiyalar amalga oshirilmasa, Mijozga harakatsiz 20206-“Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha depoziti” hisobvarag‘i ochiladi. Ushbu hisobvaraqni yuritish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

4.8. Hisobvaraqdan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish Bosh Shartlarda, ayrim bank mahsulotlari va xizmatlarini ko‘rsatish shartnomalarida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda Bank tomonidan amalga oshiriladi.

4.9. Bank majburiyatlari:

4.9.1. Mijozning talabiga, Bosh Shartlarga asosan jismoniy shaxs uchun talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ini ochish.

4.9.2. Mijozning mablag‘larini saqlash, summalarni hisob raqamiga kirim qilish, ularni o‘tkazish yoki berish bo‘yicha Mijozning talablarini bajarish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Bosh Shartlarda nazarda tutilgan boshqa operatsiyalarni amalga oshiradi.

4.9.3. Bank sirini saqlash, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

4.9.4. Hisob raqamdagi mavjud mablag‘larning xavfsizligi va butligini ta’minlash. Hisobvaraqdagi mablag‘larni xatlash yoki u bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yish faqat O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

4.10. Bank huquqlari:

4.10.1. Mijozga boshqa bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish uchun zarur bo‘lgan hollarda tegishli hisobvaraqlarni ochish.

4.10.2. Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish to‘g‘risidagi topshiriqnoma lozim darajada bajarilmagan/rasmiylashtirilmagan yoki Bankka topshirilayotgan operatsiyalar ushbu BShga va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo‘lgan taqdirda bunday topshiriqnomani ijroga qabul qilmaslik.

4.10.3. Tariflarni, mazkur Bosh Shartlarni va bank mahsulotlarini taqdim etish shartlarini mazkur BShning 16.4-bandida nazarda tutilgan tartibda o‘zgartirish.

4.10.4. Mijozdan uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan va hisobvaraq bo‘yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlaydigan ma’lumotlar va hujjatlarni taqdim etishni talab qilish.

4.10.5. Mijozning hisobvarag‘idagi operatsiyalarni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda to‘xtatish.

4.10.6. Bank O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega.

4.10.7. Mijoz Bankka Mijozning qo‘shimcha roziligini olmasdan tegishli buxgalteriya o‘tkazmalarini (tuzatishlarni) amalga oshirish, shu jumladan, Hisobvaraq bo‘yicha pul mablag‘larining so‘zsiz noto‘g‘ri kiritilishi yoki hisobdan chiqarilishi aniqlangan taqdirda, Hisobvaraqdan pul mablag‘larini so‘zsiz hisobdan chiqarish huquqini beradi.

4.10.8. Masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatishda Mijozning qurilmasida zararli yoki boshqa dasturiy ta’minot, shuningdek, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish xavfsizligiga tahdid soladigan boshqa holatlar mavjudligini monitoring qilish, ular aniqlangan taqdirda esa Mijozning Bankning mobil ilovasiga va (yoki) masofaviy bank xizmatiga kirishini vaqtincha cheklash va (yoki) bloklash, shuningdek, ayrim

operatsiyalarning bajarilishini cheklash.

4.11. Mijoz majburiyatlari:

4.11.1. Barcha operatsiyalarni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga qat’iy muvofiq ravishda bajarish.

4.11.2. Bankning talabiga binoan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Bankning ichki me’yoriy hujjatlariga muvofiq so‘raladigan ma’lumot va hujjatlarni taqdim etish. Mijoz Bankka taqdim etilgan hujjatlar, topshiriqnomalar va boshqa ma’lumotlardagi axborotning to‘liqligi, haqqoniyligi va to‘g‘riligi uchun javobgardir.

4.11.3. Hisobvaraqqa noto‘g‘ri/ortiqcha o‘tkazilgan va/yoki hisobvaraqdan yechib olingan pul mablag‘lari aniqlangan taqdirda zudlik bilan Bankka xabar berish.

4.11.4. Tadbirkorlik faoliyati va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga zid bo‘lgan faoliyat bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirish uchun hisobvaraqdan foydalanmaslik (o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘z faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq operatsiyalari bundan mustasno).

4.11.5. Bosh Shartlarda ko‘rsatilgan aloqa kanali orqali 3 (uch) kalendar kun ichida Bankni Mijoz manzili va / yoki telefon raqamining o‘zgarishi, shu jumladan uyali telefon, familiyasi, ismi yoki otasining ismi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki bank shartnomalarining bajarilishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan boshqa hujjat almashtirilganligi to‘g‘risida xabardor qilish.

4.11.6. Bank xizmatlaridan vijdonan foydalanish, ushbu Bosh Shartlar va bank xizmatlarini ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bilan berilgan huquqlarni suiiste’mol qilmaslik, bezor qiluvchi, insofsiz yoxud haqoratli tusdagi, umumiy qabul qilingan ishbilarmonlik axloqi me’yorlariga zid bo‘lgan va/yoki Tomonlarning o‘zaro hamkorligining me’yoriy tartibi buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarni sodir etmaslik.

4.11.7. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq boshqa majburiyatlarga ega.

4.12. Mijoz huquqlari:

4.12.1. Pul mablag‘lari qoldiqlari, kirim-chiqim operatsiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni SMS-xabarnomadan foydalanish orqali, mobil telefon orqali/ MBX orqali/Bankning rasmiy veb-saytidagi shaxsiy kabinet orqali yoki ushbu BShda nazarda tutilgan boshqa usulda olish.

4.12.2. Hisobvaraqdagi pul mablag‘larini o‘z xohishiga ko‘ra, shu jumladan, lekin cheklanmagan holda, MBX va boshqa masofaviy kanallar orqali mustaqil ravishda tasarruf etish, ushbu BSh, Bank hisobvarag‘i shartnomasi va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

4.13. Bank O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi qonuniga, Bosh Shartlarga va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ma’lumotlarning maxfiyligini va bank sirini tashkil etuvchi mijozlarning ma’lumotlarini saqlanishini kafolatlaydi.

4.14. Bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar Mijozga yoki uning vakiliga, ularning so‘roviga binoan (yozma yoki elektron shaklda) Bank tomonidan taqdim etilishi mumkin.

4.15. Mijozning bank siri hisoblangan ma’lumotlari uchinchi shaxslarga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

4.16. Tomonlar o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun Bosh Shartlarni va Bank hisobvarag‘i shartnomasining shartlarini buzgan tomon O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

4.17. Ushbu BShni tasdiqlash orqali Mijoz shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlashga o‘z roziligini beradi.

4.18. Mijozning shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlash Mijoz tomonidan shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilik tasdiqlangan vaqtdan boshlab amalga oshiriladi va Mijoz tomonidan bunday rozilik bekor qilingunga qadar amal qiladi, shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlash uchun Bank Mijozning roziligini talab qilmaydigan holatlar bundan mustasno. Mijozning shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berishga roziligini bekor qilishi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida saqlanishi belgilangan shaxsga doir ma’lumotlarni yo‘q qilishga asos bo‘lmaydi. Mijoz bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish shartnomalari amal qilgan davrda shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilikni bekor qilish Bank tomonidan tegishli mahsulotlar va xizmatlarni keyinchalik taqdim etishning imkonsizligiga olib kelishi mumkinligi va ularni tugatish uchun asos bo‘lishi to‘g‘risida xabardor qilingan. Rozilikni bekor qilish Mijozni Bank oldidagi majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi va qonun hujjatlariga muvofiq Mijozning roziligi talab etilmaydigan hollarda Bank tomonidan shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berilishiga to‘sqinlik qilmaydi.

4.19. Bank Mijozing mablag‘laridan foydalanish shaklini belgilash va nazorat qilish, shuningdek, Mijozning pul mablag‘laridan foydalanish va tasarruf etish huquqlarini cheklash huquqiga ega emas, mazkur BShda va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

4.20. Bank hisobvarag‘i shartnomasida ko‘zda tutilmagan, Bank va Mijoz o‘rtasidagi munosabatlar, Bosh Shartlar va O‘zbekiston Republikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq tartibga solinadi.

4.21. Tomonlar uchun Mijozning hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilanadi va ikkala Tomon uchun ham majburiydir.

4.22. Ushbu BShlar bank hisobvarag‘i shartnomasi kuchiga ega ekanligini hisobga olgan holda, tegishli huquqiy munosabatlar Mijoz tomonidan ushbu BShlar qabul qilingan sanadan boshlab yuzaga keladi va ular quyidagi hollarda tugatilgunga qadar amal qiladi: istalgan vaqtda Mijozning tashabbusi bilan; Tomonlarning kelishuviga ko‘ra; ushbu BSh va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida bevosita nazarda tutilgan hollarda Bankning tashabbusi bilan bir

tomonlama tartibda; sud qarori asosida.

4.23. Hisobvaraq mijozning bank oldidagi majburiyatlarini to‘liq bajarishi, shu jumladan bank xizmatlarini ko‘rsatish munosabati bilan yuzaga kelgan barcha qarzdorliklarni to‘lashi sharti bilan mazkur BShning 4.22-bandida nazarda tutilgan hollarda yopiladi.

4.24. Mijoz 1 (bir) yil davomida uzluksiz ravishda operatsiyalar (shu jumladan Bankning mobil ilovasi orqali) amalga oshirilmagan bank hisobvaraqlarini, bunday hisobvaraqlarda pul mablag‘lari qoldig‘i bo‘lmagan va Mijozning Bank oldida qarzdorligi bo‘lmagan taqdirda, yopishni Bankka topshiradi. Pul mablag‘lari qoldig‘i mavjud bo‘lgan hisobvaraqlarga mazkur BShning 4.7-bandida nazarda tutilgan tartibda xizmat ko‘rsatiladi. Bunda operatsiyalarning yo‘qligi Mijozning mazkur BShning 1-ilovasida ko‘zda tutilgan shakldagi bank hisobvarag‘ini yopish to‘g‘risidagi arizani rasmiylashtirishga roziligi sifatida qabul qilinadi. Bunday ariza Mijozning o‘z qo‘li bilan imzolangan qog‘oz shaklidagi ariza bilan teng yuridik kuchga ega bo‘ladi.

5-bob. Kredit mahsulotlarining umumiy shartlari

5.1. Ushbu BSh asosida Mijoz/bank kartasi egasi www.tbcbank.uz veb-saytida ko‘rsatilgan kredit mahsulotlaridan foydalanish huquqiga ega.

5.2. Har bir kredit mahsuloti www.tbcbank.uz. veb-saytida chop etiladi. Kredit mahsuloti to‘g‘risidagi umumiy qoidalar ushbu bob bilan belgilanadi va aniq shartlar Tomonlar tuzgan alohida tegishli kredit mahsuloti to‘g‘risidagi shartnoma bilan belgilanadi va tartibga solinadi.

5.3. Mijoz kredit mahsulotini olish uchun Bankka so‘rov yuborishi kerak, shu jumladan masofaviy bank xizmati tizimi (mobil ilova, shaxsiy kabinet va boshqalar) elektron aloqa vositalari orqali qilingan so‘rov asosida bir nechta mahsulotlarni olishga ruxsat beriladi. Bank Mijozning so‘rovini ko‘rib chiqadi va kredit mahsuloti uchun so‘rovni tasdiqlash yoki rad etish to‘g‘risida mustaqil ravishda qaror qabul qiladi.

5.4. Kredit mahsulotini olgandan so‘ng, Mijoz (qarz oluvchi) Bank bilan tuzilgan alohida shartnomada ko‘rsatilgan shartlarga muvofiq uni qaytarishi va foizlarni (yuzaga keladigan penya/jarimalarni) to‘lashi shart.

5.5. Foizlar Mijozning Bank oldidagi qoplanmagan majburiyatiga hisoblanadi va yiliga 365 kunlik hisob-kitob usuli asosida obyektdan foydalanishning haqiqiy kunlariga muvofiq hisoblab chiqiladi.

5.6. Bank ushbu Bosh Shartlarda va/yoki qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Mijozning/Qarz oluvchining Bankda ochilgan barcha hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini akseptsiz (nizosiz) tartibda hisobdan chiqarishga, shuningdek, Mijozning/Qarz oluvchining hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarishni tashabbus qilishga, shuningdek, Mijozdan/Qarz oluvchidan yoki uning huquqiy vorisidan taqdim etilgan kreditlarni va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni, shu jumladan sud tartibida, undirib olishga, shuningdek, kredit berishni to‘xtatib turishga yoki to‘xtatishga quyidagi hollarda haqlidir:

5.6.1. Mijoz/Qarz oluvchi tomonidan Kredit shartnomasi va mazkur BSh bo‘yicha o‘z

zimmasiga olgan majburiyatlarning buzilishi va/yoki bajarilmasligi va/yoki lozim darajada bajarilmasligi;

5.6.2. agar Mijoz/Qarz oluvchi kredit olish uchun Bankka kredit berish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun hal qiluvchi bo‘lgan masalalar bo‘yicha noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarni taqdim etgan bo‘lsa;

5.6.3. kredit qaytarilishining ta’minoti yo‘qolishi yoki ta’minot qiymatining pasayishi;

5.6.4. Mijoz/Qarz oluvchi Bank to‘lov talablarini qabul qilishdan asossiz ravishda rad etgan bo‘lsa;

5.6.5. kredit shartnomasi shartlaridan va BShdan kelib chiqadigan kredit bo‘yicha asosiy qarzni, foizlarni va/yoki boshqa to‘lovlarni kechiktirish holatlarida;

5.6.6. garov shartnomasini kredit shartnomasi tuzilgan kundan boshlab kredit shartnomasida nazarda tutilgan muddatda tuzmaslik;

5.6.7. Mijoz/Qarz oluvchi moliyaviy ahvolining yomonlashishi, shu jumladan daromad manbai mavjud emasligi;

5.6.8. agar Mijoz/Qarz oluvchiga nisbatan jinoiy ish yoki sud ishi qo‘zg‘atilgan bo‘lsa yoki qarzdorning mulki qarzni qoplash uchun xatlangan bo‘lsa, yoki uning mablag‘lari yoki boshqa mol-mulki bilan operatsiyalar muzlatilgan va/yoki to‘xtatilgan bo‘lsa;

5.6.9. Kredit shartnomasini tuzish va undan foydalanishdan maqsad jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish ekanligiga shubhalar mavjud bo‘lsa;

5.6.10. Mijoz/Qarz oluvchiga pul summasini to‘lash va/yoki Mijoz/Qarz oluvchining mol-mulkini undirish va/yoki uchinchi shaxslar tomonidan xatlash to‘g‘risida da’vo qo‘zg‘atilgan bo‘lib, uning miqdori Mijoz/Qarz oluvchi tomonidan ushbu BSh bo‘yicha majburiyatlarini bajarilishi borasida xavf mavjud bo‘lsa;

5.6.11. Bankning kredit mahsulotlaridan foydalanganda xatolik bilan o‘tkazilgan summalarni qaytarish maqsadida pul mablag‘lari noto‘g‘ri o‘tkazilganda va/yoki amaldagi qonunchilikni buzgan holda va/yoki shubhali summalarni Mijoz/Qarz oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkazganda;

5.6.12. kredit bo‘yicha mablag‘larning qaytarilmasligi xavfini oshiradigan har qanday omillarning yuzaga kelishi holatlarida;

5.6.13. agar quyidagi holatlar ro‘y bergan bo‘lsa yoki Bankning fikriga ko‘ra, Mijoz/Qarz oluvchi tomonidan Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaslik (to‘g‘ri bajarmaslik) xavfi mavjud bo‘lsa, quyidagi holatlardan birortasi bilan bog‘liq holda:

5.6.13.1. Qarz oluvchi/ish beruvchi tomonidan Bankning yozma/elektron xabarnomasi asosida olingan Mijoz/Qarz oluvchi va ish beruvchi o‘rtasidagi mehnat munosabatlari (shu jumladan kelajakda) tugatilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoki boshqa manbalardan Bankka kelib

tushgan ma’lumotlar mavjudligi yoki aniqlanganda;

5.6.13.2. Mijozning/Qarz oluvchining o‘limi yoki bedarak yo‘qolishi;

5.6.13.3. Mijoz/Qarz oluvchi tomonidan uning har qanday tasdiq va kafolatlarining buzilishi;

5.6.13.4. Mijoz/Qarz oluvchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablarining buzilishi, agar bu Mijoz/Qarz oluvchi tomonidan Bank oldidagi majburiyatlarning buzilishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lsa;

5.6.14. Agar Qarz oluvchi tomonidan kredit olish va Bank tomonidan kredit berish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun har qanday turdagi ma’lumotlar soxtalashtirilgan bo‘lsa yoki Bank Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan va/yoki Bank tomonidan Qarz oluvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan uchinchi shaxslarning ma’lumotlar bazalaridan olingan ma’lumotlar haqiqatga to‘g‘ri kelmasligiga shubha qilsa.

5.6.15. Shuningdek, agar Mijoz/Qarz oluvchi shubhali harakatlar sodir etganlikda gumon qilinsa yoki kredit mahsuloti qonunga xilof harakatlar sodir etish maqsadida olinganligi aniqlansa yoki kredit mahsuloti Bank tomonidan shubhali/qonunga xilof operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar sifatida tasniflangan shaxslarga to‘liq yoki qisman olingan/o‘tkazilganligi aniqlansa, Bank Mijoz/Qarz oluvchidan, Mijoz/Qarz oluvchining huquqiy vorisidan kredit mahsulotining muddatidan oldin to‘lanishini (hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda) undirish huquqiga ega.

5.7. Mijoz ushbu Bosh shartlarda, tuziladigan shartnomalarda, shuningdek Bankning ma’lumotlar bazasida va/yoki “Kredit-axborot tahliliy markazi” kredit byurosi” MCHJ (bundan keyin Byuro deb yuritiladi) va Kredit axboroti davlat reyestri (Garov reyestri) ma’lumotlar bazalarida yoki ma’lumot taqdim etuvchi boshqa har qanday tashkilotlarda, shu jumladan moliya institutlari, mobil aloqa operatorlari va shu kabilarda saqlanadigan Mijoz ma’lumotlarini qayta ishlashga rozilik beradi hamda Bank va Hamkor (lar) ga vakolat beradi. Ushbu ma’lumotlar mijozning kreditga layoqatliligini baholash maqsadida qayta ishlanadi hamda Byuroga va/yoki Kredit axboroti davlat reyestriga a’zo bo‘lgan kredit tashkiloti (tashkilotlari) uchun, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq axborot yetkazib beruvchi va uni oluvchi uchun ochiq bo‘ladi;

5.8. Mijoz O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlardan, xususan, Qarz oluvchining iltimosiga binoan Bank ma’lumotlar ishlov beruvchisi sifatida to‘liq bo‘lmagan, noto‘g‘ri, eskirgan yoki noqonuniy ravishda olingan va qayta ishlangan bo‘lsa, ma’lumotlarni to‘g‘irlashi, yangilashi, qo‘shishi, bloklashi, o‘chirishi yoki yo‘q qilishi shart majburiyatidan xabardordir. Mijoz, shuningdek, Bank O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar va shartlarga muvofiq byuroga/byurodan axborot taqdim etish va olishni o‘z ichiga olgan Mijozga tegishli barcha kredit / kreditga oid bo‘lmagan va boshqa tegishli axborotni qayta ishlashga rozilik beradi;

5.9. Mijozning kredit mahsuloti uchun so‘rovini va/yoki Mijozning Bank oldidagi majburiyatlarini bajarish (shu jumladan qarzdorliklarni qaytarish) bo‘yicha qaror qabul qilish uchun Bank uchinchi shaxslar va davlat shaxslari orqali Mijoz haqida har qanday shaxsiy ma’lumotni talab

qilish va olish huquqiga ega;

5.10. Agar Mijoz shartnoma bo‘yicha har qanday majburiyatni buzsa yoki Bankning ishbilarmonlik obro‘sini va/yoki qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo‘lsa, Bank mazkur BShning 16.7-bandida nazarda tutilgan tartibda sudga murojaat qilish huquqiga ega.

5.11. Bank istalgan vaqtda Mijozning istalgan hisobvarag‘idan Bank oldidagi har qanday majburiyatni bajarish va bunday majburiyat yuzaga kelgandan keyin uning roziligisiz (ogohlantirishsiz) summalarni yechish huquqlariga ega;

5.12. Bank amaldagi qonunchilik talablariga asosan kredit mahsulotlari bo‘yicha o‘z talablarini to‘liq yoki qisman uchinchi shaxsga berish huquqiga ega. Bunda bunday uchinchi shaxsga, shuningdek, uning agentlariga va boshqa vakolatli shaxslarga bunday talab huquqini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni kredit mahsulotlari va kredit shartnomasi shartlari va boshqa shartnomalar to‘g‘risida ma’lumotlarni oshkor qilishga, shuningdek, bunday shaxslarga tegishli hujjatlarni taqdim etishga haqlidir.

5.13. Kredit mahsulotini olish uchun ariza taqdim etish bilan Mijoz quyidagilar, xususan, shartnoma shartlarining Mijoz uchun yaxshilanishi hisoblanishiga rozilik bildiradi:

5.13.1. qarzdorlikni to‘lash bo‘yicha to‘lov muddatini uzaytirish imkoniyatini taqdim etish;

5.13.2. kredit mahsuloti va boshqa komissiyalarni taqdim etish uchun Shartnomada nazarda tutilgan komissiyalar, foizlar va boshqalarni pasaytirish;

5.13.3. kredit limitining miqdorini oshirish;

5.13.4. greys-davr, imtiyozli davr, promo-davr taqdim etish;

5.13.5. yangi yoki qo‘shimcha kredit limitini taqdim etish;

5.14. Mijozlar voyaga yetgan (muomalaga layoqatli) davridan boshlab Bankdan kredit mahsulotlarini olishlari mumkin.

5.15. Bank Limit miqdorini kamaytirish yoki ko‘paytirish tomonga qayta ko‘rib chiqish huquqiga ega. Qayta ko‘rib chiqish Mijozning kreditga layoqatliligi, to‘lov qobiliyati va to‘lov intizomini muntazam baholash natijalari asosida amalga oshiriladi.

5.15.1. Baholash natijalari qoniqarsiz bo‘lgan taqdirda, Bank Bosh Shartlarda nazarda tutilgan aloqa kanallari orqali (shu jumladan Bankning mobil ilovasi, SMS, Push-xabarnoma yoki xat orqali) Mijozni xabardor qilgan holda, Limit miqdorini bir tomonlama kamaytirishga haqli. O‘zgartirilgan Limitga rozi bo‘lmagan taqdirda, Mijoz Karta va Limitdan foydalanishni to‘xtatishi va Shartnomani bekor qilish uchun Bankka murojaat qilishi shart. Limitdan foydalanishni davom ettirish yoki Karta bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish orqali Mijoz yangi Limitga rozilik bildirgan hisoblanadi. Qayta ko‘rib chiqilgan Limit Bank tomonidan tegishli bildirishnoma yuborilgandan so‘ng darhol, mazkur BShning 8.2.4-bandi qoidalaridan qat’i nazar, kuchga kiradi.

5.15.2. Bank, Mijoz o‘z majburiyatlarini vijdonan bajargan, jumladan, qarzdorlikni o‘z

vaqtida so‘ndirgan va muddati o‘tgan qarzdorlikka yo‘l qo‘ymagan taqdirda, Limitni oshirishga haqlidir. Bank Limit oshirilgani haqida Mijozni Bankning mobil ilovasi orqali xabardor qiladi. Agar Mijoz oshirilgan Limitga rozi bo‘lmasa, u Bankning mobil ilovasi funksionalidan foydalanib, avvalgi Limit miqdorini qaytarish huquqiga ega. Bunda avvalgi Limit miqdori Karta bo‘yicha qarzdorlik summasidan past bo‘lmasligi kerak.

5.16. MBXda tegishli funksionallik mavjud bo‘lgan taqdirda, Mijoz Karta bo‘yicha Limit miqdorini qayta ko‘rib chiqishni talab qilishga haqli. Yangi Limitni taqdim etish to‘g‘risidagi yakuniy qaror Bank tomonidan ichki mezonlar, jumladan xatarlarni baholash va tartibga solish talablarini inobatga olgan holda o‘z ixtiyoriga ko‘ra qabul qilinadi. Bank mijozga qabul qilingan qarorning asoslarini ma’lum qilishga majbur emas.

5.17. Limitning amaldagi miqdori doimo MBX interfeysida ko‘rsatiladi.

5.18. Kredit mahsulotlari uchun shartnoma shartlari (mazkur BShning ajralmas qismi) bilan tanishish uchun Mijoz www.tbcbank.uz rasmiy veb-sahifasidan ma’lumot olishi yoki Bank saytida ko‘rsatilgan telefon orqali Bank bilan bog‘lanishi mumkin.

5.19. Kredit mahsulotlari shartnomalari va BSh matnlari o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga kelganda, Tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarda Kredit mahsulotlari shartnomalari ustuvor kuchga ega bo‘ladi.

6-bob. Kredit mahsulotlarini taqdim etish tartibi

6.1. Kredit mahsulotlarini olish uchun Qarz oluvchi, shu jumladan MBX tizimida, ushbu BSH bilan tanishib chiqishi va uni akseptlashi (qabul qilishi) hamda kredit mahsuloti taqdim etilishini so‘rashi lozim.

6.2. Ichki o‘rganishlar va tahlillar natijalari asosida ariza olingandan so‘ng, Bank MBX tizimi interfeysida Qarz oluvchiga mumkin bo‘lgan moliyalashtirish summasini yoki kredit mahsulotini taqdim etish imkoniyati yo‘qligini ma’lum qiladi.

6.3. Qarz oluvchining mumkin bo‘lgan moliyalashtirish summasi Qarz oluvchining kredit layoqatini baholash (skoring) orqali, Bankdagi Qarz oluvchi haqidagi mavjud ma’lumotlar asosida aniqlanadi. Qarz oluvchining kredit layoqatini baholash usuli bankning tijorat siri bo‘lib, maxfiy hisoblanadi.

6.4. Ariza taqdim etilganda Qarz oluvchi bank kartasi chiqarilgan to‘lov tizimi tomonidan taqdim etiladigan SMS xabarnoma xizmati ulangan o‘zining bir yoki bir nechta faol bank kartalarini ko‘rsatadi va MBXga qo‘shadi/bog‘laydi, shu bilan birga Bankka bunday qarzdorlikni so‘ndirish hisobiga muddati o‘tgan qarz miqdoridagi pul mablag‘larini avtomat ravishda hisobdan chiqarishga (Bosh Shartlarda va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda) so‘zsiz tartibda muddatidan oldin undirishga huquq beradi va rozilik beradi. Bank va/yoki uning Hamkori (-lari) tomonidan kredit mahsulotlariga shartnomalar amal qilish davrida Qarz oluvchi avval biriktirilgan bank kartalarini MBXdan o‘chirmaslik va bank kartalariga ulangan SMS xabar qilish xizmatini bekor qilmaslik majburiyatini oladi.

6.5. Qarz oluvchi Bank tomonidan moliyalashtirish uchun taklif qilingan summaga rozi bo‘lmagan taqdirda, so‘ndirish oyining istalgan sanasini ko‘rsatgan holda mumkin bo‘lgan

moliyalashtirishning maksimal summasidan oshmaydigan summada ariza taqdim etishga yoki kredit mahsulotini olishdan bosh tortishga haqli.

6.6. Qarz oluvchining skoringi uchun Bank, Qarz oluvchi to‘g‘risida axborot olish uchun boshqa vositalarni istisno etmasdan, Qarz oluvchining kredit tarixi to‘g‘risidagi ma’lumotlar uchun kredit byurosiga murojaat qiladi.

6.7. Agar Bank Qarz oluvchiga kredit (mikroqarz/mikrokredit) berishni ma’qullasa, Bank ruxsat etilgan miqdordan oshmagan holda kredit (mikroqarz/mikrokredit) berish vaqtida Qarz oluvchining qarz yukini tahlil qilish maqsadida kredit berishdan oldin kredit byurosiga takroran murojaat qilish huquqiga ega. Agar kredit (mikroqarz/mikrokredit‘) berish vaqtiga kelib Qarz oluvchida qarz yuki (boshqa banklardagi mavjud boshqa kreditlar/kredit uchun talabnomalar summasi) oshgan va/yoki muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa, Bank Mijozga kredit (mikroqarz/mikrokredit) berishni rad etishga haqli. Bunda Mijoz qarz yuki kamaytirilgandan va/yoki muddati o‘tgan qarzdorliklar qaytarilgandan keyin kredit (mikroqarz/mikrokredit) olish uchun Bankka takroran murojaat qilish huquqiga ega.

6.8. Kredit (mikroqarz/mikrokredit) ajratish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, Bank Bankning mobil ilovasi yoki kredit arizasini rasmiylashtirish imkoniyati ta’minlangan boshqa ilovalar orqali Qarz oluvchiga SMS xabar va Push bildirishnoma yuboradi.

6.9. Mijoz kredit (mikroqarz/mikrokredit) ajratish to‘g‘risida qaror qabul qilingunga va ular to‘g‘risida bildirishnoma olingunga qadar kredit arizasini bekor qilishga haqli.

6.10. Qarz oluvchi kredit (mikroqarz/mikrokredit) olishga rozi bo‘lgan taqdirda, Bank Qarz oluvchining hisobvarag‘iga mablag‘lar o‘tkazilgandan keyin quyidagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun kredit mablag‘laridan foydalanishni 48 soatga cheklashga haqli:

6.10.1. P2P operatsiyalari;

6.10.2. Jismoniy shaxslarning hisobvaraqlariga va elektron hamyonlariga o‘tkazmalar;

6.10.3. P2P tranzaksiyalar orqali hisobni to‘ldirish imkoniyatini yaratgan mobil aloqa operatorlari orqali telefon raqamlari hisoblarini to‘ldirish;

6.10.4. Chet el to‘lovlari va pul o‘tkazmalari hamda valyuta ayirboshlashning onlayn operatsiyalari.

6.11. Bank Qarz oluvchiga belgilangan cheklovlar to‘g‘risida aloqa kanallari orqali xabar qiladi. Belgilangan cheklovlarni olib tashlash uchun Qarz oluvchi Bank xodimi bilan telefon suhbat orqali qo‘shimcha shaxsiy tekshiruvdan o‘tishi kerak.

6.12. Agar Qarz oluvchi bilan telefon orqali muloqotdan so‘ng Bank Qarz oluvchining uchinchi shaxslar ta’sirisiz kredit (mikroqarz/mikrokredit) olganligini aniqlay olsa, Bank 6.10-bandda belgilangan pul mablag‘laridan foydalanish cheklovlarini olib tashlashi mumkin.

6.13. Agar operatsiyalar bo‘yicha cheklovlar amal qilayotgan davrda Bank kredit arizasini uchinchi shaxslar ta’siri ostida, noto‘g‘ri axborot va/yoki aldov ostida rasmiylashtirilganligini aniqlasa yoki Qarz oluvchi 48 soatdan keyin qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tish uchun qo‘ng‘iroq qilmasa, Bank kredit shartnomasini bekor qilishga va bu haqda Mijozni xabardor qilgan holda

mablag‘larni Bankka qaytarishga haqli.

6.14. MBX orqali Bank tomonidan taklif qilingan shartlar asosida Qarz oluvchi kredit mahsulotini olishga rozilik bergan vaqtdan boshlab, kredit mahsuloti shartlarini Tomonlar kelishib olgan deb hisoblanadi va Qarz oluvchi tomonidan tasdiqlanadi.

6.15. Mijoz mazkur BShda nazarda tutilgan shartnomalar bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini Bankning oldindan yozma (shu jumladan elektron shakldagi) roziligisiz uchinchi shaxslarga o‘tkazish (topshirish) huquqiga ega emas.

6.16. Bank ushbu BShda nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha kredit qarzdorligini undirish yuzasidan sudlarga da’vo arizasi bergan taqdirda, Bank Qarz oluvchidan da’vo arizasi berilgan kunda amalda bo‘lgan BHMning 1 (bir) baravari miqdorida jarima undirishga haqli.

7-bob. Tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish

7.1. Yakka tartibdagi tadbirkor va/yoki yuridik shaxsning mansabdor shaxsi hisoblangan mijoz yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga (keyingi o‘rinlarda – “Korxonalar”) hisob-kitob xizmatlarini ko‘rsatish mahsulotlaridan foydalanishga haqlidir.

7.2. Bank tomonidan xizmat ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan korxonalar toifalari, shuningdek, korxonalar uchun mavjud bank xizmatlari ro‘yxati Bankning ixtiyoriga ko‘ra o‘zgartirilishi yoki cheklanishi mumkin. Mavjud xizmatlarning joriy ro‘yxati tbcbusiness.uz va tbcbank.uz veb-saytlarida joylashtirilgan. Bank mavjud bank xizmatlari ro‘yxatini, shuningdek xizmat ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar toifalari ro‘yxatini Mijozni oldindan xabardor qilmasdan bir tomonlama tartibda kengaytirishga yoki qisqartirishga haqli.

7.3. Mijoz yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bank xizmatlaridan foydalanish maqsadida tbcbusiness.uz veb-saytida ro‘yxatdan hamda identifikatsiyadan o‘tishi shart.

7.4. Korxonalarga xizmat ko‘rsatish shartlari va tartibi “TBC Bank” ATBning yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Bosh Shartlari (keyingi o‘rinlarda - KBX) va Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun tariflar (keyingi o‘rinlarda - KBX tariflari) bilan tartibga solinadi. KBX va KBX tariflari bilan tbcbank.uz hamda tbcbusiness.uz veb-saytlarida tanishishingiz mumkin.

7.5. Mijoz tbcbusiness.uz veb-saytida ro‘yxatdan va identifikatsiyadan o‘tishda, keyinchalik MBX tizimida Korxona sifatida ro‘yxatdan o‘tish va hisobvaraq ochish uchun KBX shartlarini qabul qilishi shart.

7.6. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning bank xizmatlaridan foydalanishni to‘xtatish va rad etish Bank tomonidan KBX tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8-bob. Aloqa

8.1. Bankning Mijoz bilan aloqasi og‘zaki, yozma, elektron shaklda yoki Call-Markaz orqali amalga oshirilishi mumkin.

8.2. Yozma xabar boshqa tarafga arizada va/yoki shartnomada ko‘rsatilgan aloqa ma’lumotlarini

ko‘rsatgan holda, shaxsan kuryer orqali (shu jumladan maxsus pochta orqali), elektron pochta, mobil aloqa (qisqa xabar xizmati), Internet-banking, mobil banking va/yoki keyinchalik bank tomonidan belgilanadigan boshqa aloqa vositalari orqali quyidagi shartlarda ma’lum qilinishi kerak:

8.2.1. Mijoz tomonidan Bankka shaxsan yoki kuryer orqali yuborilgan bildirishnoma bank kanselyariyasida ro‘yxatdan o‘tgan kunida yetkazilgan deb hisoblanadi, agar xabarnoma elektron pochta orqali yuborilgan bo‘lsa, u Bank Mijozga bunday xabarni qabul qilishni tasdiqlash sifatida javob beradigan kun ichida yetkazilgan deb hisoblanadi;

8.2.2. Bank tomonidan kuryer orqali Mijozga yuborilgan xabarnoma (shu jumladan, buyurtma pochta) xabarnoma Mijozga topshirilgan kunda yetkazilgan deb hisoblanadi, ammo yetkazib berish tasdiqlanmasa, xabarnoma Mijozning belgilangan rasmiy manzilida har qanday shaxsga berilgan kundan keyingi kalendar kunda topshirilgan deb hisoblanadi;

8.2.3. Bank tomonidan Mijozga elektron pochta orqali yuborilgan xabarnoma Mijozning elektron pochta serveridan yetkazib berishni rasmiy tasdiqlash kuni qabul qilingan deb hisoblanadi. Bunday tasdiq bo‘lmasa, u yuborilgandan keyin keyingi kalendar kundan yetkazilgan deb hisoblanadi;

8.2.4. Bank tomonidan Mijozga mobil aloqa (qisqa xabarlar xizmati), MBX, mobil banking yoki keyinchalik Bank tomonidan belgilanadigan boshqa aloqa usuli orqali yuborilgan xabarnoma bunday xabarnoma yuborilgandan keyingi kalendar kuni yetkazib berilgan deb hisoblanadi.

8.3. Bank bankning xizmat ko‘rsatish standartlariga javob berishiga ishonch hosil qilish uchun, suhbatni yozib olish uchun Mijozni oldindan xabardor qilib, Tomonlar o‘rtasidagi telefon qo‘ng‘iroqlarini yozib olishi yoki kuzatishi mumkin.

8.4. Mijozning elektron shaklda yuborilgan bildirishnomasi bunday bildirishnomalarni autentifikatsiya qilish uchun Bankning xavfsizlik tartib-qoidalaridan o‘tishi kerak.

8.5. Agar Mijoz har qanday shartnoma ma’lumotlarini (shu jumladan, arizada mavjud bo‘lgan aloqa ma’lumotlarini) o‘zgartirish to‘g‘risida Bankni oldindan xabardor qilmasa va / yoki biron-bir kontakt egasi Bank tomonidan yuborilgan xabarni qabul qilishdan bosh tortsa, Bank tomonidan yuborilgan har qanday xabarnoma bunday xabarni yuborilganidan keyingi kun ichida yetkazilgan deb hisoblanadi.

8.6. Tomonlar o‘rtasidagi muloqot o‘zbek/rus tilida amalga oshiriladi, ammo bank Mijoz uchun maqbul bo‘lgan boshqa tilda ham muloqot qilishi mumkin.

8.7. Bank Mijoz bilan turli maqsadlarda muloqot qilishi mumkin, shuning uchun xabarnomalar (og‘zaki, yozma yoki elektron shaklda bo‘lgani kabi), (i) ma’lumotnoma / tranzaksiya; (ii) mazkur BSh bilan bog‘liq; (iii) marketing maqsadlari uchun va/yoki (iv) boshqa maqsadlarda, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

8.8. Agar Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan shartnomalar va/yoki hujjatlardan (ilovalar, shakllar, ariza-so‘rovlar va h. k.) biri Mijozning amaldagi bog‘lanish uchun ma’lumotlarini o‘z

ichiga olmagan bo‘lsa, Bank Mijoz tomonidan ko‘rsatilgan oxirgi ma’lum manzil bo‘yicha xabarnoma yuborish huquqiga ega, bunday manzilga ma’lumot yuborilganidan so‘ng keyingi kalendar kuni qabul qilingan deb hisoblanadi.

8.9. Bank tomonidan Mijozga yuborilgan bildirishnomalar har qanday xizmatlardan foydalanish bo‘yicha taklif deb hisoblanmaydi, agar bunday taklif Bank xabarnomasida aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa.

8.10. Mijoz xabarnomalarni yoki boshqa ma’lumotlarni elektron pochta orqali yoki boshqa aloqa vositalari orqali yuborishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan uchinchi tomonga maxfiy axborotni oshkor qilish xavfidan tegishli tartibda ogohlantirilganligini va bu bilan bog‘liq bo‘lgan mas’uliyatni o‘z zimmasiga olganligini tasdiqlaydi.

8.11. Mijozning aloqa ma’lumotlaridan foydalanishda maxfiylik shartlarining buzilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan natija uchun Mijoz shaxsan o‘zi javob beradi. Agar Mijoz Bank tomonidan Mijozning ma’lum aloqa ma’lumotlaridan foydalanmasligini xohlasa, Mijoz bunday istak-xohish haqida yozma ravishda yoki masofaviy aloqa kanallari orqali Bankka xabar beradi.

8.12. Mijoz va Bank masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallariga ustunlik beradi. O‘zaro munosabatlarga kirishar ekan, Tomonlar hujjatlarni, shu jumladan MBX tizimi orqali elektron shaklda shartnomalar, ma’lumotnomalar, ko‘chirmalar, xabarnomalarni olishga rozilik beradilar. Hujjatlarni qog‘oz shaklida taqdim etish Mijozning arizasiga ko‘ra BShda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

8.13. Mijoz tomonidan mijozning irodasini aniq ifoda etadigan Call-Markaz orqali kelib tushgan barcha arizalar, murojaatlar, tasdiqlar Mijoz tomonidan shaxsan imzolangan qog‘oz hujjatlar bilan teng huquqli kuchga ega.

9-bob. Identifikatsiyalash / masofaviy (raqamli) mijozlarni identifikatsiyalash

9.1. Bank xizmat ko‘rsatishda, Mijoz esa bank xizmatlaridan foydalanishda mazkur BShda, amaldagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchilikda va/yoki Tomonlar o‘rtasida tuzilgan boshqa shartnomalarda belgilangan Mijozning shaxsini tasdiqlash tartib-qoidasiga amal qilishi kerak.

9.2. Mijozni identifikatsiyalash/masofaviy (raqamli) identifikatsiyalash Bank tomonidan shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjat) va/yoki biometrik ma’lumotlar (agar bunday imkoniyat mavjud bo‘lsa) asosida amalga oshiriladi. Bunda Bank Mijozni identifikatsiyalashda/masofaviy identifikatsiyalashda:

9.2.1. shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjat) asosida: Mijoz shaxsan murojaat qilganda — bunday hujjatning asl nusxasi bilan tanishib chiqishi; masofaviy (raqamli) identifikatsiyalashda — Mijoz tomonidan kiritilgan hujjat ma’lumotlarini mazkur BShning 9.3-bandida nazarda tutilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi davlat organlarining axborot tizimlaridan foydalangan holda tekshirishi lozim;

9.2.2. biometrik ma’lumotlarga asoslanib (imkoni bo‘lsa) bunday ma’lumotlar O‘zbekiston

Respublikasi davlat organlarining axborot tizimi bilan verifikatsiyadan o‘tkazilishi kerak.

9.3. Mijozni masofadan (raqamli) identifikatsiya qilish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq shaxsni tasdiqlovchi hujjatdagi ma’lumotlarni kiritish va bir vaqtning o‘zida qurilmaning videokamerasi yordamida Mijozning yuzini videoga olish orqali amalga oshiriladi.

9.4. Amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshirilgan birlamchi identifikatsiya o‘tkazilgandan so‘ng, Bank Mijozni identifikatsiyalash vositasidan foydalangan holda elektron kanallar orqali Mijozni identifikatsiyalashni amalga oshirishga haqli, shuningdek, Mijoz tomonidan arizada taqdim etilgan va/yoki Bank ixtiyoridagi hujjatlarda mavjud bo‘lgan identifikatsiya ma’lumotlari.

9.5. Mijozdan olingan ma’lumotlarning ishonchliligiga shubha tug‘ilgan hollarda Mijozni qayta va har bir keyingi identifikatsiyalash o‘tkazilishi mumkin.

9.6. Mijozni identifikatsiya qilish maqsadida Bankning Call-markazi savollar berish va Mijozning shaxsini tasdiqlash maqsadida Mijozdan Bank tomonidan yuborilgan kodlarni so‘rash huquqiga ega.

9.7. Agar mijozni identifikatsiyalash muvaffaqiyatli yakunlanmagan bo‘lsa, bank o‘z xizmatlarini ko‘rsatishni to‘xtatishga haqli.

9.8. Bank va uning xodimlari mijozni identifikatsiya qilish va shaxsini tasdiqlash maqsadida fotosuratga olish huquqiga ega. Mijoz identifikatsiya va verifikatsiya bosqichida fotosuratga tushishdan bosh tortgan taqdirda, Bank Mijozga bank xizmatlarini ko‘rsatishni rad etish huquqiga ega.

9.9. Mijoz Bankka ishonchli, to‘liq va dolzarb shaxsiy ma’lumotlarni, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport ma’lumotlari, JSHSHIR, biometrik ma’lumotlar va Bank tomonidan Mijozni identifikatsiya qilish uchun foydalaniladigan boshqa ma’lumotlarni taqdim etish majburiyatini oladi.

9.10. Mijoz JSHSHIR faqat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o‘zgartirilishi, shu jumladan ilgari berilgan qiymatdagi xatolar tuzatilishi mumkinligini tasdiqlaydi. Bunda ilgari berilgan JSHSHIR to‘g‘risidagi ma’lumotlar davlat axborot tizimlarida saqlanishi lozim.

9.11. Mijoz Bank tomonidan davlat axborot tizimlaridan, shu jumladan EGOV va boshqa manbalardan ilgari va/yoki hozirda Mijozga berilgan barcha JSHSHIRlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olishga, shuningdek, identifikatsiyalash, onbording, firibgarlikning oldini olish va qonunchilik talablarini bajarish maqsadida Bank tomonidan bunday ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanishga so‘zsiz rozilik bildiradi.

9.12. Mijozga JSHSHIR, pasport ma’lumotlari yoki boshqa identifikatorlardagi farqlardan qat’i nazar, agar bunday akkauntlar aslida bitta jismoniy shaxsga tegishli bo‘lsa, Bankda bittadan ortiq akkauntni yaratish va/yoki undan foydalanish taqiqlanadi.

9.13. Bank tomonidan ayni bir Mijozga tegishli bo‘lgan bir nechta akkaunt aniqlangan taqdirda, bunday akkauntlar bir-birini takrorlovchi va o‘zaro bog‘liq deb hisoblanadi.

9.14. Bir-birini takrorlovchi akkauntlar aniqlanganda, Bank o‘z ixtiyoriga ko‘ra va Mijozning oldindan roziligisiz quyidagi huquqlarga ega:

9.14.1. bir yoki bir nechta akkauntlar bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatish yoki cheklash;

9.14.2. Bank tomonidan kredit tavakkalchiligi qabul qilinishini nazarda tutuvchi kredit va boshqa bank mahsulotlarini taqdim etishni rad etish;

9.14.3. Mijozdan qo‘shimcha ma’lumotlar, hujjatlar va tushuntirishlarni so‘rash;

9.14.4. Mijozdan bir yoki bir nechta akkauntlarni yopishni talab qilish;

9.14.5. Mijoz tomonidan Bank talablari belgilangan muddatda bajarilmaganda, bir tomonlama tartibda takrorlanuvchi akkauntlarni yopish.

9.15. Bank bir-birini takrorlovchi akkauntlarni yopishni talab qilgan taqdirda, Mijoz Bank tomonidan belgilangan muddatda keyingi xizmat ko‘rsatish uchun bitta akkauntni aniqlashi, shuningdek, boshqa akkauntlarni yopish va ular bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha harakatlarni bajarishi shart.

9.16. Bir-birini takrorlovchi akkauntlarni tartibga solish jarayoni yakunlangunga qadar Bank Mijozga Bankning ayrim xizmatlari va mahsulotlariga, shu jumladan kredit mahsulotlariga kirishni vaqtincha cheklash huquqiga ega.

9.17. Mijoz noto‘g‘ri, qarama-qarshi yoki eskirgan identifikatsiya ma’lumotlarini taqdim etish oqibatlari, jumladan, takroriy akkauntlarni yaratish natijasida yuzaga kelgan oqibatlar uchun javobgar bo‘ladi.

9.18. Bank amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilgan taqdirda, Bank tomonidan ushbu BSh bobida nazarda tutilgan huquqlarni amalga oshirish natijasida yuzaga kelgan Mijozning zararlari uchun javobgar bo‘lmaydi.

9.19. Firibgarlik alomatlari, autentifikatsiya vositalarining buzilishi, Mijozning shaxsiga shubha tug‘ilganda yoki xizmat ko‘rsatish xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatadigan boshqa holatlar aniqlanganda, Bank Mijozdan xizmat ko‘rsatish tiklangunga yoki tegishli operatsiya bajarilgunga qadar qo‘shimcha yoki qayta identifikatsiyadan o‘tishni, foydalanilayotgan qurilmani tasdiqlashni, shuningdek, Bank bo‘linmasiga shaxsan murojaat qilishni talab qilish huquqiga ega.

10-bob. Tasdiqnomalar va kafolatlar

10.1. Mijoz bank hujjatlarini qabul qilgach, quyidagilarni tasdiqlaydi va kafolatlaydi:

10.1.1. arizani imzolash/qabul qilish, shartnomalar shartlarini va mazkur BShni bajarish vakolatiga egaligini;

10.1.2. Bankka taqdim etiladigan ma’lumotlar haqiqiy, ishonchli, to‘g‘ri va aniqligini va taqdim etilgan barcha hujjatlar to‘liq va dolzarbligini;

10.1.3. Ushbu BShni tuzish Bank va/yoki uchinchi tomonning Mijoz va/yoki uning aloqador shaxslariga nisbatan majburlash, aldash va/yoki tahdid natijasi emas va Bank mazkur

BShni va/yoki Mijoz bilan tuzilgan har qanday tegishli shartnomani bajarish uchun o‘z ta’siridan aldov yo‘li bilan foydalanmagan;

10.1.4. Mijoz hech qanday yurisdiksiya qonunchiligiga zid ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita noqonuniy faoliyatlarda (jumladan, noqonuniy faoliyatdan mablag‘larni legallashtirish, qurol-yarog‘ savdosi, giyohvand moddalar savdosi va/yoki terrorizm) ishtirok etmaydi;

10.1.5. Bank tomonidan Mijozga taqdim etilgan barcha ma’lumotlar aniq va tushunarli;

10.1.6. Mijozning xohish-irodasini aniq ifoda etadigan, ruxsat etilgan kanallari orqali taqdim etiladigan elektron rozilik, shuningdek, Call-Markazga murojaat etish orqali bildirilgan rozilik Mijozning o‘z qo‘li bilan imzolagan qog‘oz hujjatlari bilan teng yuridik kuchga ega;

10.1.7. Bank Mijozga tegishli mahsulot va/yoki xizmat uchun Mijozdan olinadigan barcha to‘lovlar haqida batafsil ma’lumot bergan;

10.1.8. Ushbu hujjatni tasdiqlash va rozilik berish Mijozning har qanday bankda ochilgan hisobvaraqlaridan mahsulotlaridan foydalanish natijasida yuzaga kelgan Bank va/yoki uning Hamkori (-lari) oldidagi qarzdorlik miqdoridagi mablag‘larni hisobdan chiqarishga bo‘lgan aksepti hisoblanadi, bunda Mijoz Bankka bunday hisobdan chiqarishni Mijoz bilan qo‘shimcha kelishuvsiz amalga oshirishni topshiradi.

10.2. Ushbu bayonotlar va kafolatlar Tomonlarning majburiyatlari to‘liq bajarilguniga qadar amal qiladi.

10.3. Mijoz har qanday shartnoma majburiyatlari va/yoki bayonotlar va kafolatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday holatlar haqida Bankni darhol xabardor qilishi kerak.

10.4. Tomonlar, Bank ushbu BSh va / yoki boshqa tegishli shartnomani yuqoridagi bayonotlar, kafolatlar va majburiyatlar asosida tuzishini va ularni ushbu BSh shartlari sifatida ko‘rib chiqishini tan oladilar va kelishib oladilar. Binobarin, har qanday bayonotlar, kafolatlar va majburiyatlarning buzilishi, ushbu BShni va / yoki boshqa tegishli har qanday shartnomani, Mijozga oldindan ogohlantirmasdan (shu jumladan, cheklovsiz, kreditni va Bank tomonidan taqdim etiladigan boshqa mahsulotlar va xizmatlarni to‘xtatib qo‘yish / bekor qilishni) bir tomonlama ravishda bekor qilish Bank uchun yetarli asosdir.

10.5. Mijoz ushbu BSh kuchga kirgan sanadan keyin yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yoki unga ma’lum bo‘lgan, bank shartnomalari shartlarining buzilishi, nomuvofiqligi yoki noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday holat haqida Bankka yozma ravishda yoki kelishilgan aloqa kanallari orqali xabar berishi kerak.

10.6. Mijozga har qanday bank xizmatlaridan noqonuniy maqsadlarda, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlangan tovarlarni yoki xizmatlarni sotib olish uchun foydalanish taqiqlanadi.

10.7. Mijoz quyidagi faoliyat turlarini amalga oshirish yoki moliyalashtirish uchun Bank tomonidan moliyalashtirilmasligini va undan foydalanilmasligini tasdiqlaydi va bunga rozilik bildiradi:

10.7.1. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq qonunga xilof deb e’tirof etilgan yoki xalqaro konvensiyalar va bitimlar bilan taqiqlangan yoxud xalqaro taqiqlarga duchor bo‘lgan har qanday tovarlarni ishlab chiqarish yoki ular bilan savdo qilish yoxud faoliyatni amalga oshirish, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda:

10.7.1.1. farmatsevtika preparatlari;

10.7.1.2. pestitsidlar va gerbitsidlar;

10.7.1.3. ozonni buzuvchi moddalar;

10.7.1.4. polixlorlangan bifenillar (PCB);

10.7.1.5. yovvoyi tabiat obyektlari yoki CITES Konvensiyasi bilan tartibga solinadigan mahsulotlar;

10.7.1.6. xalqaro huquq bilan taqiqlangan chiqindilarni transchegaraviy tashish.

10.7.2. Yadroviy yoqilg‘i aylanishi bilan bog‘liq faoliyat (shu jumladan uran qazib olish, yadroviy yoqilg‘ini ishlab chiqarish, boyitish, saqlash yoki tashish), shuningdek radioaktiv materiallarni ishlab chiqarish yoki ularning savdosi.Ushbu cheklov tibbiy asbob-uskunalar, sifat nazorati uchun asbob-uskunalar (o‘lchov asbob-uskunalari) va boshqa asbob-uskunalarni sotib olishga, agar radioaktiv manba ahamiyatsiz va/yoki kerakli darajada himoyalangan bo‘lsa, tatbiq etilmaydi.

10.7.3. Qurol va o‘q-dorilarni ishlab chiqarish yoki sotish.

10.7.4. Alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki sotish (pivo va vinodan tashqari).

10.7.5. Tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki sotish.

10.7.6. Qimor o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazish, kazino va shunga o‘xshash korxonalar faoliyati.

10.7.7. Bog‘lanmagan (kapsulalanmagan) asbest tolasini ishlab chiqarish, sotish yoki undan foydalanish.

10.7.8. Uzunligi 2,5 km dan ortiq bo‘lgan to‘rlardan foydalangan holda dengiz muhitida drifter ovlash.

10.7.9. Majburiy mehnatning zararli yoki ekspluatatsion shakllaridan yoxud bolalar mehnatining zararli shakllaridan foydalanish bilan bog‘liq ishlab chiqarish yoki faoliyat.

10.8. Mijoz o‘z faoliyatini amalga oshirishda va moliyalashtirish mablag‘laridan foydalanishda amaldagi milliy ekologik va ijtimoiy qonunchilik talablariga, shu jumladan atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi sohasidagi talablarga, sanitariya-epidemiologiya me’yorlariga hamda mehnat qonunchiligiga to‘liq rioya etish majburiyatini oladi.

10.9. Mijoz Bankning kredit mahsulotlari doirasida taqdim etiladigan mablag‘lar yuqorida

taqiqlangan faoliyat turlaridan birortasini moliyalashtirish uchun ishlatilmasligini ma’lum qiladi va kafolatlaydi.

10.10. Mijoz ushbu BSh qabul qilingan sanada unga nisbatan ko‘rib chiqilayotgan sud jarayonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari, mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, shuningdek mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi sohasidagi qonun hujjatlari talablarini buzish bilan bog‘liq jarimalar yoki boshqa sanksiyalar qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlar mavjud emasligini kafolatlaydi va tasdiqlaydi.

10.11. Mijoz atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatish, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi masalalari, shuningdek Mijoz faoliyatining ijtimoiy va mehnat jihatlari bilan bog‘liq har qanday avariyalar, baxtsiz hodisalar, baxtsiz hodisalar yoki boshqa hodisalar haqida Bankni zudlik bilan, ammo har qanday holatda ham unga tegishli hodisa haqida ma’lum bo‘lgan vaqtdan boshlab 3 (uch) kalendar kundan kechiktirmay xabardor qilish majburiyatini oladi.

10.12. Ushbu bob qoidalarining buzilishi BSh shartlarining jiddiy buzilishi hisoblanadi va Bankka xizmatlar ko‘rsatish va mahsulotlar taqdim etishni rad etish, qarzni muddatidan oldin qaytarishni talab qilish va/yoki shartnoma shartlariga muvofiq shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqini beradi.

11-bob. Tomonlarning qo‘shimcha huquqlari va majburiyatlari

11.1. Mijozning majburiyatlari:

11.1.1. Mijoz bilan aloqa o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan dolzarb bog‘lanish ma’lumotlarini Bankka taqdim etish. Ushbu ma’lumotlar o‘zgargan taqdirda, Mijoz o‘zgarish sodir bo‘lgan sanadan e’tiboran 3 (uch) kalendar kuni ichida Bankni xabardor qilishi shart.

11.1.2. Shaxsiy ma’lumotlarning o‘zgarishi (F.I.Sh., manzili, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar, STIR, uy telefon raqami, ish telefoni raqami, ish joyi (daromad manbai)) to‘g‘risida Bankka xabar berish, shuningdek, masofaviy aloqa kanallaridan foydalangan holda Bankka hisobvaraqlarni boshqarish yoki hisobvaraqlardan ma’lumotlarni olish huquqiga ega shaxslarning o‘zgarishi to‘g‘risida xabar berish va xabarnomaga tegishli hujjatlarni ilova qilish. O‘zgarishlar va biriktirilgan hujjatlar to‘g‘risida xabarnoma olishdan oldin, Bank operatsiyalarni ilgari Bankka taqdim etilgan hujjatlar va imzo namunalari asosida amalga oshiradi.

11.1.3. Bank talabiga binoan bank operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hujjatlar va ma’lumotlarni zudlik bilan taqdim etish.

11.1.4. Mazkur BSh va Bank bilan tuzilgan shartnomalarning shartlari va tartib-qoidalariga rioya qilish.

11.1.5. Bank xizmatlari uchun (komissiyalarini) o‘z vaqtida va to‘liq hajmda to‘lash.

11.1.6. Bankka to‘g‘ri, ishonchli, to‘liq, haqiqiy va chalg‘itmaydigan ma’lumotlar, hujjatlar, bayonotlar va kafolatlarni taqdim etish.

11.1.7. Mijoz hisobvaraqlardan va bank kartalaridan pul mablag‘larini avtomat ravishda yechish bo‘yicha xizmatlarni majburiy ulash va ulardan foydalanishni

ta’minlaydigan ba’zi bir mahsulotlarini olganda va ulardan foydalangan taqdirda, Mijoz shu bilan xizmatni ulash va foydalanishdan qochmaslik, bunday funksiyalarni amalga oshirishga xalaqit bermaslik va tegishli mahsulotlari bo‘yicha shartnomalar shartlariga qat’iy rioya qilish majburiyatini oladi.

11.1.8. Ushbu BShlarni qabul qilishda, u 2.2.45-bandiga muvofiq agar YMSh maqomiga ega bo‘lsa (hozirda yoki kelajakda), bu haqda Bankka quyidagi elektron pochtasi orqali darhol xabar berish: contact@tbcbank.uz.

11.1.9. Bankni ushbu BShda nazarda tutilgan har qanday aloqa kanallari orqali O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqish sanalari va muddatlari to‘g‘risida, lekin kutilgan chiqish sanasidan 5 kalendar kunidan kechiktirmay xabardor qilishi kerak.

11.1.10. Texnik xato tufayli Bankdagi Mijozning har qanday hisobvarag‘iga pul mablag‘lari noto‘g‘ri o‘tkazilsa, Mijoz o‘z ehtiryojlari yoki boshqa ehtiyojlariga sarflamasligi shart va darhol Bankka bunday xato aniqlangan kundan kechiktirmay Bankning Call-Markaziga ushbu holat haqida xabar berishi kerak.

11.1.11. Foydalanadigan mobil qurilmaning axborot xavfsizligini mustaqil ravishda ta’minlashi, mobil qurilmaga operatsion tizim darajasida (shu jumladan, buzish) o‘zgarishlar kiritmasligi, ya’ni faqat mobil qurilmaning zavod operatsion tizimidan foydalanishi kerak.

11.1.12. Mijoz MBX o‘rnatilgan qurilmani yo‘qotgan yoki uchinchi shaxslar bunday qurilmadan foydalanishga ruxsat olgan taqdirda, Mijoz zudlik bilan, ammo ko‘rsatilgan holat aniqlangan vaqtdan boshlab 1 (bir) kalendar kundan kechiktirmay Bankni xabardor qilishi shart.

11.1.13. Bank xizmatlarini taqdim etish shartlari, Bankning www.tbcbank.uz saytidagi ushbu shartlarning o‘zgarishi bilan mustaqil ravishda kirib, kuzatib borishi va doimiy ravishda tanishib chiqishi kerak.

11.1.14. Hozirda ishlab chiqaruvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan mobil qurilmadan foydalanilayotganligiga va qurilma operatsion tizimning (OT) yangilanishlarini olishda davom etayotganiga ishonch hosil qilish.

11.1.15. O‘zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan omonat (foizlar hisoblangan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i yoki muddatli depozit hisobvarag‘i) ochilganda soliq rezidenti maqomi to‘g‘risida zarur ma’lumotlarni taqdim etish.

11.1.16. MBX tizimida o‘zining ruxsatisiz va roziligisiz operatsiya amalga oshirilganligi holatini aniqlagan vaqtdan boshlab darhol, biroq 1 (bir) kalendar kundan kechiktirmasdan Bankni xabardor qilish.

11.1.17. Bankning so‘roviga ko‘ra, Mijoz u yoki bu tranzaksiya shaxsan o‘zi tomonidan yoxud o‘zining topshirig‘i yoki roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirilganligi haqidagi ma’lumotlarni, shuningdek, o‘ziga ma’lum bo‘lgan barcha shubhali holatlar yoxud aniqlangan firibgarlik harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etishi shart.

11.1.18. Har qanday to‘lov operatsiyalarini, shu jumladan Bankdan bildirishnoma yoki xabarlar olgandan so‘ng tasdiqlashda yuksak hushyorlikni namoyon etish.

11.2. Bankning majburiyatlari:

11.2.1. Mijozning so‘roviga binoan Mijozga hisob qaydnomasining holati bo‘yicha ma’lumot berish.

11.2.2. Ushbu BShga, shuningdek, BSh va O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonunchiligi doirasida tuzilgan shartnomalarga muvofiq Mijozning ko‘rsatmalariga rioya qilish.

11.3. Mijozning huquqlari:

11.3.1. Shartnoma tuzilgandan keyin bankdan hisobvaraq/kartaga pul mablag‘larini olgunga qadar bo‘lgan davrda kredit mahsulotlarini olishdan bepul asosda voz kechish;

11.3.2. Jarimalar undirilmasdan istalgan vaqtda kredit mahsulotlari bo‘yicha qarzdorlikni muddatidan oldin to‘lash;

11.4. Bankning huquqlari:

11.4.1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Mijozning hisobvaraqlarining amal qilishini to‘xtatib turish;

11.4.2. Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017-yil 23-mayda 2886-son bilan ro‘yxatga olingan) (keyingi o‘rinlarda — “Ichki nazorat qoidalari”) talablariga muvofiq tegishli tekshiruvlar o‘tkazish.

11.4.3. Mijoz tomonidan yolg‘on ma’lumot taqdim etilgan taqdirda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, mazkur BShda nazarda tutilgan boshqa hollarda Mijozning hisobvaraqlaridagi operatsiyalarni va faoliyatini to‘xtatib turish va ushbu to‘xtatib turish Mijoz tomonidan yozma tushuntirish taqdim etilgunga qadar amal qiladi.

11.4.4. Bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Bankka xizmat ko‘rsatuvchi uchinchi shaxslarga taqdim etish.

11.4.5. Mijoz ushbu BShning 11.1.11-kichik bandida ko‘rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, uning mobil qurilmasida zavod operatsion tizimi tiklangunga qadar Mijozning Bank mobil ilovasidan foydalanishini to‘xtatib turish.

11.4.6. Agar Mijoz tomonidan ushbu BShning 11.1.12 va 11.1.14-kichik bandlarida ko‘rsatilgan majburiyatlar buzilgan taqdirda, ishlab chiqaruvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaydigan va ishlab chiqaruvchidan operatsion tizim (OT) yangilanishlarini olishni to‘xtatgan eskirgan mobil qurilma orqali Mijozning Bank mobil ilovasidan

foydalanish imkoniyatini to‘xtatib turish.

11.4.7. Mijoz Bankka o‘zining Bankdagi va O‘zbekiston Respublikasining boshqa banklaridagi barcha hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini qo‘shimcha kelishuvsiz, so‘zsiz (akseptiz) tartibda, jumladan avtomat tarzda hisobdan chiqarish huquqini taqdim etadi. Ushbu huquq quyidagilar uchun amal qiladi: xato o‘tkazilgan yoki noqonuniy summalarni qaytarish, Bank va/yoki Hamkorlarning mukofotlarini (komissiyalarini) hisobdan chiqarish, shuningdek, Bankning amaldagi tariflariga muvofiq foizlar, penya, jarimalar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z ichiga olgan kredit mahsulotlari bo‘yicha qarzdorlikni so‘ndirish.

11.4.7.1. Mijoz bir nechta kredit majburiyatlari mavjud bo‘lganda, kreditlardan birini to‘lash maqsadida kiritgan pul mablag‘lari 29801-hisobvaraqqa yoki boshqa shunga o‘xshash hisobvaraqqa o‘tkazilishini anglaydi. Agar mijozning boshqa kredit majburiyati bo‘yicha bajarish muddati (to‘lov sanasi) mijoz hisobidan to‘lovni amalga oshirishni mo‘ljallagan majburiyatdan oldinroq kelsa va bunday majburiyat bajarilmasa, Bank 29801 (yoki shunga o‘xshash boshqa hisobvaraq) hisobvarag‘idan pul mablag‘larini akseptsiz tartibda hisobdan chiqarishga va ularni bajarish muddati ertaroq keladigan kredit majburiyatini to‘lashga yo‘naltirishga haqli. Ushbu kichik bandda nazarda tutilgan to‘lov navbati mazkur BShning 3.13-bandini inobatga olgan holda qo‘llaniladi.

11.4.8. Bankka nisbatan moliyaviy/iqtisodiy sanksiyalar qo‘llash xavfi mavjud bo‘lganda Mijozga bank hisobvarag‘ini ochish yoki operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish.

11.4.9. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligining talablariga muvofiq, soliq rezidenti maqomiga ega bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi norezident omonatchilaridan Bank tomonidan depozitlar bo‘yicha to‘langan foizlar (daromadlar) summasidan soliq har qanday hisobvaraqlardan akseptsiz to‘lov manbai tomonidan ushlab qolinib, keyinchalik budjetga o‘tkaziladi.

11.4.10. Agar Mijoz tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlangan tovarlar va xizmatlar uchun to‘lash, sotish va xizmatlar ko‘rsatish xavfi mavjud bo‘lsa, Bank Mijozning operatsiyalarini o‘rganish, qo‘shimcha ma’lumotlarni so‘rash, operatsiyalar summasini cheklash, operatsiyalarni cheklash (rad etish) va ushbu BShni, bank xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha boshqa shartnomalarni bir tomonlama tartibda bekor qilishga.

11.4.11. Bank Mijozning o‘z majburiyatlarini bajarmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan sud qarorini olish va ijro etish bo‘yicha har qanday xarajatlarni, shu jumladan davlat bojlari, pochta xarajatlari va ishni sudda ko‘rib chiqish bilan bog‘liq har qanday boshqa xarajatlarni Mijozdan undirishga.

11.4.12. Bank tomonidan aniqlangan firibgarlik belgilari to‘g‘risida Mijozni xabardor qilish, shuningdek, ko‘rsatilgan belgilarni tekshirish va keyinchalik ko‘rib chiqish (tekshiruv o‘tkazish) uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlar va axborotni Mijozdan so‘rab olish.

11.4.13. Mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish maqsadida

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlarda va tartibda uchinchi shaxslarni jalb etishga haqli.

11.4.14. ushbu Bosh Shartlarga, Bankning ichki hujjatlariga va qarorlariga muvofiq alohida bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish, shuningdek, Valyuta hisobvaraqlarini ochish, ularga xizmat ko‘rsatish va ular bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish, shu jumladan Valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish uchun qo‘shimcha va/yoki alohida limitlar va (yoki) cheklovlar belgilash.

11.4.15. Mijoz o‘z huquqlarini suiiste’mol qilgan taqdirda, shuningdek, mijoz tomonidan ishbilarmonlik etikasining umume’tirof etilgan me’yorlariga zid bo‘lgan va/yoki Tomonlarning o‘zaro hamkorligining normal tartibini buzishga olib kelishi mumkin bo‘lgan xira, vijdonsiz yoki haqoratli xatti-harakatlar sodir etilganda, ushbu BSh va bank xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha boshqa shartnomalarni bir tomonlama bekor qilish;

11.4.16. firibgarlik alomatlari, shubhali yoki noodatiy faollik, Mijozning hisob qaydnomasi, qurilmasi, to‘lov kartasi, hisobvarag‘i, autentifikatsiya vositalari yoki boshqa bank mahsulotlarining buzilishi alomatlari aniqlanganda, shuningdek, operatsiyalar uchinchi shaxslarning ta’siri ostida yoki xavfsizlik talablarini buzgan holda amalga oshirilayotganligiga asoslar mavjud bo‘lganda, bank mahsulotlaridan foydalanishni vaqtincha cheklash, shu jumladan to‘lov kartasini blokirovka qilish, hisobvaraqlar, depozitlar va boshqa bank mahsulotlari bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishni cheklash, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishni cheklash, shuningdek, zarur tekshiruv yakunlanguniga qadar ayrim operatsiyalarni bajarishni to‘xtatib turish;

11.4.17. operatsiyalarni va (yoki) Mijozni qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tkazish, shu jumladan Mijozning shaxsini, foydalanilayotgan qurilmaning unga tegishliligini, operatsiyani ixtiyoriy ravishda amalga oshirayotganligini tasdiqlash, shuningdek zarur ma’lumotlar, hujjatlar va tushuntirishlarni so‘rab olish;

11.4.18. Mijozning shaxsini yoki amalga oshirilayotgan operatsiyani tasdiqlash uchun uning qo‘shimcha identifikatsiyadan o‘tishini yoki Bank bo‘linmasiga yoki Bank tomonidan belgilangan boshqa xizmat ko‘rsatish nuqtasiga shaxsan murojaat etishini talab qilish;

11.4.19. cheklovlarni qo‘llashga asos bo‘lgan holatlar aniqlanmaguncha yoki xizmat ko‘rsatishni tiklash to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan tekshiruv yakunlanmaguncha, joriy etilgan cheklovlarni saqlab turish.

11.4.20. Mijozga axborot, reklama, marketing va boshqa turdagi SMS-xabarlarni yuborish.

11.5. Mijozga Bank tomonidan taqdim etiladigan har qanday xizmatlardan noqonuniy maqsadlarda, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlangan tovarlar yoki xizmatlarni sotib olish uchun foydalanish taqiqlanadi.

12-bob. Tomonlarning javobgarligi

12.1. Tomonlar o‘z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun ushbu BSh shartlarini hamda Bank va Mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnomalarni buzgan tomon

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

12.2. Bank bank mahsulotlari bo‘yicha qarzdorlikni qaytarishni, barcha hisoblangan foizlar va boshqa qo‘shimcha talablarni to‘lashni, shuningdek, Mijoz tomonidan Bankka yetkazilgan barcha zararlarni Mijoz tomonidan qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

12.3. Jarima to‘lash Mijozni o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

12.4. Mijoz ushbu bilan Bank o‘z ixtiyoriga ko‘ra Mijozning har qanday va/yoki barcha hisobvaraqlaridan uning qo‘shimcha akseptisiz pul mablag‘larini hisobdan chiqarishi va ushbu mablag‘larni Mijozning har qanday va/yoki barcha to‘lov majburiyatlarini (shu jumladan, cheklovlarsiz, zarar va/yoki yo‘qotishlarni) to‘liq qoplash va/yoki kamaytirish uchun yo‘naltirishi mumkinligini tan oladi va bunga rozi bo‘ladi;

12.5. Mijoz o‘z majburiyatlarini bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Bank o‘z ixtiyoriga ko‘ra Bankka tegishli bo‘lgan barcha summalarni Bankka to‘lanmagan boshqa har qanday summalar bilan birlashtirishi mumkin. Mijoz ushbu bilan Bankka tegishli barcha summalar birlashtirilgandan so‘ng, Bank bunday summani undirishning har qanday qonuniy usullaridan foydalanish huquqiga ega ekanligiga rozilik bildiradi.

12.6. Mazkur BShda nazarda tutilmagan Mijoz va Bankning javobgarligi Mijoz va Bank o‘rtasidagi bank mahsulotlarining alohida shartnomalarida aks ettirilgan.

12.7. Tomonlarning mazkur BSh va alohida tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qo‘llaniladi.

12.8. **Bank quyidagi hollarda javobgar emas:**

12.8.1. BSh doirasida tuzilgan, Ariza/Talabnoma (oldingi Shartnoma/Ariza) yoki onlayn Ariza/Talabnoma va shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik holatlari uchun, agar bu mazkur BShning 13-bobiga muvofiq yengib bo‘lmas kuch (fors-major) holatlari natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa. Bank yuqorida ko‘rsatilgan holatlar va ularning oqibatlari bartaraf qilinganidan so‘ng, darhol Mijoz bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajaradi;

12.8.2. Bank tomonidan Call-Markaz orqali bank sirini tashkil etuvchi axborot ma’lum qilinishi natijasida, agar Bankka bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra Mijozning PIN va/yoki Kirish kodi uchinchi shaxslarga ma’lum bo‘lib qolgan bo‘lsa, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlar va boshqa salbiy oqibatlar uchun;

12.8.3. Bank nazorati doirasidan tashqarida bo‘lgan sabablar tufayli, shu jumladan, uchinchi shaxsning operatsiya o‘tkazish uchun bank kartasini qabul qilishdan bosh tortgani, shuningdek, dasturiy va/yoki texnik vositalarga xizmat ko‘rsatishda avariya, yoki uzilishlar oqibatida yuzaga kelgan holatlarda.

12.8.4. Mijozning hisobvaraqlaridan pul uchinchi shaxslar tomonidan hisobdan chiqarilgan taqdirda. Agar to‘lovni amalga oshirish vaqtida Karta bloklanmagan, uning amal qilish muddati tugamagan va Karta uning egasi tomonidan to‘lov amalga oshirilgan to‘lov kartalari tizimi ishtirokchilari o‘rtasida tuzilgan shartnomalarga muvofiq

to‘lovni amalga oshirish uchun foydalanilgan bo‘lsa, Karta yordamida amalga oshirilgan to‘lov ruxsat etilgan hisoblanadi.

12.8.5. Mijozning Bank mobil ilovasidan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida foydalanganligi, shuningdek, Bankning mobil ilovasidan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida foydalanish vaqtida boshqa mamlakatlar qonunchiligi buzilishi natijasida yetkazilgan zarar yoki yo‘qotish uchun.

12.8.6. Mijoz o‘z telefon raqamini/mobil qurilmasini uchinchi shaxsga berish natijasida sodir etilgan har qanday harakatlar uchun.

12.8.7. ushbu BShning ajralmas qismi bo‘lgan bank mahsulotlarini taqdim etish bo‘yicha alohida shartnomalarda ko‘rsatilgan shartlarning Mijoz tomonidan bajarilmaganligi uchun.

12.8.8. ushbu Bosh Shartlarda nazarda tutilgan xavfsizlik choralarini qo‘llash natijasida yuzaga kelgan zararlar, xarajatlar yoki boshqa salbiy oqibatlar uchun, agar bunday choralar Bank tomonidan vijdonan, oqilona va firibgarlikning oldini olish, Mijozning pul mablag‘lari xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki Bankning ichki tartib-qoidalari talablarini bajarish maqsadida qabul qilingan bo‘lsa;

12.8.9. Bankka bog‘liq bo‘lmagan holatlar, jumladan, Mijoz o‘z harakati (harakatsizligi) bilan uchinchi shaxslarning bank mahsulotlari, autentifikatsiya vositalari yoxud operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanishiga imkoniyat yaratib bergan holatlar tufayli sodir etilgan firibgarlik yoki uchinchi shaxslarning boshqa g‘ayriqonuniy harakatlari oqibatida Mijoz ko‘rgan zararlar uchun javobgar emas.

13-bob. Fors-major holatlar

13.1. Bank va Mijoz ushbu BSh bo‘yicha majburiyatlarni qisman yoki to‘liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bu bajarmaslik yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa - bu tabiiy hodisalar (zilzilalar, ko‘chkilar, bo‘ronlar, qurg‘oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, blokadalar, davlat manfaatlari yo‘lida import va eksportni taqiqlash va boshqalar), epidemiyalar, pandemiyalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko‘ra fors-major deb tan olinadigan, Bank va Mijozning irodasi va harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlar bo‘lib, ular ushbu BSh bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlarni bajara olmaydilar.

13.2. Yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari yuzaga kelgan taqdirda, majburiyatlarni bajarish bo‘yicha belgilangan muddatlar yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari amal qiladigan muddatga ko‘chiriladi.

13.3. Favqulodda vaziyatlar tufayli kelib chiqqan majburiyatlarni bajarish imkonsizligi yuzaga kelgan tomon yuqoridagi holatlarning yuzaga kelishi va tugashi to‘g‘risida boshqa Tomonni ular yuzaga kelgan va tugagan vaqtdan boshlab 5 (besh) kalendar kundan kechiktirmay yozma ravishda xabardor qilishi shart.

14-bob. Mijoz ma’lumotlari va maxfiylik

14.1. Ushbu bilan Mijoz uning har qanday shaxsiy ma’lumotlarini, shu jumladan mijozning biometrik, maxsus shaxsiy ma’lumotlarini (Shaxsga doir ma’lumotlar) BSh maqsadlarida, xususan, BSh bo‘yicha majburiyatlar Bank va Mijoz tomonidan joriy va kelajakda bajarilishini nazorat qilish va oldindan aytib berish, Mijozning moliyaviy va mulkiy holatini, BSh mavzusiga tegishli bo‘lgan qismida Mijozning uchinchi shaxslar bilan munosabatlarini tekshirish, shuningdek, Bank tomonidan statistik va/yoki marketing tadqiqotlarini o‘tkazish va/yoki Mijozni Bankning yangi mahsulotlari/xizmatlari va Bank Hamkori(-lari) haqida xabardor qilish uchun qayta ishlashga rozilik beradi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda, Mijoz tomonidan taqdim etilgan rozilik yetarli bo‘lmasa, Mijoz o‘zining shaxsiy ma’lumotlariga ushbu bobda ko‘zda tutilgan hajmda ishlov berish uchun tegishli va qonuniy rozilikning olinishini hamda mavjud bo‘lishini mustaqil ravishda ta’minlash majburiyatini oladi. Mijoz tegishli rozilikning olinishini ta’minlash uchun mas’uldir va Bankning talabiga ko‘ra, bunday rozilik mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart.

14.2. Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish Bank, uning affilangan shaxslari, Bank bilan bog‘liq shaxslar va Bank tomonidan vakolat berilgan boshqa tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida ham, undan tashqarida ham Mijozning shaxsiy ma’lumotlariga avtomatlashtirilgan tarzda, shuningdek avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmasdan ishlov berish, ya’ni har qanday manbalardan yig‘ish, yozish, tizimlashtirish, to‘plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o‘zgartirish, to‘ldirish), olish, tizimlashtirish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uzatish (shu jumladan, shaxsga doir ma’lumotlar subyektlarining huquqlarini yetarli darajada himoya qilishni ta’minlaydigan yoki ta’minlamaydigan xorijiy davlatlar hududiga), Internet tarmog‘ining umumiy foydalanish mumkin bo‘lgan resurslarida - Bank veb-saytlari sahifalarida joylashtirish, egasizlantirish va yo‘q qilishni o‘z ichiga oladi.

14.3. Mijoz O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida Bankning ixtiyoriga ko‘ra, Mijozga tegishli har qanday ma’lumotni (shu jumladan shaxsga doir ma’lumotlarni) istalgan vaqtda va istalgan manbadan hamda istalgan miqdorda talab etish huquqini Bankka berish uchun Mijoz o‘z roziligini beradi. Ushbu ma’lumotlar shaxsga doir ma’lumotlar subyektlarining huquqlarini yetarli darajada himoya qilishni ta’minlaydigan yoki ta’minlamaydigan uchinchi shaxslarga, shu jumladan xorijiy davlatlar hududiga, tanishish, taqqoslash, tekshirish, tahlil qilish, saqlash, uzatish (O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida), qonuniy va/yoki shartnoma majburiyatlarini bajarish maqsadida so‘raladi.

14.4. Mazkur BShning 14.14-bandida ko‘rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida hamda uning hududidan tashqarida, shu jumladan shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlashning avtomatlashtirilgan vositalaridan foydalangan holda, shuningdek, shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmasdan Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish Bank tomonidan, shu jumladan tegishli/affilangan shaxslar, Bankning huquqiy vorislari yoki Bank tomonidan vakolat berilgan boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkinligiga Mijoz o‘z roziligini bildiradi.

14.5. BShni amalga oshirish maqsadida Mijoz, u bilan aloqani har qanday tarzda, jumladan, telefon qo‘ng‘iroqlari, SMS-xabarlar va/yoki elektron pochta xabarlarini jo‘natish uchun uning aloqa ma’lumotlaridan foydalanishga rozilik bildiradi va Bankdan, shu jumladan mobil operator orqali mobil qurilmadan kelgan SMS-xabarnoma xizmatini o‘chirmaslik majburiyatini oladi.

14.6. Mazkur BShni qabul qilish orqali Mijoz Bank bilan telefon orqali suhbatlarni, bank xodimlarining ishini baholash maqsadida, shuningdek, bahsli holatlar yuz berganda, Bank va Mijoz orasidagi suhbatning Mijozni oldindan ogohlantirgan holda yozib olinishiga rozilik beradi.

14.7. Mijoz Bank tomonidan mobil aloqa operatorlari va/yoki boshqa uchinchi shaxslardan olinadigan shaxsiy ma'lumotlar va/yoki mijozning hisob ma'lumotlari, qo'ng'iroqlar, tranzaksiyalar, mobil hamyonlar va/yoki boshqa faoliyat turlari olinishiga rozilik beradi va ushbu shartlarga muvofiq ko'rib chiqiladigan marketing, kredit anderrayting va/yoki boshqa tijorat maqsadlari uchun bunday ma'lumotlar va/yoki ma'lumotlarni Bankka taqdim etuvchi mobil aloqa operatori va/yoki boshqa uchinchi tomon bilan kelishib oladi.

14.8. Bank amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'z ixtiyorida bo'lgan Mijozning shaxsiy ma'lumotlarining saqlanishini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radi.

14.9. Bank va/yoki uning affilangan shaxslari va/yoki Bank bilan yagona kompaniyalar guruhiga kiruvchi shaxslar va/yoki Bank bilan bog'liq shaxslar va/yoki Bank tomonidan vakolat berilgan boshqa tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi hududida ham, uning tashqarisida ham Mijozning quyidagi ma'lumotlarini (cheklanmagan holda) avtomatlashtirilgan tarzda, shuningdek, avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmasdan qayta ishlashlari (to'plash, yozish, tizimlashtirish, yig'ish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish, to'ldirish), ajratib olish, foydalanish, uchinchi shaxslarga berish, shu jumladan - xorijiy davlatlar hududiga, shaxsga doir ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini yetarli darajada himoya qilishni ta'minlaydigan yoki ta'minlamaydigan, taqdim etish, tarqatish, Internet tarmog'ining hamma uchun ochiq resurslarida - Bank saytlari sahifalarida joylashtirish, egasizlantirish va yo'q qilish) mumkin:

14.9.1. Mijozning familiyasi, ismi va otasining ismi;

14.9.2. Mijozning pasporti yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatning tafsilotlari: seriya va raqam hujjat, hujjat berilgan sana, hujjatni bergan organning nomi;

14.9.3. Doimiy va/yoki vaqtincha yashash joyi, tug'ilgan sanasi va joyi, fuqarolik, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR);

14.9.4. Uy (agar mavjud bo'lsa) va/yoki mobil (uyali) telefon raqami;

14.9.5. Elektron pochta manzili;

14.9.6. Kredit tarixi va mijozning to'lovga layoqatsizligi (ham ijobiy, ham va salbiy, shu jumladan joriy va / yoki o'tgan qarzdorliklar, qarz ma'lumotlari va ularni to'lash);

14.9.7. Mijozning ko'char va ko'chmas mulkiga egalik to'g'risidagi ma'lumotlar, daromad haqida ma'lumot;

14.9.8. Mijozning ish beruvchisi va ish sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlar (ish joyi, ish haqi, ish jadvali va boshqalar), ta'lim va olingan mutaxassislik to'g'risidagi ma'lumotlar;

14.9.9. Mijozning Bankdagi va boshqa har qanday bank va/yoki moliya muassasasidagi hisobvaraqlari va kartalari hamda bunday hisobvaraqlarda amalga oshiriladigan

tranzaksiyalarga oid istalgan ma’lumot;

14.9.10. Mijozning elektron kanallarda va/yoki Internet tizimida, boshqa ochiq manbalarda mavjud bo‘lgan har qanday ma’lumotlari, Mijoz bilan muloqot jarayonida to‘plangan ma’lumotlar (elektron pochta, telefon, chat, ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa aloqa kanallari orqali);

14.9.11. Mijozning oila a’zolari, qarindoshlari yoki u bilan yashaydigan boshqa shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, bog‘lanish ma’lumotlari;

14.9.12. Mijozni psixologik, iqtisodiy, madaniy yoki ijtimoiy xususiyatlarga ko‘ra identifikatsiya qilish uchun Bankka zarur bo‘lgan biometrik ma’lumotlar, mijoz haqidagi ma’lumotlar.

14.9.13. Sug‘urta badallari, soliqlar bo‘yicha qarzdorlik, jamg‘arib boriladigan pensiya badallari summasi;

14.9.14. Audio yozuvlar / video yozuvlar;

14.9.15. Mijoz haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida Bank tomonidan (yoki Bankning topshirig‘iga binoan) yaratilgan ma’lumotlar (masalan, Mijozning xatti-harakatlari, afzalliklari, xavf reytingi va boshqalar);

14.9.16. Mobil qurilmada saqlanadigan va mobil ilova tomonidan alohida funksiyalar, xizmatlar, mahsulotlar/xizmatlarni amalga oshirish doirasida foydalaniladigan ma’lumotlar, shu jumladan cookie-fayllar va kirish huquqi orqali uzatiladigan ma’lumotlar, mobil ilovadan foydalanganda Bankka avtomat ravishda uzatiladigan yoki operatsion tizim darajasida rozilikdan so‘ng uzatiladigan boshqa ma’lumotlar;

14.9.17. Xizmat/mahsulotlardan foydalanish uchun zarur boshqa shaxsiy ma’lumotlar;

14.9.18. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qayta ishlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar.

14.10. Agar Mijoz Bankka uchinchi shaxs (shaxslar) haqida ma’lumot bersa, Bank bunday uchinchi shaxs (shaxslar) ma’lumotlarini qayta ishlash/tekshirish uchun javobgar bo‘lmaydi va Mijoz uchinchi shaxs (shaxslar) haqidagi ma’lumotlardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan har qanday ruxsatnomani olishi kerak.

14.11. Bank tomonidan elektron kanallar orqali ma’lumotlarni qayta ishlash, shuningdek, bunday elektron kanalda mijozning faolligini qayd etish va to‘plangan ma’lumotlardan Bankning ixtiyoriga ko‘ra foydalanishni o‘z ichiga oladi.

14.12. Agar Qonunchilik Mijozning o‘z ma’lumotlarini qayta ishlashga roziligini talab qilsa, Mijoz tomonidan elektron va/yoki jismoniy shaklda berilgan har qanday rozilik Mijoz tomonidan tegishli ravishda kelishilgan deb hisoblanadi va Tomonlar uchun majburiydir.

14.13. Bank tomonidan olingan shaxsiy ma’lumotlar va Mijoz haqidagi boshqa ma’lumotlar quyidagi maqsadlarda foydalanilishi mumkin:

14.13.1. Mijoz tarafi, manfaat oluvchisi yoki manfaatdor shaxsi bo‘lgan shartnomalarni tuzish

va bajarish;

14.13.2. Mijozning huquq va majburiyatlarini to‘g‘ri bajarilishini ta’minlash;

14.13.3. ma’lumotlarni tekshirish, shu jumladan firibgarlik operatsiyalarini oldini olish maqsadida;

14.13.4. Shartnomalar ijrosi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni Mijozga yetkazish, shuningdek, uchinchi tomonning qo‘shma dasturlarida (sodiqlik dasturlarida) ishtirok etadigan uchinchi shahslar to‘g‘risidagi ma’lumotlardan habardor qilish;

14.13.5. sug‘urta, pochta, aloqa tashkilotlariga taqdim etish;

14.13.6. Bank tomonidan statistik va/yoki marketing tadqiqotlarini o‘tkazish va/yoki Mijozni Bank va Bank Hamkori (-lar) ning yangi mahsulotlari/xizmatlari to‘g‘risida xabardor qilish;

14.13.7. davlat va boshqa tashkilotlarga kechiktirilgan qarzdorliklarni undirish uchun berish.

14.14. Mijoz ma’lumotlarni qayta ishlash Bank va/yoki uning affilangan shaxslari, Bank bilan yagona kompaniyalar guruhiga kiruvchi shaxslar, Bank bilan aloqador shaxslar hamda Bank tomonidan vakolat berilgan boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkinligini tan oladi va bunga rozilik bildiradi. Bu jarayon quyidagi maqsadlarda (shu jumladan, lekin cheklanmagan holda) amalga oshirilishi mumkin:

14.14.1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va ichki normativ hujjatlarga rioya etilishini ta’minlash;

14.14.2. Mijoz Tomonlardan biri bo‘lib shartnomalarni tuzish va va bajarish bo‘yicha choralar ko‘rish, shu jumladan shartnomalar bo‘yicha joriy va kelajakdagi majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish hamda prognozlash;

14.14.3. Mijozning moliyaviy va mulkiy holatini, uning uchinchi shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarini tekshirish, kredit hisobotini, Mijoz to‘g‘risidagi kredit axborotini olish;

14.14.4. Mijozga tegishli har qanday ma’lumotni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq istalgan manbadan istalgan miqdorda va istalgan vaqtda so‘rash;

14.14.5. Mijoz bilan muloqotni amalga oshirish, shu jumladan bank mahsulotlari/xizmatlari va ulardan foydalanish shartlari to‘g‘risida xabarnomalar, so‘rovlar va ma’lumotlarni yuborish, shu jumladan Mijozlardan so‘rovlar va arizalarni qayta ishlash, keyinchalik bunday so‘rovlar va arizalarni ijro etish uchun Bank kontragentlariga yuborish;

14.14.6. Turli hisobotlar, tadqiqotlar va/yoki taqdimotlarni tayyorlash;

14.14.7. Bank xizmatlari/mahsulotlari sifatini yaxshilash, ulardan foydalanish qulayligi, Bankning yangi xizmatlari/mahsulotlarini ishlab chiqish, Mijozga moslashtirilgan bank xizmatlarini taklif qilish, hamkorlikning yangi usullarini ishlab chiqish va Bank biznesini rivojlantirish;

14.14.8. Bank va/yoki uning affilangan shaxslari, Bank bilan bog‘liq shaxslar, Bank bilan yagona kompaniyalar guruhiga kiruvchi shaxslar hamda Bank tomonidan vakolat berilgan tashkilotlar tomonidan statistik, marketing va boshqa tadqiqotlarni o‘tkazish, kredit va/yoki tranzaksiya tarixini tahlil qilish, to‘lovlar/o‘tkazmalar, daromadlar, xarid qilish xatti-harakatlari va o‘zining va/yoki umumiy mijozlar va/yoki barcha mijozlarning boshqa ma’lumotlarini tahlil etish; Bank Bosh Shartlarining 14.14.8-bandlari maqsadlari uchun, Bank tomonidan vakolatli deb tan olingan tashkilot - bu Bank belgilagan shartlar doirasida o‘zining mobil yoki veb-ilovasida mijozlari va foydalanuvchilariga Bank xizmati yoki mahsulotidan foydalanish imkoniyatini taqdim etuvchi yuridik shaxsdir;

14.14.9. Bank tomonidan yuridik, buxgalteriya, auditorlik, axborot (shu jumladan ma’lumotlarni joylashtirish va qayta ishlash, axborot texnologiyalarini yaratish) va maslahat xizmatlarini olish;

14.14.10. Bank tomonidan, shu jumladan uning affilangan shaxslari va/yoki Bank bilan bog‘liq shaxslar va/yoki boshqa tashkilotlar bilan birgalikda aksiyalar, savolnomalar, so‘rovlar o‘tkazish va/yoki yangi mahsulotlar/xizmatlar haqida xabardor qilish;

14.14.11. Bankning mobil ilovasidan foydalanib qonunchilik yoki kelishuvlar talablariga zid xatti-harakatlarning oldini olish;

14.14.12. Bankning qonuniy manfaatlarini va/yoki qonuniy huquqlarini himoya qilish.

14.15. Ushbu BShning 14.9 va 14.14-bandlari maqsadlari uchun Bank bilan yagona kompaniyalar guruhiga kiruvchi shaxslar quyidagilardir: (1) Bank bevosita yoki bilvosita (boshqa shaxslar orqali, shu jumladan qimmatli qog‘ozlarning nominal egasi vositasida) ustav kapitalida har qanday miqdordagi ulushga (ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan yoki bo‘lmagan) egalik qiladigan (yakka tartibda yoki boshqa har qanday shaxs bilan birgalikda) yoki nazoratni amalga oshiradigan (yakka tartibda yoki boshqa shaxslar bilan birgalikda siyosatga, biznes qarorlariga yoki boshqaruv organlari, qo‘mitalar a’zolarining tayinlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan) yuridik shaxslar, bu nazorat ishonchli boshqaruv yoki aksiyadorlar/ishtirokchilar bilan tuzilgan kelishuv orqali yoxud mazkur shaxsning boshqaruv organlari/qo‘mitalarida ishtirok etish yo‘li bilan amalga oshiriladi; (2) Bank aksiyadori bevosita yoki bilvosita (boshqa shaxslar orqali, shu jumladan qimmatli qog‘ozlarning nominal egasi orqali) ustav kapitalida (yakka tartibda yoki boshqa har qanday shaxs bilan birgalikda) har qanday miqdordagi ulushga (ovoz berish huquqiga ega yoki ega bo‘lmagan) ega bo‘lgan yuridik shaxslar.

14.16. Mol-mulk va maxfiy ma’lumotlarning xavfsizligi va himoyasini ta’minlash, shuningdek, xizmatlar sifatini nazorat qilish maqsadida Bank binolari video va audio kuzatuv ostida bo‘ladi. Bundan tashqari, videokuzatuv bankomatlar orqali ham amalga oshiriladi, audioyozuv esa Bank bilan telefon orqali bog‘lanish vaqtida amalga oshiriladi.

14.17. Mijoz videokuzatuv va audioyozuvning muhimligini tan oladi va Bankka ularni amalga oshirish natijasida olingan ma’lumotlarni, shu jumladan Bankning Call-Markazi bilan telefon suhbatlarining audioyozuvlarini xavfsizlikni ta’minlash, sifat nazorati va Mijozga lozim darajada xizmat ko‘rsatish, shuningdek, nizoli vaziyatlarni hal qilishda dalil sifatida foydalanish maqsadida qayta ishlashga rozilik beradi. Telefon suhbatining audioyozuvi olib borilishi haqida Mijoz suhbat boshida xabardor qilinadi.

14.18. Tomonlardan har biri boshqa Tomonning u hamkorlik natijasida va/yoki uning davomida olishi mumkin bo‘lgan maxfiy axborotini boshqa Tomonning oldindan yozma roziligisiz uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik va/yoki boshqacha tarzda taqdim etmaslik majburiyatini oladi, ushbu BSh va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

14.19. “Maxfiy ma’lumotlar” atamasi mazkur BShning 2.2.22-bandida ko‘rsatilgan ma’noda qo‘llaniladi.

14.20. Tomonlar Maxfiy ma’lumotlarni saqlaydilar hamda ushbu Maxfiy ma’lumotlarni, ushbu BShda belgilangan holatlar va/yoki qonunchilik talab qilgan hollar bundan mustasno, hech qanday uchinchi tomonga oshkor etmaydilar va/yoki bermaydilar. Bu majburiyat ushbu BShning butun amal qilish muddati davomida, shuningdek, ular tugagandan so‘ng ham kuchda qoladi.

14.21. Mijozning shaxsiy va maxfiy ma’lumotlari BSh va/yoki Bank bilan tuzilgan boshqa har qanday shartnomaning butun amal qilish muddati davomida, bunday shartnomalar muddati tugagan/bekor qilingan taqdirda esa amaldagi bank qonunchiligida belgilangan muddatlar davomida Bankda saqlanadi.

14.22. Bank “Bank siri to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq Mijoz to‘g‘risidagi bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarning maxfiyligini va saqlanishini kafolatlaydi.

14.23. Bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar Bank tomonidan Mijoz yoki uning qonuniy vakiliga uning murojaati asosida (yozma yoki elektron shaklda) taqdim etilishi mumkin.

14.24. Mijoz to‘g‘risidagi bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar uchinchi shaxslarga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda taqdim etiladi.

14.25. Mijoz bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar Bank tomonidan surishtiruv va dastlabki tergov organlariga, sudlarga, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organiga, shuningdek, boshqa organlar va shaxslarga “Bank siri to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda, shuningdek, uchinchi shaxslarga Mijozning yozma (shu jumladan elektron) roziligi asosida taqdim etilishi mumkinligidan xabardor qilingan va bunga rozilik bildiradi.

14.26. Mijoz O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda Bankdan o‘zining shaxsga doir ma’lumotlarini aniqlashtirish, bloklash yoki yo‘q qilishni talab qilishga haqli. Bank qonunchilikda saqlash majburiyati nazarda tutilgan Mijozning shaxsga doir ma’lumotlarini qonunchilikda belgilangan muddatlar davomida yo‘q qilmaslikka haqli.

14.27. Mazkur BShni qabul qilgan holda, Mijoz Bank tomonidan “Kredit-axborot tahliliy markazi” kredit byurosi” MCHJga kredit buyurtmanomasining rasmiylashtirilishini va Bankka o‘zi to‘g‘risidagi kredit hisobotini, zaruratga ko‘ra, cheklanmagan miqdorda taqdim etilishini tasdiqlaydi va rozilik beradi. Bu ma’lumotlar kreditga layoqatlilikni baholash va Bank tomonidan kredit mahsulotlari bo‘yicha shaxsiy takliflar berish maqsadida qayta ishlanadi.

14.28. Bosh Shartlarning 14.27-bandida ko‘rsatilgan maqsadlar uchun Mijoz bank tomonidan kredit

mahsulotlari bo‘yicha shaxsiy takliflarni olish uchun “Kredit-axborot tahliliy markazi” kredit byurosi” MCHJga bank tomonidan kredit buyurtmanomasini rasmiylashtirishga vakolat beradi va rozilik beradi, shuningdek, Mijoz kredit hisobotini taqdim etishga rozilikni qabul qilish sanasi Bank tomonidan “Kredit-axborot tahliliy markazi” kredit byurosi” MCHJga kredit buyurtmanomasini taqdim etish sanasi ekanligiga rozilik beradi. Mijoz Bankning ushbu bandda ko‘rsatilgan xatti-harakatlari unga tushunarli ekanligini tasdiqlaydi, shuningdek, Bankning ushbu xatti-harakatlari Tomonlar o‘rtasida nizo predmeti bo‘lmasligiga rozilik beradi va kafolat beradi.

15-bob. Korrupsiyaga qarshi choralar

15.1. Tomonlar o‘z huquqlari yoki majburiyatlari bilan bog‘liq ravishda korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari normalarini buzishi mumkin bo‘lgan har qanday harakatlarni sodir etmaslik, shu jumladan (lekin cheklanmagan holda) har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlari, hokimiyat va o‘zini o‘zi boshqarish organlari, davlat xizmatchilari, xususiy kompaniyalar va ularning vakillariga pul yoki boshqa har qanday shakldagi poralarni, shu jumladan (lekin cheklanmagan holda) noqonuniy to‘lovlarni taklif qilmaslik, ularga ruxsat bermaslik, va’da qilmaslik va amalga oshirmaslik majburiyatini oladilar. Tomonlardan biri majburiyatlarni buzgan taqdirda, ikkinchi Tomon bir tomonlama suddan tashqari tartibda amaldagi bank shartnomalari bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdan bosh tortish huquqiga ega.

15.2. Tomonlar quyidagilarni e’tirof etadi va kafolatlaydi:

15.2.1. Tomonlarning har biri, o‘zlarini vijdonan va qonuniy ravishda tutishlari, yuqori axloqiy me’yorlarga rioya qilishlari kerak. Tomonlar korrupsiya, soliq firibgarligi, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni har qanday shaklda va boshqa har qanday jinoiy harakatlariga nisbatan toqat qilmaslik siyosatiga rioya qilishadi va yuqorida keltirilgan masalalarni doimiy nazorat ostida ushlab turadilar.

15.2.2. Tomonlar, shuningdek, ular bilan bog‘liq shaxslar: vakolatli shaxslar, vakillar korrupsiyani (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita), soliq firibgarligini va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni har qanday shaklda qo‘llab-quvvatlaydigan har qanday faoliyatda ishtirok etmasligi kerak.

16-bob. Bosh Shartlarga muvofiq tuzilayotgan shartnomalarga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish, muddatidan oldin bekor qilish va voz kechish

16.1. Agar Mijoz Bankka kredit va Bankning boshqa mahsulotlar bo‘yicha barcha komissiya to‘lovlari va boshqa qarzdorliklarni to‘lagan bo‘lsa, ochilgan bank hisobvaraqlaridan barcha mavjud mablag‘larni, shu jumladan talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridan, muddatli depozit hisobvaraqlaridan boshqa banklarda ochilgan bank hisobvaraqlariga o‘tkazgan bo‘lsa, Mijoz istalgan vaqtda Bankning mobil ilovasidagi o‘z hisob qaydnomasini o‘chirib tashlashi mumkin.

16.2. Bankning mobil ilovasidagi o‘z hisob qaydnomasini o‘chirish orqali Mijoz har qanday yoki barcha bank mahsulotlaridan foydalanishni to‘xtatishga, ushbu BShni bekor qilishga, barcha bank hisobvaraqlari va xizmatlarini yopishga roziligini bildiradi, shuningdek, ushbu xatti-

harakat Mijoz tomonidan shaxsan (o‘z qo‘li bilan) berilgan arizaga (ushbu BShning 2-ilovasiga muvofiq) tenglashtirilishiga va Mijoz tomonidan imzolangan qog‘oz shaklidagi ariza bilan bir xil yuridik kuchga ega bo‘lishiga rozilik bildiradi.

16.3. Mazkur BSh istalgan vaqtda Tomonlarning kelishuvi yoki O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda bekor qilinishi mumkin. Mazkur BShning bekor qilinishi Mijozni Bank oldida qabul qilingan majburiyatlarini to‘liq bajarishdan ozod qilmaydi.

16.4. Agar ushbu BShda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, Bank ushbu BShga, Tariflarga va bank mahsulotlari shartlariga bir tomonlama tartibda o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega bo‘lib, bunda o‘zgarishlar kuchga kirishidan kamida 10 (o‘n) kalendar kun oldin tegishli ma’lumotni Bankning www.tbcbank.uz rasmiy veb-saytida va MBXda, shuningdek, Bankning ixtiyoriga ko‘ra, Bank binolarida joylashtirish orqali Mijozni xabardor qiladi. Agar o‘zgarishlar kuchga kirgan sanaga qadar Mijoz Bankka e’tiroz yubormasa va Bank xizmatlaridan foydalanishni davom ettirsa, o‘zgarishlar Mijoz tomonidan qabul qilingan hisoblanadi. O‘zgarishlarga rozi bo‘lmagan taqdirda, Mijoz ular kuchga kirgan sanaga qadar Bank oldidagi majburiyatlarini bajargan holda tegishli shartnomani BShda nazarda tutilgan tartibda bekor qilishga haqli. Mijozning holatini yaxshilaydigan yoki qonunchilik talablaridan kelib chiqadigan o‘zgarishlar ular joylashtirilgan sanadan boshlab kuchga kirishi mumkin.

16.5. Bank qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda, buning natijasida Mijoz bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish imkonsiz bo‘lib qolsa, har qanday Shartnomalarga va ushbu BShga bir tomonlama tartibda o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

16.6. Mazkur BSh tomonidan tartibga solinmagan har qanday masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etilishi kerak.

16.7. Tomonlar o‘rtasida ushbu BSh doirasida tuzilgan shartnomalardan yoki ular bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan barcha nizolarni Tomonlar muzokaralar yo‘li bilan hal qiladilar. Agar Tomonlar muzokaralar davomida kelishuvga erisha olmasalar, nizo O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sudda ko‘rib chiqiladi. Bankning Mijozga nisbatan da’volari Bankning tanloviga ko‘ra Mijozning yashash joyidagi, Bank joylashgan joydagi sudga yoki fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirobod, Mirzo Ulug‘bek, Uchtepa, Shayxontohur yoki Yakkasaroy tumanlararo sudiga taqdim etiladi.

16.8. Agar ushbu BShning biror bandi o‘z kuchini yo‘qotsa, bunday holat boshqa bandlarga ta’sir qilmasligi va Mijozga amaldagi majburiyatlardan to‘liq yoki qisman voz kechish uchun asos bo‘lmasligi kerak.

16.9. Istalgan istisno holatlarda, jumladan, har qanday jinoiy, firibgarlik va/yoki noqonuniy harakatlar yoki tranzaksiyalar uchun yoki ular bilan bog‘liq holda har qanday hisob qaydnomasidan foydalanishda gumon qilinganda, Bank Mijozni oldindan ogohlantirmasdan har qanday hisob qaydnomasini yopishi, to‘xtatib qo‘yishi yoki muzlatib qo‘yishi mumkin.

16.10. Bank tomonidan Ichki nazorat qoidalari talablariga muvofiq shubhali yoki gumonli operatsiyalar aniqlangan taqdirda, Bank bunday operatsiyalar aniqlangan vaqtdan boshlab 30 (o‘ttiz) bank kunigacha bo‘lgan muddatga masofaviy xizmatlar ko‘rsatishni to‘xtatib turishga haqli. Ko‘rsatilgan muddat davomida Bank Mijozdan amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi yozma tushuntirishlar va/yoki tasdiqlovchi hujjatlarni so‘rashga haqli.

16.11. Mijoz belgilangan muddatda zarur tushuntirishlar va/yoki hujjatlarni taqdim etmagan taqdirda yoki Bankda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qonuniylashtirish, terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida masofaviy xizmatlardan foydalanilganligi haqida asosli shubhalar mavjud bo‘lsa, Bank taqdim etilgan zarur tushuntirishlar va/yoki hujjatlardan qat’i nazar, keyinchalik masofaviy xizmatlarni ko‘rsatishni bir tomonlama rad etishga va shartnomani bekor qilishga haqlidir.

16.12. Agar Mijoz mazkur BShning 1.4-bandida ko‘rsatilgan Sanksiyalar ro‘yxatlariga kiritilgan bo‘lsa yoki Mijoz tomonidan Ichki nazorat qoidalari buzilgan taqdirda, Bank ushbu BShni bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

17-bob. Boshqa qoidalar

17.1. BSh va Bankning boshqa ichki me’yoriy hujjatlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinmagan barcha masalalar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

17.2. BShning biron-bir bandi amaldagi qonunchilikka muvofiq haqiqiy emas, noqonuniy yoki ijro etilishi mumkin emas deb topilgan taqdirda, BShning boshqa barcha bandlari o‘z kuchini saqlab qoladi. Tomonlar bunday holatda haqiqiy bo‘lmagan, noqonuniy yoki amalga oshirib bo‘lmaydigan bandni o‘zaro maqbul, qonuniy va yuridik kuchga ega bo‘lgan band bilan almashtirishi shart.

17.3. BShning o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi matnlari bir-biridan farq qilsa, rus tilidagi matn ustunlik qiladi. Shu bilan birga, agar Mijoz MBXda ingliz tilini tanlasa va mijoz BSh va bank shartnomasining ingliz tilidagi nusxasini qabul qilsa, Mijoz BShning rus tilidagi nusxasidan asosiy nusxa sifatida foydalanilishini va nizolar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishini tasdiqlaydi va bunga rozi bo‘ladi.

17.4. Mijoz bank mobil ilovasida bank kartasi tashqi raqamining oxirgi to‘rtta raqamini kiritish orqali bank kartasini faollashtirib, bank kartasini (Bank xodimidan yoki kuryerdan, shu jumladan uchinchi tomon yetkazib berish xizmatidan) shaxsan olganligini tasdiqlaydi.

18-bob. Bank bilan O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan Mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari

18.1. Ushbu bobning maqsadlari uchun O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari deganda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, shu jumladan chet eldagi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan chet el fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari yoki jismoniy shaxslari - norezidentlar deganda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan O‘zbekiston Respublikasining rezidenti tushunchasiga kirmaydigan barcha shaxslar tushuniladi.

18.2. Ushbu bobning qoidalari faqat jismoniy shaxslar - norezidentlarga nisbatan qo‘llaniladi va ushbu bob va mazkur BShning boshqa boblari normalari o‘rtasida biron-bir ziddiyatlar yuzaga kelgan taqdirda ustuvor kuchga ega bo‘ladi.

18.3. Ushbu BShning 4-bobi va 3-ilovasining qoidalari va shartlari O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarga faqatgina ular tegishli ravishda identifikatsiyadan o‘tkazilgandan va taqdim etilgan hujjatlar ushbu BSh qoidalari hamda O‘zbekiston

Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq verifikatsiyadan o‘tkazilgandan keyin tatbiq etiladi. Ushbu BShning 5 va 6-boblari qoidalari O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslarga tatbiq etilmaydi.

18.4. BSh va mazkur BShning 4-bobi hamda 3-ilovasida nazarda tutilgan shartnomalar matnlari o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga kelgan taqdirda, Bank bilan norezident o‘rtasidagi munosabatlarda tegishli shartnomalarning shartlari ustunlik kuchiga ega bo‘ladi.

18.5. Jismoniy shaxslar - norezidentlarga milliy va chet el valyutasida birlamchi bank hisobvaraqlarini (shu jumladan bank kartalarini) ochish maqsadida Bank jismoniy shaxs - norezidentdan quyidagi qo‘shimcha ma’lumotlar / hujjatlarni so‘rashga haqli:

18.5.1. norezident jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasida turganligini (yashashini) tasdiqlovchi hujjat;
18.5.2. Bank talablariga javob beradigan amal qilish muddati bilan O‘zbekiston Respublikasida doimiy yoki vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risidagi amaldagi ma’lumotnoma va u tegishli ariza berilgan kundan boshlab kamida 15 bank kuni davomida o‘z kuchini saqlab qolishi kerak;
18.5.3. ish yoki o‘qishni, shuningdek, daromad manbalarini tasdiqlovchi hujjatlar;
18.5.4. jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR);
18.5.5. O‘zbekiston Respublikasining litsenziyalangan aloqa operatorida ro‘yxatga olingan telefon raqami.

18.6. Jismoniy shaxs - norezident uchun ochiladigan keyingi bank hisobvaraqlari shaxsni tasdiqlash tartib-qoidalaridan o‘tish orqali, shuningdek, 18.5-bandga muvofiq Bank tomonidan so‘ralgan hujjatlar/ma’lumotlarning dolzarbligi sharti bilan masofadan turib ochilishi mumkin.

18.7. Bank o‘z ixtiyoriga ko‘ra, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablarini bajarish maqsadida norezident jismoniy shaxslardan mazkur BShning 18.5-bandida nazarda tutilmagan qo‘shimcha hujjatlarni, shu jumladan norezident jismoniy shaxslar pul mablag‘larining kelib chiqish manbalarini tasdiqlovchi hujjatlarni so‘rab olishga haqli.

18.8. 18.5-bandda ko‘rsatilgan yoki 18.7-bandga muvofiq Bank tomonidan qo‘shimcha ravishda so‘ralgan ma’lumotlar/hujjatlar Bank va Mijoz o‘rtasidagi har qanday shartnomalar yoki xizmatlar ko‘rsatish davrida o‘zgargan taqdirda (“Mijoz” - bu yerda va keyinchalik jismoniy shaxslar - norezidentlarni ham o‘z ichiga oladi), Mijoz keyingi ish kunidan kechiktirmay Bankni bunday o‘zgarishlar to‘g‘risida ushbu o‘zgarishlarni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan holda xabardor qilishi shart.

18.9. Bank o‘z xohishiga ko‘ra, kiritilgan o‘zgartirishlar va tegishli hujjatlarni o‘rganish davrida har qanday joriy shartnomalarning va (yoki) xizmatlarning amal qilishini va (yoki) ko‘rsatilishini to‘xtatib turishga haqli. O‘zbekiston Respublikasi hukumat ma’lumotlar bazalaridan zarur ma’lumotlar/tasdiqlarni o‘z vaqtida olish sharti bilan, bunday bazalar bilan o‘zaro hamkorlik qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, o‘zgarishlar to‘g‘risidagi taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganishning eng uzoq muddati 15 ish kunini tashkil etadi. Shartnomalar va/yoki xizmatlar Mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganish va tekshirish yakunlangandan so‘ng keyingi ish kunidan kechiktirmay qayta tiklanadi. Shartnomalar va xizmatlarni tiklashga to‘sqinlik qiladigan kamchiliklar yoki boshqa holatlar aniqlangan taqdirda, Bank bunday kamchiliklar va holatlar to‘liq bartaraf etilgunga qadar shartnomalarni va/yoki xizmatlarni to‘xtatib turishga haqli.

18.10. Norezident jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga quyidagilar o‘tkazilishi mumkin:

18.10.1. notijorat turdagi o‘tkazmalar;
18.10.2. ichki valyuta bozorida sotib olingan mablag‘lar;
18.10.3. qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida olingan mablag‘lar.

18.11. Norezident jismoniy shaxslarning chet el valyuta hisobvaraqlaridagi mablag‘lar hisobvaraq egasining ko‘rsatmasiga binoan quyidagilar uchun foydalanilishi mumkin:

18.11.1. notijorat turdagi o‘tkazmalar uchun;
18.11.2. ichki valyuta bozorida sotish uchun;
18.11.3. O‘zbekiston Respublikasi banklarining bankomatlari va kassalari yordamida naqd xorijiy valyutani yechib olish uchun;
18.11.4. chet el banklarida ochilgan o‘z hisobvaraqlariga o‘tkazish uchun.

18.12. Norezident jismoniy shaxslarga chet el valyutasini sotish ular tomonidan respublika hududida milliy valyuta mablag‘lari qonuniy manbalardan olinganligini tasdiqlovchi taqdim etilgan hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda operatsiya summasi taqdim etilgan hujjatlarda ko‘rsatilgan summa miqdoridan oshmasligi kerak.

18.13. Ushbu BShda nazarda tutilgan huquqlarga qo‘shimcha ravishda, Bank norezident jismoniy shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarda quyidagi qo‘shimcha huquqlarga ega:

18.13.1. hisobvaraqlar ochish va/yoki norezidentlarning hisobvaraqlari bo‘yicha moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish, shuningdek, quyidagi hollarda joriy hisobvaraqlar/operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yish/bloklash:

- Bank norezident jismoniy shaxs taqdim etgan ma’lumotlar va hujjatlarni o‘rganish natijalarini qoniqarli deb hisoblamasa;

- Bankka nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo‘llash xavfi mavjud bo‘lsa;

- operatsiyalar tijorat banklari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda shubha uyg‘otsa;

- hisobvaraqqa o‘tkazilayotgan mablag‘lar noqonuniy yo‘l bilan olingan deb hisoblash uchun asoslar mavjud bo‘lsa;

- O‘zbekiston Respublikasi vakolatli organlarining yoki xorijiy davlatlar vakolatli organlarining, shu jumladan sud instansiyalarining talablari yoki ko‘rsatmalari mavjud bo‘lsa;

- norezident O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo‘lgan holda, qonun hujjatlari va/yoki vakolatli uchinchi shaxslar talablariga ko‘ra muayyan xizmat faqat O‘zbekiston Respublikasi hududida ko‘rsatilishi mumkin bo‘lsa;

- 18.5- va 18.7-bandlarda ko‘rsatilgan hujjatlar o‘z dolzarbligini yo‘qotgan bo‘lsa;

- rad etish, to‘xtatib turish yoki bloklash zarurati Bankning ichki hujjatlari bilan bog‘liq bo‘lsa.

18.13.2. jismoniy shaxs - norezidentning hisobvarag‘iga kirishni vaqtincha cheklash yoki to‘liq bloklash, shuningdek, quyidagi hollarda mablag‘larning transchegaraviy o‘tkazmalarini to‘xtatib turish:

- Mijoz va/yoki uning kontragentlari, benefitsiarlar, hisob raqamini yurituvchi bank hamda to‘lov zanjirida ishtirok etuvchi boshqa banklarning mazkur BShning 1.4-bandida ko‘rsatilgan Sanksiyalar ro‘yxatlariga kiritish holatlarida;

- agar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo‘lmasa, xorijiy davlatlarning vakolatli organlaridan rasmiy so‘rov olish holatlarida;

- taqdim etilgan hujjatlar yoki ma’lumotlarning haqiqiy ma’lumotlarga nomuvofiqligi aniqlanganda.

18.13.3. qonun hujjatlarida, Bankning ichki hujjatlarida yoki komplaens nazoratning xalqaro standartlarida nazarda tutilgan hollarda norezident jismoniy shaxs bilan bank xizmati ko‘rsatish shartnomasini bekor qilish va uning hisobvaraqlari/kartalarini yopish/bloklash;

18.13.4. qonun hujjatlariga rioya qilish, Bank manfaatlarini himoya qilish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tavakkalchiliklarning oldini olish maqsadida norezident jismoniy shaxslarga nisbatan muayyan bank mahsulotlari va xizmatlaridan (shu jumladan, masofaviy bank xizmatlaridan) foydalanishga cheklovlar joriy etish;

18.13.5. norezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi banklarida hisobvaraqlar ochish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari qoidalariga, shuningdek, xalqaro to‘lov tizimlarida nazarda tutilgan qoidalar va shartlarga o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda, norezident jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar shartlariga bir tomonlama tartibda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

18.13.6. 30 kunlik davr uchun jami 10 000 AQSH dollaridan ortiq summadagi kiruvchi to‘lovlar va/yoki valyuta ayirboshlash operatsiyalari amalga oshirilganda jismoniy shaxs - norezidentdan pul mablag‘larining kelib chiqish manbalarini tasdiqlovchi hujjatlarni so‘rab olish;

18.13.7. operatsiyani o‘rganish uchun qo‘shimcha axborot so‘rash, operatsiya summasini cheklash, cheklovlar belgilash yoki uni o‘tkazishni rad etish, shuningdek, quyidagi hollarda norezidentga xizmat ko‘rsatishni to‘xtatish va u bilan tuzilgan shartnomalarni bir tomonlama tartibda bekor qilish:

- agar norezident yoki uning operatsiyasi sanksiyalar ta’siri ostiga tushsa yoxud ularni qo‘llash xavfi mavjud bo‘lsa;

- agar norezident tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalar anketaga muvofiq uning profiliga mos kelmasa (tegishli hollarda);

- agar norezident Bankka operatsiyani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlarni, shu jumladan pul mablag‘larining kelib chiqish manbalarini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmagan bo‘lsa.

18.14. Ushbu BShda nazarda tutilgan majburiyatlardan tashqari, norezident jismoniy shaxslar Bank bilan o‘zaro munosabatlarda quyidagi qo‘shimcha majburiyatlarga ega:

18.14.1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga rioya qilish, shuningdek, identifikatsiyalash, daromad manbalarini tasdiqlash va normativ hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa tartib-taomillar uchun zarur bo‘lgan ishonchli axborot va hujjatlarni Bankka taqdim etish.

18.14.2. Mazkur BShning 11.1.9-bandida nazarda tutilgan majburiyat o‘rniga, kamida 5 ish kuni oldin Bankni 1 oydan ortiq muddatga O‘zbekiston Respublikasidan chiqib ketishi va qaytib kelganidan keyingi ish kunidan kechiktirmay qaytib kelishi to‘g‘risida xabardor qilishi. Agar mijoz O‘zbekiston Respublikasi hududida uzoq vaqt bo‘lmagan taqdirda, Bank hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni o‘tkazishga cheklovlar belgilash huquqiga ega.

18.14.3. Fuqarolik, shaxsga doir ma’lumotlar, O‘zbekiston Respublikasida turish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, daromad manbalari, ish joyi (shu jumladan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi), shuningdek, Bankda xizmat ko‘rsatishga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa ma’lumotlar o‘zgarganligi to‘g‘risida Bankni mazkur BShning 18.8-bandida nazarda tutilgan muddatda xabardor qilish.

18.14.4. hisobvaraqlardan faqat shaxsiy, notijorat maqsadlarda foydalanish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

19-bob. MBXda SI-assistentdan foydalanish

19.1. SI-assistent Bank tomonidan MBXda navigatsiyani soddalashtirish va Mijozning Bank mahsulotlari va xizmatlari to‘g‘risida umumiy ma’lumot olishi maqsadida qo‘shimcha ma’lumot-axborot xizmati sifatida taqdim etiladi. SI-assistentdan foydalanish ixtiyoriydir; Mijoz istalgan vaqtda mazkur BShning 8-bobida nazarda tutilgan boshqa aloqa kanallari, shu jumladan Bankning Call-Markazi orqali ma’lumot va xizmat olishga haqli.

19.2. SI-assistentdan foydalanishni boshlash (birinchi So‘rovni yuborish) orqali Mijoz ushbu bob shartlari bilan tanishganligini, ularni tushunganligini va to‘liq hajmda qabul qilishini tasdiqlaydi.

19.3. Mijoz quyidagilardan xabardor qilingan va ularga rozilik bildiradi:

19.3.1. SI-assistent bilan o‘zaro muloqotda Mijoz Bank xodimi bilan emas, balki kompyuter dasturi bilan muloqot qiladi;

19.3.2. Javoblar avtomatik tarzda shakllantiriladi va xatolar, noaniqliklar, to‘liq bo‘lmagan, eskirgan yoki haqiqatga mos kelmaydigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin, shu jumladan sun’iy intellekt texnologiyalarining xususiyatlari, So‘rovning noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan tarzda ifodalanganligi, texnik nosozliklar sababli;

19.3.3. Javoblar faqat axborot va ma’lumotnoma xususiyatiga ega bo‘lib, Bankning rasmiy pozitsiyasi hisoblanmaydi, shuningdek, maslahat (yuridik, moliyaviy, soliq, investitsiya yoki boshqa), biron-bir operatsiyani amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik yoxud biron-bir bitim tuzish bo‘yicha tavsiya hisoblanmaydi;

19.3.4. Javoblar Bankning ofertasi, aksepti, tasdiqnomasi, kafolati yoki majburiyati hisoblanmaydi, mazkur BSh, Tariflar, Ariza/Talabnomalar hamda Bank va Mijoz o‘rtasidagi boshqa shartnomalar shartlarini o‘zgartirmaydi va to‘ldirmaydi hamda Bank uchun Mijoz oldida hech qanday majburiyat keltirib chiqarmaydi;

19.3.5. Javobda keltirilgan foiz stavkalari, komissiyalar, limitlar, muddatlar, kreditlash shartlari va mahsulotlarning boshqa parametrlari, shuningdek, kredit, mikroqarz/mikrokredit yoki boshqa mahsulotni ma’qullash imkoniyati to‘g‘risidagi

ma’lumotlar dastlabki xususiyatga ega bo‘lib, mahsulotning ko‘rsatilgan shartlarda taqdim etilishini kafolatlamaydi.

19.4. Javob bilan mazkur BShda, Tariflarda, Bank va Mijoz o‘rtasidagi shartnomalarda, MBXning tegishli bo‘limlarida (shu jumladan hisobvaraqlar bo‘yicha qoldiqlar, operatsiyalar va ko‘chirmalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarda) yoki Bankning www.tbcbank.uz rasmiy saytida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar o‘rtasida tafovut yuzaga kelgan taqdirda, ko‘rsatilgan hujjatlar va manbalardagi ma’lumotlar ustuvor hisoblanadi.

19.5. SI-assistent Mijoz nomidan hisobvaraqlar va bank kartalari bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirmaydi, shartnomalar tuzmaydi, ularni o‘zgartirmaydi va bekor qilmaydi. MBXdagi har qanday operatsiyalar va harakatlar faqat Mijozning farmoyishiga ko‘ra va ular Mijoz tomonidan MBXda belgilangan usullarda tasdiqlanganidan keyin amalga oshiriladi. Agar SI-assistent operatsiya parametrlarini (oluvchining rekvizitlari, summa, to‘lov maqsadi va h.k.) tayyorlasa yoki oldindan to‘ldirsa, Mijoz operatsiyani tasdiqlashdan oldin ularning to‘g‘riligini mustaqil ravishda tekshirishi shart. Mijoz tomonidan tasdiqlangan operatsiya, uni tayyorlashda SI-assistentdan foydalanilgan-foydalanilmaganidan qat’i nazar, uning farmoyishiga ko‘ra amalga oshirilgan hisoblanadi.

19.6. SI-assistentdan foydalanishda Mijoz quyidagi majburiyatlarni oladi:

19.6.1. olingan ma’lumotlarni mustaqil ravishda tekshirish va tegishli shartnomalar hamda Tariflar shartlarini inobatga olgan holda qarorlar qabul qilish, shubha tug‘ilgan hollarda, shuningdek, muhim moliyaviy qarorlar qabul qilishdan oldin — ma’lumotlarni mazkur BShning 8-bobida nazarda tutilgan aloqa kanallari orqali Bankdan aniqlashtirish;

19.6.2. So‘rovlarda Kirish kodlari, PIN-kodlar, parollar, bir martalik tasdiqlash kodlari (shu jumladan SMS-xabarlardagi), bank kartasining to‘liq raqami, amal qilish muddati va CVV/CVC-kodi hamda MBXga kirish yoki pul mablag‘larini tasarruf etish imkonini beruvchi boshqa ma’lumotlarni ko‘rsatmaslik. Bank, shu jumladan SI-assistent orqali, hech qachon Mijozdan ko‘rsatilgan ma’lumotlarni so‘ramaydi;

19.6.3. So‘rovlarga uchinchi shaxslarning shaxsga doir ma’lumotlarini va ular to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlarni kiritmaslik, Mijoz bunday ma’lumotlarni Bankka berishga haqli bo‘lgan hollar bundan mustasno;

19.6.4. SI-assistentdan g‘ayriqonuniy maqsadlarda, chalg‘itish, haqoratomuz, noto‘g‘ri yoki zararli ma’lumotlarni tarqatish uchun foydalanmaslik, shuningdek, belgilangan cheklovlarni chetlab o‘tishga, ma’lumotlarga, Bankning dasturiy ta’minotiga yoki boshqa mijozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ruxsatsiz kirishga, shu jumladan SI-assistent ishini o‘zgartirishga qaratilgan ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olgan So‘rovlarni yuborish yo‘li bilan, urinmaslik;

19.6.5. aniq xato ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan Javoblar, shuningdek, firibgarlik yoki MBXga ruxsatsiz kirish gumonlari to‘g‘risida Bankka zudlik bilan xabar berish.

19.7. Bank SI-assistentdan foydalanish bilan bog‘liq holda Mijozda yoki uchinchi shaxslarda yuzaga kelgan zararlar (shu jumladan boy berilgan foyda), xarajatlar va boshqa salbiy oqibatlar uchun, shu jumladan quyidagilar natijasida yuzaga kelganlari uchun javobgar bo‘lmaydi:

19.7.1. Javoblarning noaniqligi, to‘liq emasligi, dolzarb emasligi yoki xatoligi, shuningdek, Mijoz tomonidan Javoblar asosida qabul qilingan qarorlar va amalga oshirilgan harakatlar;

19.7.2. Mijoz tomonidan Javoblar mazmunining noto‘g‘ri talqin qilinishi;

19.7.3. Mijoz tomonidan mazkur BShning 19.5 va 19.6-bandlarida nazarda tutilgan shartlarning buzilishi, shu jumladan So‘rovlarda mazkur BShning 19.6.2-kichik bandida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning berilishi;

19.7.4. SI-assistent faoliyatining vaqtincha mavjud bo‘lmasligi, to‘xtatib turilishi, undagi nosozliklar yoki uning faoliyati cheklanishi;

19.7.5. Javoblarda havolalari keltirilishi mumkin bo‘lgan uchinchi tomon resurslarida joylashtirilgan ma’lumotlar.

19.8. Mazkur BShning 19.7-bandi qoidalari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra bunday cheklashga yo‘l qo‘yilmaydigan hollarda Bankning javobgarligini cheklamaydi, shuningdek, Bankni Mijoz tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan farmoyishlar bo‘yicha Bank va Mijoz o‘rtasidagi shartnomalarda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

19.9. SI-assistent “boricha” (“as is”) va texnik imkoniyat doirasida taqdim etiladi. Bank istalgan vaqtda Mijozni oldindan xabardor qilmasdan SI-assistentning funksional imkoniyatlarini o‘zgartirishga, Javoblar beriladigan mavzular ro‘yxatini cheklashga, Javob shakllantirishni rad etishga, So‘rovlar soni va hajmiga cheklovlar belgilashga, shuningdek, SI-assistentni taqdim etishni vaqtincha yoki to‘liq to‘xtatishga, shu jumladan ushbu bob shartlarini buzgan alohida Mijozlarga nisbatan, haqli. Agar Tariflarda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, SI-assistent bepul taqdim etiladi.

19.10. Mijoz Bank tomonidan So‘rovlar va Javoblarga, shuningdek, ular bilan bog‘liq texnik ma’lumotlarga ishlov berilishiga, ularning yozib olinishi va saqlanishiga, shu jumladan xizmatlar ko‘rsatish, xavfsizlikni ta’minlash, firibgarlikning oldini olish, xizmat ko‘rsatish sifatini nazorat qilish va oshirish, SI-assistentni takomillashtirish hamda Mijoz murojaatlarini ko‘rib chiqish maqsadlarida rozilik beradi. Shaxsga doir ma’lumotlarga va bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarga ishlov berish mazkur BShning 14-bobiga, O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

19.11. SI-assistentning faoliyat yuritishini ta’minlash uchun Bank dasturiy ta’minot va sun’iy intellekt texnologiyalarini yetkazib beruvchi uchinchi shaxslarni, ular tomonidan maxfiylik va axborotni himoya qilish talablariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga, shu jumladan shaxsga doir ma’lumotlarni lokalizatsiya qilish qismida, rioya etilishi sharti bilan jalb qilishga haqli.

19.12. Bankning axborot tizimlarida saqlanadigan So‘rovlar va Javoblar yozuvlari Bank tomonidan murojaatlarni ko‘rib chiqishda va nizolarni hal qilishda dalil sifatida foydalanilishi mumkin. Mijozning SI-assistent ishi bilan bog‘liq murojaatlari mazkur BSh va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi. Javobning mazmuni o‘z-o‘zidan Mijozning mahsulot yoki xizmatni Javobda ko‘rsatilgan shartlarda taqdim etish yoxud zararlarni qoplash to‘g‘risidagi talabi uchun asos bo‘lmaydi.

“TBC Bank” ATB bank mahsulotlari va xizmatlarini
taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlariga 1-ilova

“TBC Bank” ATB Boshqaruv Raisi
S. Tetrashviliga

F.I.Sh.: Tel.:
JShShIR:

……
Shaxsni tasdiqlovchi hujjatning seriya va raqami:
Berilgan sana:
Kim tomonidan berildi:

ARIZA

Men ushbu ariza bilan Sizdan men bilan tuzilgan bank hisobvarag‘i shartnomasini bekor qilishingizni va Bankda ochilgan barcha mavjud hisob raqamlarni o‘z xohishimga ko‘ra yopishingizni so‘rayman.

“TBC Bank” ATB bank mahsulotlari va xizmatlarini
taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlariga 2-ilova

“TBC Bank” ATB Boshqaruv Raisi
S. Tetrashviliga

F.I.Sh.:

Tel.:
JShShIR:

……
Shaxsni tasdiqlovchi hujjatning seriya va raqami:
Berilgan sana:
Kim tomonidan berildi:

ARIZA

Ushbu ariza bilan men Sizdan Bankning mobil ilovasidagi menga tegishli hisob qaydnomani o‘chirishingizni va u bilan bog‘liq Bankda ochilgan barcha mavjud hisob raqamlarni o‘z xohishimga ko‘ra yopishingizni so‘rayman.

Menga tegishli hisob qaydnomani o‘chirish va mavjud hisob raqamlarni yopish shartlari bilan tanishdim va ularga roziman. Shuningdek, o‘z hisob qaydnomam bilan bog‘liq Bankning kredit va boshqa mahsulotlari bo‘yicha barcha komissiya to‘lovlari hamda boshqa qarzdorliklarni to‘lash majburiyatini o‘z zimmamga olaman.

“TBC Bank” ATB bank mahsulotlari va xizmatlarini
taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlariga

3-ilova

1. Bank kartalari. Bank kartasini/virtual bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish uchun shartnoma

1.1. Mijoz Karta ochish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilgan taqdirda, agar Mijoz “TBC Bank” ATBning bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlariga (keyingi o‘rinlarda – BSh) ushbu 3-ilovada bayon etilgan bank kartasini / virtual bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi Shartnoma shartlariga rozi bo‘lsa, Bank Kartani ochadi va unga xizmat ko‘rsatadi. Mazkur Ilova Mijoz tomonidan tasdiqlangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va Shartnomaning ajralmas qismiga aylanadi. Ushbu Ilova bilan tartibga solinmagan barcha masalalarda Tomonlar BSh qoidalariga amal qiladilar.

1.2. Bank kartasi/virtual bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma shartlariga muvofiq, Bank Mijozning arizasi/buyurtmasi yoki onlayn arizasi/buyurtmasiga asosan milliy yoxud xorijiy valyutada bank kartasi hisobvarag‘ini (keyingi o‘rinlarda – Hisobvaraq) ochish, Mijozga (keyingi o‘rinlarda – Karta saqlovchi) bank kartasi (lar) ini/virtual bank kartasi (lar) ini (keyingi o‘rinlarda – Karta) chiqarish, shuningdek, bank kartasi hisobvarag‘iga BSh, Ariza/Buyurtma (ilgari Shartnoma/Buyurtma) yoki onlayn Ariza/Buyurtma hamda bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomada hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan shartlar va tartibda xizmat ko‘rsatish majburiyatini oladi.

1.3. Karta saqlovchining nomiga Karta ochish uchun, Karta saqlovchisi MBX tizimida yoki www.tbcbank.uz korporativ veb-saytida BSh va 3-ilova (Bank kartasi/virtual bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish shartnomasi) bilan tanishib chiqishi va ularni qabul qilishi (akseptlashi) hamda Karta ochishni so‘rashi lozim.

1.4. Muvaffaqiyatli identifikatsiyadan o‘tilgandan va Bankning masofaviy bank xizmati tizimida Shartnoma qabul qilinganidan so‘ng, Karta saqlovchisiga keyingi bank kunidan kechiktirmay Hisobvaraq ochiladi (norezidentlar uchun 15 bank kuni ichida) va Karta 3 bank kuni ichida chiqariladi.

1.5. Hisob raqamni ochgandan va kartani rasmiylashtirgandan so‘ng, Karta saqlovchisiga u Bankka tashrif buyurganidan so‘ng Karta taqdim etiladi, yoki kuryer orqali shaxs tasdiqlanganidan so‘ng shaxsan beriladi.

1.6. Bank kartasining amal qilish muddati bank kartalari va banklararo to‘lov tizimi orqali naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirish uchun to‘lov tizimida belgilangan qoidalar bilan belgilanadi va bank kartasining old tomonida ko‘rsatiladi.

1.7. Kartalar/karta hisobvaraqlari Bank yoki vakolatli organ tomonidan BShda, bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish shartnomasida, to‘lov tizimlari qoidalarida va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda, shuningdek, agar oxirgi 12 (o‘n ikki) oy davomida karta/karta hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalar amalga oshirilmagan bo‘lsa, bloklanishi va/yoki yopilishi mumkin. Karta hisobvarag‘ida pul mablag‘lari qoldig‘i

mavjud bo‘lganda Kartaning yopilishi hisobvaraqning yopilishiga olib kelmaydi; qoldiq BShning 4.7 va 4.24-bandlarida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

1.8. Karta Mijozning yozma arizasiga binoan yoki Bosh Shartlarda belgilangan aloqa kanallaridagi so‘rovnomasiga binoan yoki masofaviy bank xizmati yordamida bloklanishi mumkin.

1.9. Karta bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish Ichki nazorat qoidalariga va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa holatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Komprometatsiya.

1.10. Bank kartasiga zarar yetkazilishi, o‘g‘irlanishi va/yoki yo‘qolishi aniqlanganda yoki Bank kartasi yoki uning rekvizitlari, shuningdek, Karta PIN-kodi, kirish kodlari, autentifikatsiya ma’lumotlari, Karta saqlovchisining elektron qurilmasi yo‘qolgan yoki o‘g‘irlangan bo‘lishi mumkinligiga shubha tug‘ilganda, shuningdek, Bank kartasi bankomat (ATM) tomonidan olib qolinganda va/yoki ism yoki familiya o‘zgarganda, Karta saqlovchisi zudlik bilan bu haqda Bankni Call-Markaz orqali va/yoki BShning 8-bobida ko‘rsatilgan boshqa usul bilan xabardor qilishi, Bank kartasini bloklashi, shuningdek, Bank kartasini muddatidan oldin qayta chiqarish to‘g‘risida ariza berishi kerak. Bank kartasi Bankning amaldagi tariflariga ko‘ra komissiya to‘langandan so‘ng qayta chiqariladi.

1.11. Agar ilgari yo‘qolgan deb e’lon qilingan Bank kartasi topilsa, Mijoz uni qaytarib berishga shart.

1.12. Kartadan foydalanishda Karta saqlovchisi Bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma bo‘yicha Bank tomonidan taqdim etiladigan quyidagi operatsiyalar turlarini amalga oshirishi mumkin:

1.12.1. Tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun SSK bilan naqdsiz shaklda hisob-kitoblar;

1.12.2. Kartadan pul mablag‘larini jismoniy shaxslar kartalariga o‘tkazish va kartaga pul o‘tkazish uchun naqd pulsiz operatsiyalar.

1.13. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ruxsat berilgan va Bank yordami bilan Karta saqlovchisiga taqdim etilishi mumkin bo‘lgan har qanday boshqa to‘lovlar, o‘tkazmalar va operatsiyalar turlari.

1.14. Karta va Hisob raqam haqida ma’lumot olish.

1.15. Bank majburiyatlari:

1.15.1. Karta saqlovchisi bilan Bank kartasini ochish va unga/virtual bank kartasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma tuzilgandan so‘ng hisob raqamni ochish;

1.15.2. Hisob raqam ochilgandan so‘ng, Karta saqlovchisiga kartani taqdim etish;

1.15.3. Karta yo‘qolgan yoki unga zarar yetkazilgan taqdirda, www.tbcbank.uz veb-saytida joylashtirilgan Bank Tariflariga muvofiq ushbu BShda keltirilgan masofaviy aloqa kanallari orqali taqdim etilgan Karta saqlovchisining arizasi / so‘rovi asosida 3 (uch) bank

kuni o‘tgach yangi Kartani taqdim etish;

1.15.4. Karta orqali amalga oshirilgan, Hisobvaraqdagi mablag‘lar qoldig‘ini kamaytiruvchi barcha operatsiyalar summasini, shuningdek, Bank tariflariga muvofiq Karta saqlovchisi tomonidan ko‘rsatilgan operatsiyalarni bajarganlik uchun Bankning vositachilik haqi summasini Hisobvaraqdan yechib oladi;

1.15.5. Bank kartasini ochish va unga/virtual bank kartasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma bekor qilingan holda, Hisobdagi pul qoldig‘ini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Karta saqlovchisiga qaytarib berish faqat naqd pulsiz shaklda, shu jumladan ushbu Ilovaning 2.34-bandiga muvofiq Mijozning Bankdagi boshqa kartasiga/hisobvarag‘iga o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiradi.

1.16. Bank huquqlari:

1.16.1. Karta saqlovchisi Bosh Shartlarni, Bank kartasini ochish va unga/virtual bank kartasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomani va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarini buzsa, Karta faoliyatini to‘xtatib qo‘yish;

1.16.2. Karta saqlovchisining arizasi yozma ravishda yoki masofaviy aloqa kanallari orqali yuborilsa, kartani istalgan vaqtda bloklash. Masalan, Karta yo‘qolgan yoki unga zarar yetkazilganda.

1.16.3. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga zid bo‘lgan maqsadlarga va hisob raqamlariga mablag‘larlar o‘tkazmaslik.

1.16.4. Agar Mijoz shu vaqtgacha Kartani yangi muddatga qayta chiqarmagan bo‘lsa, Kartaning amal qilish muddatining oxirgi kunida Mijozning bank kartasi hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari qoldig‘ini uning joriy hisobvarag‘iga («22616» hisobvarag‘i) o‘tkazish.

1.17. Karta saqlovchisining majburiyatlari:

1.17.1. Bank kartasini ochish va unga/virtual bank kartasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma, BSh, Bank yo‘riqnomalari, to‘lov tizimlari va huquqiy normalarga muvofiq kartadan foydalanish;

1.17.2. Bank kartasini ochish va unga/virtual bank kartasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomaning va/yoki yo‘riqnomalarning Karta saqlovchisi tomonidan buzilishi bilan bog‘liq Bankning barcha harajatlari va zararlarini qoplash;

1.17.3. Kartaning yo‘qolishi (o‘g‘irlanishi va hokazo) aniqlangan vaqtdan boshlab zudlik bilan, biroq 1 (bir) kalendar kundan kechiktirmay, Bankka va/yoki ushbu Bosh Shartlarda taqdim etilgan aloqa kanallari orqali Kartaning yo‘qolishi to‘g‘risida ariza yuborish;

1.17.4. Bankning amaldagi tariflariga muvofiq Karta bilan amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun kommissiya to‘lash;

1.17.5. 3 kalendar kuni ichida ushbu BShda taqdim etilgan masofaviy aloqa kanallari orqali yashash joyini, pasport ma’lumotlarini, telefon raqamlarini va Karta saqlovchisining

boshqa zarur ma’lumotlari o‘zgarganligi to‘g‘risida xabardor qilish.

1.17.6. Karta PIN kodi, kirish kodlari va autentifikatsiya ma’lumotlarining kompromitatsiyasi, jumladan uchinchi shaxslar tomonidan ularga kirish imkoniyati yuzaga kelgan taqdirda, ularni o‘zgartirish uchun zudlik bilan Bankni xabardor qilish.

1.18. Karta saqlovchisining huquqlari:

1.18.1. O‘z hisobidagi qoldig‘ini to‘ldirish;

1.18.2. Hisob raqamidan u bajargan barcha operatsiyalarni aks ettiruvchi ko‘chirma olish. Shu bilan birga, Karta saqlovchisi ushbu Bosh Shartlarda taqdim etilgan aloqa kanallari orqali ushbu xizmatni Bankdan shaxsan o‘zi so‘rashi lozim;

1.18.3. Kartalardagi PIN kodlarni o‘z xohishiga ko‘ra o‘zgartirish.

1.19. Karta saqlovchisi Bankning barcha xizmatlarini www.tbcbank.uz veb-saytida ko‘rsatilgan narxlarda to‘lash majburiyatini oladi.

1.20. Bank kartasini yoki virtual bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish shartnomasiga muvofiq Bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov, Karta saqlovchisining qo‘shimcha roziligisiz va akseptsiz, so‘zsiz hisobdan chiqariladi. Shuningdek, Karta saqlovchisi xizmatlar uchun boshqa hisoblardan ham to‘lov amalga oshirishi mumkin.

1.21. Tariflar va ushbu Shartnoma shartlariga o‘zgartirishlar kiritish BShning 16.4-bandida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

1.22. Karta saqlovchisi Bankka kartasi o‘g‘irlanishi yoki yo‘qolishi to‘g‘risida ushbu Ilovaning 1.10-bandida nazarda tutilgan usullarda xabardor qilishidan oldin va kartaning PIN-kodi uchinchi shaxslarga yoki boshqalarga ma’lum bo‘lishi gumoni haqida xabar berishidan oldin, Bank Mijozning maxfiy ma’lumotni saqlash majburiyatini buzishi natijasida yetkazilgan zararlar uchun, har qanday moliyaviy yo‘qotishlar va operatsiyalar uchun javobgar bo‘lmaydi.

1.23. Bank uchinchi tomonning aybiga ko‘ra to‘lov tizimlari ishida yuzaga kelgan uzilishlar uchun javobgar bo‘lmaydi (YaRPM, YaXPM ham shu jumladan, lekin ular bilan cheklanib qolmaydi).

1.24. “TBC Bank” ATBning masofaviy bank xizmati tizimida Bank Mijozi tomonidan ro‘yxatga olingan boshqa banklarga tegishli bo‘lgan qo‘shimcha kartalar orqali amalga oshirilgan tovarlar va xizmatlar uchun to‘langan to‘lovlar uchun Bank javobgar bo‘lmaydi.

1.25. Bankdan tashqarida to‘lov tizimlarida amalga oshirilgan operatsiyalar uchun Bank javobgar emas, Tomonlarning tegishli majburiyatlari to‘lov tizimlari tomonidan taqdim etilgan alohida huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi;

1.26. Bank uchinchi shaxslar tomonidan Kartaga xizmat ko‘rsatishni rad etganlari uchun javobgar emas.

1.27. Agar Karta saqlovchisi bank kartasining kompрometatsiya fakti haqida Bankka ma’lum qilmasa/xabardor qilmasa, Bank har qanday moliyaviy zarar va tranzaksiyalar uchun javobgar

bo‘lmaydi. Agar Bankka Karta saqlovchisi tomonidan kompрometatsiya haqida og‘zaki yoki yozma shaklda xabar qilingan bo‘lsa, Bank faqat bank kartasini bloklash choralarini ko‘radi.

1.28. Karta saqlovchisi Bank kabi bank kartasini ochish va unga/virtual bank kartasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma bo‘yicha ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash uchun javobgardir.

1.29. Agar tomonlardan biri bank kartasini ochish va unga/virtual bank kartasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomani bajarishda amaldagi qonunchilikni buzsa, ikkinchi Tomon buning uchun javobgar emas;

1.30. Shartnomada nazarda tutilmagan holatlarda Tomonlarning javobgarligi ushbu BSh va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

1.31. Bank kartasini ochish va unga/virtual bank kartasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomani Tomonlar bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolarni Tomonlar muzokaralar orqali ko‘rib chiqadi va Tomonlar o‘zaro kelishuvga erishmagan taqdirda, nizo BShning 16.7-bandida nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

1.32. Bank kartasini ochish va unga/virtual bank kartasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma Mijoz tomonidan qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi va Tomonlarning har biri tashabbusi bilan yoki sud qarori bilan bekor qilinmaguncha amal qiladi.

1.33. Bank kartasini ochish va unga/virtual bank kartasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma Tomonlardan birining tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin, agar bir Tomon shartnomani bekor qilinishi kutilgan kundan 30 kalendar kun oldin yozma ravishda yoki masofaviy aloqa kanallari orqali xabardor qilsa, quyidagilar sharti bilan: Bank tomonidan Karta saqlovchisiga berilgan barcha kartalar yaroqli holatda Bankka qaytarilsa; Karta saqlovchisi ushbu shartnoma bo‘yicha Bank oldidagi barcha majburiyatlarini bajargan bo‘lsa; Karta saqlovchisining Bank oldida qarzdorligi bo‘lmasa.

1.34. Bank kartasini ochish va unga/virtual bank kartasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma bekor qilinganda, kartani berish uchun to‘lanadigan haq, Bank tarifiga muvofiq operatsiyalarni qayta ishlash uchun komissiya haqi va boshqa to‘lovlar qaytarilmaydi.

1.35. Mijoz mablag‘larining xavfsizligini ta’minlash va bank kartalari bilan firibgarlik operatsiyalariga qarshi kurashish maqsadida, agar barcha banklar tomonidan chiqarilgan kartalarning (shu jumladan virtual va kobeydjing kartalarining) umumiy soni 20 (yigirma) donaga teng yoki undan ortiq bo‘lsa, Bankda ochilgan kartalar soni esa 5 (besh) donaga teng yoki undan ortiq bo‘lsa, Bank Mijozga yangi karta ochishni rad etishga haqli. Ushbu qoida chet el valyutasida ochilgan bank kartalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. “VISA”/Mastercard xalqaro bank kartasini / “VISA”/Mastercard virtual xalqaro bank kartasi ochish va unga xizmat ko‘rsatish uchun shartnoma

2.1. “VISA”/Mastercard xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma shartlariga muvofiq (bundan buyon matnda “VISA/Mastercard” deb yuritiladi) Bank Mijozning arizasi/talabnomasiga ko‘ra milliy/xorijiy valyutada hisobvaraq (keyingi o‘rinlarda “hisobvaraq” deb ataladi) ochish, Mijozga (keyingi o‘rinlarda “Karta saqlovchisi” deb ataladi)

xalqaro bank kartasini (keyingi o‘rinlarda “XBK” deb ataladi) chiqarish, shuningdek, “TBC Bank” ATB bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha mazkur BShda nazarda tutilgan shartlar va tartibda, “VISA/Mastercard” xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ariza/talabnoma va shartnomada hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq karta hisobiga (a) xizmat ko‘rsatish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

2.2. Karta saqlovchisining nomiga XBKni ochish uchun u MBX tizimida yoki www.tbcbank.uz korporativ saytda BSh bilan tanishib chiqishi va qabul qilishi hamda XBK ochilishini so‘rashi kerak.

2.3. Muvaffaqiyatli identifikatsiyadan o‘tilgandan va Bankning MBX tizimida Shartnoma qabul qilinganidan so‘ng, Karta saqlovchisiga keyingi bank kunidan kechiktirmay (norezidentlar uchun 15 bank kuni ichida) Hisobvaraq ochiladi va 5 bank kuni mobaynida XBK chiqariladi. Hisobvaraq raqami Bank tomonidan belgilanadi.

2.4. Agar XBK virtual bo‘lib jismoniy ko‘rinishga ega bo‘lmasa, u holda kartani buyurtma qilgan Egasi verifikatsiyadan o‘tgan bo‘lsagina, karta ilova orqali buyurtma qilinganidan keyin 30 daqiqa ichida faollashtiriladi.

2.5. Hisobvaraq ochilgandan va XBK chiqarilgandan so‘ng, XBK Bankka egalik qiluvchi tashrif buyurganida beriladi yoki O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab va boshqa mamlakatlarga kuryer orqali yetkazib beriladi (shu jumladan, uchinchi tomon yetkazib berish kompaniyalarini jalb qilgan holda) va shaxsni identifikatsiya qilgandan so‘ng shaxsan topshiriladi. Kartadan (shu jumladan qayta chiqarilgan kartadan) faqat Karta saqlovchisi tomonidan MBXda faollashtirilgandan so‘ng (shu jumladan, jismoniy tashuvchidagi karta uchun PIN-kod o‘rnatilgan holda) foydalanish mumkin, BShda belgilangan holatlar bundan mustasno.

2.6. Bank yangi muddatga uzaytirish imkoniyati bilan chiqarilgan kundan boshlab 5 yilgacha bo‘lgan muddatga XBK chiqaradi. Bank chiqariladigan (qayta chiqariladigan) kartalarning har xil turlari uchun turlicha amal qilish muddatini belgilashga haqli.

2.7. Hisobvaraqdagi pul mablag‘lari qoldig‘iga Karta/Hisobvaraq tarifiga muvofiq foizlar hisoblanadi.

2.8. XBKni qo‘llagan holda operatsiyalar to‘g‘risida elektron bildirishnomalarni olish maqsadida Karta bo‘yicha operatsiyalar to‘g‘risida xabardor qilish xizmati avtomat ravishda ulanadi. Xizmat haqi Karta tarifiga muvofiq yechib olinadi.

2.9. XBK Bosh Shartlar, xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish Shartnomasi hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan tartibda, shuningdek, Karta va/yoki karta hisobvarag‘i bo‘yicha oxirgi 12 (o‘n ikki) oy operatsiyalar bajarilmagan taqdirda, Bank yoki vakolatli organ tomonidan bloklanishi va/yoki yopilishi mumkin. Karta hisobvarag‘ida pul mablag‘lari qoldig‘i mavjud bo‘lganda XBKning yopilishi hisobvaraqning yopilishiga olib kelmaydi; qoldiq BShning 4.7 va 4.24-bandlarida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

2.10. XBKni Karta saqlovchisi tomonidan, uning yozma so‘roviga ko‘ra yoki Bankning MBX yordamida yoki BShda belgilangan aloqa kanallari orqali taqdim etilgan so‘rov asosida

bloklash mumkin.

2.11. XBK bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish Ichki nazorat qoidalari va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

2.12. XBK valyutasidan farqli boshqa valyutada tranzaksiyalar amalga oshirilganda, mablag‘larni Holding qilish tranzaksiya sanasidagi “VISA/Mastercard” to‘lov tizimining kursi bo‘yicha amalga oshiriladi. Mablag‘lar hisobvaraq va XBKdan O‘zaro hisob-kitob sanasidagi Bankning tijorat kursi bo‘yicha yechib olinadi.

Komprometatsiya.

2.13. XBKga zarar yetkazilsa, o‘g‘irlansa va/yoki yo‘qotilsa yoki XBK yoki uning rekvizitlari, shuningdek, karta PIN-kodi, foydalanish kodlari, autentifikatsiya ma’lumotlari, Karta saqlovchisining elektron qurilmasi yo‘qolgan yoki o‘g‘irlangan bo‘lishi mumkinligi aniqlansa, shuningdek, Bankomatda (ATM) olib qo‘yilgan bo‘lsa va/yoki ism yoki familiya o‘zgargan bo‘lsa, Karta saqlovchisi zudlik bilan Bankning Call-Markazi orqali va/yoki BShning 8-bobida belgilangan boshqa usul bilan ogohlantirishi va XBKni bloklashi kerak, shuningdek, XBKni muddatidan oldin qayta chiqarish uchun ariza berishi kerak.

2.14. Jismoniy tashuvchidagi karta, Bank farmoyishi asosida, quyidagi hollarda bankomat tomonidan olib qo‘yilishi mumkin:

2.14.1 Karta Bank tashabbusi yoki Mijoz so‘roviga ko‘ra bloklangan;

2.14.2 PIN kodni xato kiritishga urinishlar soni ruxsat etilganidan oshib ketdi;

2.14.3 Karta magnit tasma/chip ma’lumotlarini o‘qish qurilmasida Karta saqlovchisi tomonidan unutilgan.

2.14.4 bankomatda dasturiy yoki apparat ta’minoti ishdan chiqdi.

2.15. Agar ilgari yo‘qolgan deb e’lon qilingan XBK topilsa, uni saqlovchi uni Bankka qaytarishi shart.

2.16. XBKdan foydalanganda, Karta saqlovchisi xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish shartnomasi doirasida Bank tomonidan taqdim etiladigan quyidagi turdagi operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin:

2.16.1 Internet tarmog‘ida tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to‘lash;

2.16.2 Humo/Uzcard/Visa/Mastercard kartasidan to‘ldirish;

2.16.3 XBK va hisob raqam bo‘yicha ma’lumot olish;

2.16.4 Bankning mobil ilovasida chet el valyutasidagi Visa/Mastercard va milliy valyutadagi (Humo, Uzcard) kartalar o‘rtasidagi pul o‘tkazmalar, o‘tkazma vaqtida belgilangan Bank ayirboshlash kurslarini qo‘llagan holda amalga oshiriladi. Ushbu ayirboshlash kurslari bank kartasi egasiga pul o‘tkazish vaqtida ko‘rsatiladi va

bunday o‘tkazmaning tasdiqlanishi bank kartasi egasining ko‘rsatiladigan ayirboshlash kurslariga roziligini bildiradi. Bankning mobil ilovasida Humo/Uzcard va Visa/Mastercard kartalari o‘rtasida mablag‘larni konvertatsiya qilishda, konvertatsiya summalari yuzdan birgacha yaxlitlanadi. Shu sababli operatsiyaning yakuniy summasi hisob-kitob summasidan yaxlitlash miqdoriga farq qilishi mumkin.

2.16.5 Savdo-servis korxonalarida (SSK) tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to‘lash;

2.16.6 Bankomatlar va boshqa qurilmalar orqali BShning 1.3-bandiga muvofiq naqd pul mablag‘larini olish va kiritish.

2.17. Bank majburiyatlari:

2.17.1 Mazkur BSh qabul qilingandan va Karta saqlovchisi bilan xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish uchun Shartnoma tuzilgandan so‘ng Hisobvaraqni ochish.

2.17.2 agar XBK jismoniy tashuvchiga ega bo‘lsa, Hisobvaraq ochilgandan so‘ng, XBK saqlovchisining so‘roviga binoan unga XBKni jismoniy tashuvchida taqdim etish.

2.17.3 agar XBK virtual ko‘rinishda bo‘lsa, Bankning mobil ilovasi orqali kartaning to‘liq tafsilotlarini olish imkoniyatini taqdim etish.

2.17.4 Agar xalqaro bank Karta saqlovchisiga tegishli kartaning amal qilish muddati o‘tgan bo‘lsa, karta yo‘qolsa va unga zarar yetkazilgan bo‘lsa, ariza/so‘rov qabul qilingan sanadan boshlab 5 (besh) bank kunidan ko‘p bo‘lmagan muddat o‘tgandan keyin ushbu BShda nazarda tutilgan masofaviy aloqa kanallari orqali berilgan ariza/so‘rov asosida yangi XBKni www.tbcbank.uz saytda joylashtirilgan Bank tariflariga muvofiq chiqarish.

2.17.5 O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Shartnomaga ko‘ra Karta saqlovchisining topshirig‘iga binoan hisob-kitoblarni amalga oshirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish.

2.17.6 Karta saqlovchisining yozma arizasi bo‘yicha yoki Karta saqlovchisining tegishli identifikatsiyalash jarayonidan o‘tganidan keyin aloqa kanallari orqali murojaat qilganida XBKni bloklash

2.17.7 Xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Shartnoma bekor qilinganda, Hisob raqamdagi pul mablag‘lar qoldig‘ini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko‘ra usulda faqatgina naqd pulsiz shaklda, shu jumladan ushbu Ilovaning 2.34-bandiga muvofiq Mijozning Bankdagi boshqa kartasiga/hisobvarag‘iga o‘tkazish yo‘li bilan qaytarish.

2.17.8 Hisrob raqamdagi mablag‘ qoldig‘ini kamaytiruvchi, XBK orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar summalarini, shuningdek, Bank tariflariga muvofiq ushbu operatsiyalar Karta saqlovchisi tomonidan amalga oshirilganligi uchun Bank komission mukofotining summalarini Hisob raqamga debet qilish.

2.18. Bank quyidagi huquqlarga ega:

2.18.1 O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bankning ichki hujjatlari va To‘lov tizimlari qoidalarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha Mijozga Kartani chiqarish, faollashtirish, qayta chiqarish yoki blokdan chiqarishni rad etish.

2.18.2 Agar Karta saqlovchisi mazkur BShga hamda Xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish Shartnomasiga hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari normalariga rioya etmasa, XBK amal qilishini to‘xtatib turish.

2.18.3 Agar Karta saqlovchisi tomonidan yozma yoki masofaviy aloqa kanallari orqali ariza yuborilgan bo‘lsa, XBKni istalgan vaqtda bloklash. Misol uchun, XBKni yo‘qotish yoki unga zarar yetkazish holatlarida.

2.18.4 O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko‘ra taqiqlangan yoki unga zid bo‘lgan holda hisobvaraqlarga va maqsadlarni ko‘zlab mablag‘ o‘tkazmaslik.

2.18.5 Zarur hollatlarda, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, Karta saqlovchisi tomonidan hisob raqam bo‘yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarning qonuniyligini tekshirish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq zarur tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish.

2.18.6 Karta saqlovchisi tomonidan ushbu BSh, Xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish shartnomasi hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalari buzilgan taqdirda, Xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish shartnomasini bekor qilish.

2.18.7 Agar Mijoz shu vaqtgacha Kartani yangi muddatga qayta chiqarmagan bo‘lsa, Kartaning amal qilish muddatining so‘nggi kunida Mijozning bank kartasi hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari qoldig‘ini uning joriy hisobvarag‘iga (“22616” hisobvarag‘i) o‘tkazish.

2.18.8 Quyidagi hollatlarda oldindan ogohlantirmasdan karta operatsiyalarini bloklash:

2.18.8.1. himoya chorasi sifatida taxminiy firibgarlik yuzaga kelsa;

2.18.8.2.davlat organlarining talabiga binoan

2.18.8.3.Vakolatli xalqaro tashkilotlarning sanksiyalariga muvofiq Karta saqlovchisining sanksiya ro‘yxatiga kiritilishi, shuningdek, XBK emissiyasining xalqaro me’yorlari buzilishi munosabati bilan.

2.18.8.4.amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollatlarda.

2.18.9. Karta saqlovchisining roziligisiz hisob raqamdan quyidagilarni yechib olish:

2.18.9.1.bank xizmatlari uchun bank tariflariga muvofiq vositachilik komissiyasi;

2.18.9.2.tegishli asos mavjud bo‘lsa, Hisob raqamga noto‘g‘ri o‘tkazilgan mablag‘lar.

2.18.10. Bank naqd pul yechib olish va Karta bo‘yicha xarajatlar limitlarini (kunlik va oylik) o‘rnatishga haqli. O‘rnatilgan limitlar MBXda ko‘rsatilgan. Karta bo‘yicha o‘rnatilgan limitlarni o‘zgartirish uchun Mijoz quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

– Karta bo‘yicha limitni o‘zgartirish uchun masofaviy bank xizmatiga mustaqil ravishda ariza topshirish;

– Bankning Call-markazi orqali ariza berish.

Bank Mijozning arizasini u olingan kundan kechiktirmay ko‘rib chiqadi.

2.19. Karta saqlovchisi majburiyatlari:

2.19.1 Xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish shartnomasiga hamda BShga, Bank yo‘riqnomalariga, shuningdek, amaldagi qonunchilik normalariga muvofiq XBKdan foydalanish.

2.19.2 Karta saqlovchisi tomonidan Xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomasini buzish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni va Bank zararlarini to‘lash.

2.19.3 XBK yo‘qolganligi (yo‘qotish, o‘g‘irlik va h. k.) aniqlangan vaqtdan boshlab zudlik bilan, biroq 1 (bir) kalendar kundan kechiktirmay mazkur BShda belgilangan aloqa kanallari orqali Bankka XBK yo‘qolganligi haqida ariza va/yoki xabarnoma yuborish;

2.19.4 Bankning amaldagi tariflariga muvofiq XBK yordamida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun komissiya haqini to‘lash.

2.19.5 3 kalendar kun mobaynida Bankka ushbu BShda nazarda tutilgan masofaviy aloqa kanallari orqali yashash joyi, pasport ma’lumotlari, telefon raqamlari va Karta saqlovchisining boshqa muhim ma’lumotlari o‘zgargan holatlar haqida xabar berish.

2.19.6 Kompрometatsiya holatlarida, shu jumladan uchinchi shaxslar tomonidan karta PIN-kodi, kirish kodlari va autentifikatsiya ma’lumotlarini qo‘lga kiritilishi holatlari yuzaga kelsa, ularni o‘zgartirish uchun Bankni darhol xabardor qilish.

2.19.7 Har hafta Bankning mobil ilovasida mavjud bo‘lgan Tranzaksiya tarixi orqali karta bo‘yicha amalga oshirilgan tranzaksiyalarni tekshirish.

2.20. Karta saqlovchisi quyidagi huquqlarga ega:

2.20.1 Bankda mavjud bo‘lgan har qanday usul bilan o‘z hisobvarag‘idagi qoldiqni to‘ldirish;

2.20.2 o‘zi o‘tkazgan barcha operatsiyalar aks ettiriladigan Hisobvaraq bo‘yicha ko‘chirma olish. Bunda, Karta saqlovchisi ushbu xizmatni shaxsan Bankdan ushbu BShda nazarda tutilgan masofaviy aloqa kanallari orqali so‘rashi kerak;

2.20.3 Amaldagi qonun hujjatlari va ushbu Shartnoma talablari doirasida o‘z pul

mablag‘larini hisobvaraqda erkin tasarruf etish;

2.20.4 XBKni MBX orqali bloklash yoki blokdan chiqarish;

2.20.5 MBX orqali Bankning amaldagi tariflariga muvofiq komissiyani to‘lash sharti bilan XBKni qayta chiqarish uchun ariza berish;

2.20.6 Berilgan ariza asosida keyinchalik Hisob raqamni yopish bilan XBKdan foydalanishni rad etish.

2.21. Karta saqlovchisi www.tbcbank.uz saytida ko‘rsatilgan Tariflar bo‘yicha Bankning barcha xizmatlarini to‘lash majburiyatini oladi.

2.22. Xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish shartnomasiga muvofiq Bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lovlar akseptsiz va tortishuvsiz tartibda Karta saqlovchisining qo‘shimcha roziligisiz yechib olinadi. Karta saqlovchisi, shuningdek, boshqa hisob raqamlardan naqd pul ko‘rinishida bo‘lmagan shaklda xizmatlar uchun to‘lashi mumkin.

2.23. Tariflar va ushbu Shartnoma shartlariga o‘zgartirishlar kiritish BShning 16.4-bandida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.24. Bank “VISA/Mastercard” tizimida yuzaga keladigan uzilishlar uchun javobgar emas.

2.25. Bankdan tashqaridagi to‘lov tizimlarida amalga oshirilgan tranzaksiyalar uchun javobgar emas, Tomonlarning tegishli majburiyatlari va javobgarligi to‘lov tizimlari tomonidan taqdim etilgan alohida huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

2.26. Bank uchinchi shaxslar tomonidan XBKga xizmat ko‘rsatishdan bosh tortgani uchun javobgar emas.

2.27. Karta saqlovchisi, shuningdek, Bank, ushbu BShga ko‘ra va Xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomaga muvofiq axborotning maxfiyligini ta’minlash uchun javobgardir.

2.28. Agar Tomonlarning biri Xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomani bajarishda amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilmasa, ikkinchi Tomon buning uchun javobgar bo‘lmaydi.

2.29. Ushbu Shartnomada ko‘zda tutilmagan hollarda Tomonlarning javobgarligi mazkur BSh va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

2.30. Tomonlar Xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar muzokaralar yo‘li bilan ko‘rib chiqadi va agar Tomonlar o‘zaro kelishuvga erisha olmasa, ushbu nizo BShning 16.7-bandida nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

2.31. Xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma Karta saqlovchisi tomonidan uni qabul qilgan kunidan boshlab kuchga kiradi va Tomonlarning har qanday tashabbusi bilan yoki sud qarori bilan bekor qilingan kunigacha amal qiladi.

2.32. Xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat koʻrsatish toʻgʻrisidagi shartnoma Tomonlardan birining tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin, agar yozma xabarnoma yoki ikkinchi Tomonning masofaviy aloqa kanallari orqali Shartnoma bekor qilinishidan 30 kalendar kun oldin xabar berilib, Bank tomonidan Karta saqlovchisiga berilgan barcha XBK ishga yaroqli holatda Bankka qaytarilsa; Karta saqlovchisi mazkur Shartnoma boʻyicha barcha majburiyatlarni bajargan boʻlsa; Karta saqlovchisi Bank oldida hech qanday qarzdorlikka ega boʻlmasa;

2.33. Xalqaro bank kartasini ochish va unga xizmat koʻrsatish boʻyicha shartnoma bekor qilinganda XBK chiqarish uchun toʻlov, Bank tarifiga muvofiq Operatsiyalarni qayta ishlash uchun komission mukofot va boshqa toʻlovlar egasiga qaytarilmaydi.

2.34. Karta hisobvarag‘i boʻyicha shartnoma bekor qilingan taqdirda, Bank va Mijoz oʻrtasidagi moliyaviy majburiyatlar toʻliq hal etilgandan soʻng va Karta/Hisobvaraqda pul mablag‘lari qoldig‘i mavjud boʻlsa, Mijozning boshqa koʻrsatmasi boʻlmasa, Mijoz Bankka koʻrsatilgan mablag‘larni Mijoz nomiga ochilgan boshqa amaldagi Karta/Hisobvaraqqa oʻtkazishni topshiradi.

Tranzaksiyalar boʻyicha nizolar:

2.35. Agar Karta saqlovchisi karta boʻyicha tranzaksiya u tomonidan avtorizatsiya qilinmaganiga ishonch hosil qilsa, Karta saqlovchisi oʻz kartasini Bankning mobil ilovasi orqali darhol bloklashi yoki Bankning Call-markaziga qoʻng‘iroq qilishi lozim.

2.36. Karta saqlovchisi XBKning oʻg‘irlanganligi yoki yoʻqotilganligi toʻg‘risida hamda Karta saqlovchisi XBKning PIN kodi uchinchi shaxslarga yoki biron-bir shaxsga ma’lum boʻlganligiga unda shubhasi borligi haqida ushbu Ilovaning 2.13-bandida nazarda tutilgan usullarda xabardor qilgunga qadar Bank biror shaxs tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy yoʻqotishlar va tranzaksiyalar uchun, ma’lumotlar maxfiyligiga Karta saqlovchisi tomonidan rioya etilmaganligi sababli yuzaga kelgan yoʻqotishlar uchun javobgar emas.

2.37. Ruxsatsiz tranzaksiya boʻyicha nizo yuzaga kelgan taqdirda, Karta saqlovchisi XBKni bloklashga oʻz roziligini bildiradi.

2.38. 3D-Secure texnologiyasidan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar, agar boshqacha isbotlanmagan boʻlsa, Karta saqlovchisining oʻzi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi.

2.39. Bank quyidagi operatsiyalar boʻyicha javobgar emas:

2.39.1 agar operatsiya Bank javobgar boʻlgan holatlar tufayli amalga oshirilganligi isbotlanmagan boʻlsa, 3D-Secure texnologiyasidan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar;

2.39.2 ushbu BSh, mazkur Shartnomani buzgan holda amalga oshirilgan operatsiyalar;

2.39.3 XBK egasi tomonidan MBX orqali yoki ushbu BSh, mazkur Shartnomada koʻrsatilgan boshqa kanallar orqali XBKni bloklanguniga qadar XBK boʻyicha amalga oshirilgan operatsiyalar;

2.39.4 PIN-kodni kiritish bilan karta mavjud bo‘lganda.

2.40. Agar Karta saqlovchisi to‘lovni amalga oshirgandan so‘ng fikrini o‘zgartiradigan bo‘lsa, Bank tranzaksiyani bekor qila olmaydi. Bunday holatlarda, Karta saqlovchisi sotuvchi yoki yetkazib beruvchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishi lozim.

2.41. Bank tovarlar va xizmatlar sifatiga hech qanday kafolat bermaydi va har qanday sotuvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun javobgar emas. Bu boradagi har qanday nizo bevosita sotuvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi bilan hal qilinishi kerak.

2.42. Agar operatsiyalar amalga oshirilgan kundan boshlab 30 kalendar kundan ko‘p bo‘lmagan vaqt o‘tgan bo‘lsa, Karta saqlovchisi XBKdan foydalanish orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha da’vo qilish huquqiga ega.

2.43. Nizoli operatsiyani hal qilish uchun zarur bo‘lgan vaqt ishning murakkabligiga qarab farq qilishi mumkin va 60 ish kunidan taxminan 120 ish kunigacha tashkil etishi mumkin.

2.44. Zaruriyat yuzaga kelganda Bank nizoli vaziyatda yordam beradigan qo‘shimcha hujjatlarni (masalan, hisob-faktura, xizmatdan voz kechish to‘g‘risidagi bildirishnomalar, to‘lov kvitansiyalari) talab qilishi/so‘rashi mumkin.

“TBC Bank” ATB bank mahsulotlari va xizmatlarini
taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlariga

4-ilova

“TBC Bank” ATB Boshqaruvi Raisi
Tetrashvili S.

F.I.Sh.: Tel.:
JSHSHIR:

……

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat seriyasi va raqami:
Berilgan sanasi:
Kim tomonidan berilgan:

Chet el valyutasida joriy hisobvaraq ochish uchun
ARIZA

Bankning Bosh Shartlariga muvofiq “TBC Bank” ATBda xorijiy valyutada joriy hisob ochishingizni so‘rayman.

Hisobvaraq valyutasi: _____